

Shahnoza Rahmonova



**UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA
ARUZ TIZIMINI O'QITISH
MUAMMOLARI**


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

Shahnoza Rahmonova

**UMUMTA‘LIM MAKTABLARIDA ARUZ
TIZIMINI O‘QITISH MUAMMOLARI**

Uslubiy qo‘llanma

36566



**“Mahalla va Oila” nashriyoti
Toshkent – 2021**

KBK: 74.26

R 33

UO‘K: 373:808.5(075)

ISBN 978-9943-7775-4-5

Rahmonova, Shahnoza.

Umumta‘lim maktablarida aruz tizimini o‘qitish muammolari [Matn]: uslubiy qo‘llanma / Sh. Rahmonova. – Toshkent: Mahalla va Oila, 2021. - 136 b.

Mazkur uslubiy qo‘llanmada umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 8–11-sinflari “Adabiyot” o‘quv dasturlarida o‘rganilishi rejalashtirilgan aruz tizimidagi badiiy asarlarning vazn xususiyatlari va o‘lchov imkoniyatlarini o‘rganish mazmuni bayon etiladi.

Undan umumiy o‘rta ta‘lim maktablari adabiyot o‘qituvchilari, filologik ta‘lim bakalavriat va magistratura bosqichlari talabalari hamda mustaqil izlanuvchilar aruz tizimiga xos asarlar tahlilida foydalanishlari mumkin.

Mas‘ul muharrir:

Dilnavoz Yusupova – filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Taqrizchilar:

V.Qodirov – Andijon davlat universiteti dotsenti, pedagogika fanlari doktori (DSc)

S.Qambarova – Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti dots.v.b., pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Sh.Toshmirzayeva – XTV tasarrufidagi filologiya maktabi oliy toifali ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Uslubiy qo‘llanma Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti kengashining 2021-yil 20-noyabrdagi 4-sonli majlisi qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

© **Rahmonova Sh.**

© **“Mahalla va Oila” nashriyoti, 2021.**

KIRISH

Mustaqillik yillarida mumtoz adabiyot namunalarini o'rganishga yondashuv masalasi yangi bosqichga ko'tarildi. Uzluksiz adabiy ta'lim tizimida, xususan, umumiy o'rta ta'lim maktablarida mumtoz adabiyotga xos belgi-xususiyatlar, so'z san'ati taraqqiyot bosqichlari, shakli va mazmuniga daxldor nazariy bilimlarni yosh avlodga o'rgatish ishlari jiddiy tus oldi. Bu borada yoshlarga berilishi lozim bo'lgan bilim, shakllantirilishi ko'zda tutilgan ko'nikma va malakalar adabiyotdan davlat ta'lim standarti, ushbu hujjat asosida tuzilgan o'quv dasturlari va yangi avlod darsliklari mazmunida alohida e'tiborga olindi.

Adabiy ta'lim jarayonida mumtoz namunalarni o'rgatishdan asosiy maqsad mazkur fan bo'yicha yillar, asrlar davomida ajdodlar tajribasidan o'tgan, ijobiy natija beradigan bilimlar yangi avlod tomonidan egallanib, ular asosida hayotiy faoliyat uchun zarur bo'lgan ko'nikma va malakalarni shakllantirishdir. Zero, shu orqali lirik asarlarda ijodkor tomonidan g'oyat ustalik va noziklik bilan aks ettirilgan shaxs hayoti bilan bog'liq bo'lgan muammolar, asar yaratilgan davrning muhim ijtimoiy masalalari hamda falsafiy fikrlar o'quvchi qalbiga singdiriladi.

Adabiyot o'qitishda "o'quvchilarni badiiy adabiyotga qiziqtirish, asarlarni o'rgatish jarayonida olam va inson tabiati, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar, shuningdek, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish orqali o'quvchilarning ma'naviyatini, dunyoqarashini kengaytirib, mustahkamlab borish"¹ maqsadiga erishish mumtoz namunalar o'zagini tashkil etuvchi aruz nazariyasi bilan bog'liq bilimlarning chuqur o'zlashitirilishini ta'minlaydigan ilg'or ish usullarini taqozo etadi. Bu esa, oliy ta'limda kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, uzluksiz ta'lim bosqichlaridagi ish tajribalarini milliy an'analardan chetlashmagan holda zamonaviy yondashuvlar bilan boyitish masalasini ham ko'zda tutadi.

Mumtoz adabiyot namunalari orqali yoshlarda baadiiy-estetik tafakkur, yot va begona g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni

¹ Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartini tasdiqlash to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – T.: 2017 йил 14 (774)-son, 230-modda. – 33-6.

shakllantirish adabiy ta'limdan ko'zlangan asosiy maqsad sanaladi. Bugungi tezkor davrda butun dunyoda mumtoz adabiyotning ta'sirchan kuchidan yosh avlodga ta'lim-tarbiya berishda unumli foydalanilmoqda. Jumladan, mamlakatimizda ham mumtoz asarlar mutolaasiga qiziqtirishga doir keng ko'lamli targ'ibot ishlari amalga oshirilmoqda. Bunga misol tariqasida yoshlarimiz o'rtasida har yili o'tkazib kelinayotgan "Yosh kitobxon" ko'rik-tanlovini ko'rsatish mumkin. Globallashuv jarayoni ketayotgan bir mahalda mumtoz adabiyotimizda, xususan, g'azallar tahlili va talqinlarida turlicha qarash va yondashuvlar kechimini kuzatishimiz mumkin. Aynan shu jihatlariga alohida urg'u berish maqsadida mazkur qo'llanmada mumtoz janrlar tizimida tadqiqot ishimizni davom ettirish ko'zda tutildi. Bu borada talaygina ilmiy ishlar amalga oshirilayotgani sohada ham sezilarli darajada o'sish kuzatilayotganidan dalolat beradi.

Ta'kidlash joizki, umumiy o'rta ta'lim maktablarida aruz nazariyasiga doir dastlabki elementar tushunchalarni o'rgatish masalasi dolzarb muammo sifatida 6-, 7-sinflardan boshlab soddadan murakkabga tamoyili asosida tahlilga tortilishi maqsadga muvofiq. Tajribalarimizda aruz nazariyasi xususida so'z yuritilganda o'quvchilarda bu borada aniq tasavvurning shakllanmaganligi hamda zarur tushunchalarning o'zlashtirilmaganligi ayon bo'lib qoldi. Shu bois mazkur uslubiy qo'llanmada darsliklardagi aruz vaznida uchraydigan bahr nomlariga doir bilimlarni nazariya bilan bog'lab solishtirish masalasi xususida so'z yuritiladi. Bundan tashqari, aruz tizimida yaratilgan asarlarni ifodali o'qitishga o'rgatishga alohida ahamiyat qaratiladi. Agarda vazn xususiyatlari tadrijiy holda ierarxik tarzda o'rgatib borilsa, o'quvchilarning bahrlarga xos o'ynoqilik, jozibadorlik xususiyatlari, sokin va ohista kuylarga monand sifatlari anglab yetilishiga zamin yaratiladi.

8-SINF “ADABIYOT” DARSLIGIDA KELTIRILGAN JANRLARNING VAZN XUSUSIYATLARINI O‘RGANISH MUAMMOLARI

Dars samaradorligi, egallangan ko‘nikma va malakalarning sifat ko‘rsatkichlari ko‘p jihatdan o‘quvchilarga berilgan nazariy bilimlarga bog‘liq. Bizningcha, o‘rta maktab adabiy ta‘limida o‘rganishga tavsiya etilayotgan nazariy bilimlar belgilangan bosh maqsad, asosiy vazifalardan kelib chiqib, badiiy adabiyotning ham shakliy, ham mazmuniy mundarijasini o‘zaro muvofiqlikda, aniq maqsadlarga yo‘naltirilgan va ayni paytda tadrijiy tizimga bo‘ysundirilgan tarzda berilishi lozim. Bu esa, o‘z navbatida, o‘quvchilarning adabiy-nutqiy ba badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyalarini shakllantirishga zarur shart-sharoit yaratadi.

“She‘r vazni uning mazmuni bilan bevosita aloqadordir. Bu aloqa turli shakllarda namoyon bo‘ladi va unga ta’sir ko‘rsatuvchi ko‘plab omillar mavjud. Vaznning “og‘ir”, “yengil”, “o‘ynoqi”, “sokin” bo‘lishi bevosita mazmunga ham ta’sir qiladi”¹. Maktabda vaznlarni o‘qitish adabiyot o‘qituvchilari uchun murakkab mavzulardan biri sanaladi. Sababi, vaznlarni o‘rgatish uchun hamma dasturlarda juda oz soat ajratib kelingan, ba’zilarida esa umuman bu mavzu kiritilmagan². Bu jihatni quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- a) aruz tizimi haqida tushuncha;
- b) qisqa, cho‘ziq va o‘ta cho‘ziq hijolarning sifatlari;
- c) ruknlar, ularning tuzilishi va turlari;
- d) bahrlarning hosil bo‘lishi;
- e) vasl, imola, taslim va vasli ho hodalari;
- f) ifodali o‘qishda ritmik pauzaning o‘rnini belgilash.

g) ma’lum bir asarning she‘riy o‘lchovini aniqlashda uni faqat bahrlar doirasida emas, balki bahr tarkibidagi vaznlar doirasida o‘rganish.

¹ Наджибуллохи А. Аруз и соотношение метра и содержания в персидско-таджикской поэзии. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Душанбе, 2016. – С. 9.

² Қодиров В. Умумтаълим мактабларида ўзбек мумтоз адабиёти намуналарини ўқитишнинг илмий-методик асослари. Пед. фан. док. ... (DSc) дисс. – Наманган, 2019. – 113-б.

Aruz tizimi VIII asrda “arab filologiyasining otasi” Halil ibn Ahmad tomonidan fanga olib kirildi. “Aruz” so‘zining bir nechta istilohiy ma’nolari mavjud¹. Aruz tizimining nazariy tushunchalari: hijo, rukn, bahr misrada bir-birini to‘ldirib keladigan nazariy tushunchalar hisoblanadi. Biz, hijoni aruz tizimidagi eng kichik ritmik bo‘lak sifatida belgilaymiz. Mana shu aruz tizimidagi eng kichik birlik hijoning takrori ruknni, ruknning takrori esa bahrlarni hosil qiladi. Demakki, *hijo, rukn, bahr* aruz tizimida bir-birini to‘ldirib turuvchi nazariy tushunchalar ekan.

Hijo (arabcha “bo‘g‘in” demak) aruz vaznida yozilgan she‘riy asar misralarini tashkil qiluvchi va bir ovoz bilan talaffuz etiluvchi eng kichik ritmik bo‘lak bo‘lib, bir unidan yoxud bir unli bilan bir yoki bir necha undosh harf birikmasidan tashkil topadi². Hijoning cho‘ziq, qisqa va o‘ta cho‘ziq kabi turlari mavjud. Buni quyidagicha aks ettirish mumkin:

—	V	—V ~
cho‘ziq hijo	qisqa hijo	o‘ta cho‘ziq hijo

Qisqa, cho‘ziq, o‘ta cho‘ziq hijolar haqida g‘azallarning vazn xususiyatlarini o‘rganish jarayonida batafsil to‘xtalamiz.

Metodist olim V.Qodirov ruknlarning hosil bo‘lishini tushuntirganda, ular sabab, vatad, fosila unsurlarining birikuvidan vujudga kelishini qayd etish bilangina kifoyalani, hijolar orqali tushuntirilganda o‘quvchilarning oson qabul qilishi tajribalarda kuzatilganligini qayd etadi³. Biz ham olimning fikriga qo‘shilamiz. Chunki *foilotun* asliy rukni (فَاعِلَاتُنْ) – bir sababi xafif (—) “fo”, bir vatadi majmu’ (V —) “ilo” va bir sababi xafif (—) “tun”dan (—V

¹ Bu haqida to‘liqroq ma’lumot olish uchun qarang: Yusupova D. Aruz va mumtoz poetikaga kirish. – T.: Akademnashr, 2020.

² Хожиахмедов А. Ўзбек арузи луғати. – Т.: Шарқ, 1998. – 214-б.

³ Qodirov V. Mumtoz adabiyot: O‘qitish muammolari va yechimlar. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009. – 89-б.

— —) hosil bo‘ladi deyish o‘rniga, bir cho‘ziq (—) + bir qisqa (V) + bir cho‘ziq (—) + bir cho‘ziq (—) hijolarning o‘zaro birikuvidan foilotun (— V — —) asliy rukni hosil bo‘ladi deyilsa, o‘quvchi nisbatan oson o‘zlashtiradi. O‘qituvchi qolgan asliy ruknlar haqida ham shu tarzda ma‘lumot beradi. Bir qisqa va uch cho‘ziq hijodan mafoiylun (V — — —) rukni, uning takroridan hazaj bahri; ikki cho‘ziq, bir qisqa va cho‘ziq hijolardan mustaf’ilun (— — V —), uning takroridan rajaz; bir qisqa va ikki cho‘ziq hijodan fauvlun (V — —) rukni, uning takroridan mutaqorib bahri; cho‘ziq, qisqa va cho‘ziq hijodan foilun (— V —) rukni, uning takroridan mutadorik bahri; ikki qisqa, cho‘ziq, qisqa va cho‘ziq hijodan mutafoilun (V V — V —) rukni, uning takroridan komil bahri hosil bo‘ladi.

Aruzga doir turkiy risolalarda bahrlar ikki guruhga bo‘linib, tasnif qilinadi. Xususan, Shayx Ahmad Taroziyning “Funun ul-balog‘a”, Zahiriddin Muhammad Boburning “Aruz risolasi”da bahrlar *muttafiq ul-arkon* (bir xil asliy ruknlardan tashkil topgan) va *muxtalif ul-arkon* (turli asliy ruknlarning takroridan hosil bo‘ladigan) bahrlarga ajratilgan¹. Bahrlarni bu tarzda tasnif qilish ularning o‘ziga xos xususiyatlari (qanday ruknlardan tarkib topganligi)ni o‘zlashtirishga ko‘maklashish bilan birga ushbu bahrlarning ohang imkoniyatlarini farqlashga ham yordam beradi. Turkiy she‘riyatda *muttafiq ul-arkon* guruhiga *ramal*, *hazaj*, *rajaz*, *mutaqorib*, *mutadorik*, *komil* bahrlari kiradi. Quyidagi jadvalda *muttafiq ul-arkon* bahrlari hamda ular tarkib topgan asliy ruknlarni ko‘rish mumkin:

№	Bahr nomi	Asliy rukn nomi	Taqtiyi
1.	Ramal	Foilotun	— V — —
2.	Hazaj	Mafoiylun	V — — —
3.	Rajaz	Mustaf’ilun	— — V —
4.	Mutaqorib	Fauvlun	V — —
5.	Mutadorik	Foilun	— V —
6.	Komil	Mutafoilun	V V — V —
	Jami:	6	6

¹ Qarang: Шайх Ахмад Тарозий. Фунун ул-балога. Нашрга тайёрловчи А.Хайитметов. — Т. Хазина, 1996. — 147-б.; Бобур Захириддин. Мухтасар. Нашрга тайёрловчи С.Ҳасан. — Т.: Фан, 1971. — 24-б.

Yuqoridagilardan ramal, hazaj, rajaz va mutaqorib bahrlari maktab darsliklarida keltirilgan mumtoz janrlar uchun xos bo‘lib, *ramalning* 5 vazni, *hazajning* 9 vazni, *mutaqoribning* 4 vazni va *rajazning* 1 vazni qo‘llanilgan.

Turkiy (o‘zbek) she‘riyatda shunday bahrlar uchraydiki, ular yuqorida o‘rganilgan bahrlardan tarkiban farqlanadi. Aruzshunoslik ilmida bunday bahrlarni *muxtalif ul-arkon* bahrlar deb atash qabul qilingan¹. Chunki ularning tarkibida ikki xil asliy rukn ishtirok etadi. Masalan, *mafoiylun* va *foilotun* asliy ruknlari birgalikda bir misrada kelsa, *muzori*‘ bahri hosil bo‘ladi. Demak, “turli asliy ruknlar va ularning tarmoqlaridan tarkib topgan bahrlar o‘zining asl ustuniga, ya’ni rukniga ega bo‘lmaganligi uchun ular ikki xil asliy ruknlarning birikuvidan hosil bo‘ladi”². Turkiy she‘riyatda *muxtalif ul-arkon* guruhiga *muzori*‘, *mujtass*, *munsarihi*, *sari*‘, *xafif*, *amiq*, *ariz* bahrlari kiradi. Maktab darsliklarida *muzori*‘, *mujtass*, *sari*‘, *xafif* bahrlari vaznlari uchraydi.

Aruz tizimida har bir bahr bir necha vaznlarni o‘z ichiga oladi. Bu vaznlar bir bahrga mansubligidan qat’i nazar, o‘ziga xos ohangga ega. Masalan, hazaj bahrining *hazaji musammani solim* vazni sokin va vazmin ohang kasb etsa, xuddi shu bahr tarkibidagi *hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf* yengil va o‘ynoqi ohangda ekanligi bilan xarakterlanadi. Bu vazn *hazaji musammani solim*ga mos bo‘lgan mahzun tuyg‘ular ifodasini “ko‘tara olmaydi”. Xuddi shu fikrni rajaz bahrining *rajazi musammani solim* va *rajazi musammani matviyi maxbun* vaznlariga nisbatan ham aytish mumkin. Shu nuqtayi nazardan g‘azallarning bahrlar tarkibidagi vaznlar kesimida tadqiq qilinishi maqsadga muvofiq.

Aruz tizimida baytdagi har bir ruknning o‘z nomi bor. Baytdagi birinchi misraning boshi *sadr*, oxiri *aruz*, ikkinchi misraning boshi *ibtido*, oxiri esa *ajuz* yoki *zarb* va qolgan har ikki misraning o‘rtasidagi ruknlari *hashv* deyiladi. Masalan, bayt sakkiz ruknli bo‘lsa, ruknlar nomi quyidagicha bo‘ladi:

¹ Qarang: Шайх Аҳмад Тарозий. Фунун ул-балоға. Нашрга тайёрловчи А.Ҳайитметов. – Т.: Ҳазина. 1996. – 147-б.; Бобур Заҳириддин. Мухтасар. Нашрга тайёрловчи С.Ҳасан. – Т.: Фан, 1971. – 24-б.

² Yusupova D. Aruz va mumtoz poetikaga kirish. – Т.: Akademnashr, 2020. – 21-б.

**Sadr
Ibtido**

**hashv
hashv**

**hashv
hashv**

**aruz
ajuz
(zarb)**

kabi tartibga ega bo‘ladi. Buni 8-sinf darsligida keltirilgan Lutfiy qalamiga mansub “*Xoh inon, xoh inonma*” radifli g‘azalining matla‘ bayti misolida ko‘rish mumkin:

<i>Sensan se</i>	<i>varim, xoh</i>	<i>inon, xoh</i>	<i>inonma,</i>
sadr	hashv	hashv	aruz
<i>Qondur ji</i>	<i>garim, xoh</i>	<i>inon, xoh</i>	<i>inonma</i>
ibtido	hashv	hashv	ajuz (zarb)

Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 8-sinfi “Adabiyot” o‘quv dasturida o‘rganilishi rejalashtirilgan Mavlono Lutfiy, Alisher Navoiy, Mohlaroyim Nodira asarlari aruz tizimi asosida yaratilgan. Ularni o‘rganish jarayonida o‘quvchilar ilk bor aruz tizimi imkoniyatlari bilan tanishadilar. Shu bilan birgalikda, qator o‘lchovlarning vazn va mazmun takomilidan hamda ohang jilolalaridan xabardor bo‘ladilar. Mavlono Lutfiyning aruz tizimida yaratilgan “*Xoh inon, xoh inonma*”, “*Qiladurg‘on bu ko‘nguldur, bu ko‘ngul*”, “*Ayoqingga tushar har laha gisu...*” kabi g‘azallari hamda “*Dog‘i bor*”, “*Bandamen*”, “*Yozamen*” singari tuyuqlarini o‘rganish nazarda tutilgan¹.

Mavlono Lutfiydan bizgacha salmoqli adabiy meros yetib kelgan bo‘lib, uni, asosan, katta lirik asarlar tashkil qiladi. Lutfiyning lirikadagi serqirra ijodi haqida Alisher Navoiy “*Majolis un-nafois*” asarida to‘xtalib o‘tadi. Shoirning forsiy tildagi asarlarini to‘plab devon tuzgani bizga ma‘lum bo‘lmasa-da, uning bu tilda ham katta mahorat bilan ijod qilganligi zamondoshlari tomonidan e‘tirof etilgan. Shoir devonining respublikamizdan tashqari ko‘pgina

¹ Umumiy o‘rta ta‘limning davlat ta‘lim standarti va o‘quv dasturi ona tili va adabiyot (5–9-sinf). – T.: 2017.

mamlakatlar kutubxona xazinalarida saqlanayotgan qo‘lyozmalari shundan dalolat beradi.

Devon Sharq she‘riyatining yetakchi janrlaridan bo‘lgan g‘azal, ruboiy, tuyuq, qit‘a va fardlarni o‘z ichiga oladi. U odatdagidek, hamd va na‘t she‘rlari bilan boshlanadi. Devonning deyarli ko‘p nusxalarida Shohrux Mirzo nomiga yozilgan qasidaga ko‘zimiz tushadi. Ayrim nusxalarda esa temuriy shahzodalar: Boysung‘ur Mirzo, Iskandar Mirzo nomiga bag‘ishlangan qasidalar ham uchraydi. Lutfiy devonidan o‘rin olgan lirik asarlarning yetakchi mavzusi – ishq. Shu ishq insonning zohiriy va botiniy olamini oyna kabi aks ettiradi. Shoir lirikasida hayot zavqi, tabiat go‘zalliklaridan bahramand bo‘lish, shodlik va tarona ohanglari bilan bir qatorda inson qadriyati va uning orzu-umidlarini oyoqosti qiluvchi “kajraftor charx”, “sergina falak”, “jaholatpesha odamlar”dan ozurdahollik kayfiyatlari ham yuz ko‘rsatadi¹.

Darslikda dastlab Lutfiyning “*Xoh inon, xoh inonma*” radifli g‘azali keltiriladi. Mazkur g‘azal Lutfiyning “Sensan sevarim” devonidan o‘rin olgan*. G‘azalda ishq mavzusi qalamga olingan. Lutfiyning mazkur g‘azali aruzning o‘ynoqi, lekin o‘quvchi uchun nisbatan murakkab turlaridan biri bo‘lmish *hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf* (yoki maqsur), ya‘ni maf‘uvlu – mafoiyu – mafoiyu – fauvlu (yoki mafoiy) (— — V/ V — — V/ V — — V/ V — — (yoki V— ~) vaznida bitilgan². Dastlab ushbu vazn haqida o‘quvchilarga qisqacha ma‘lumot berish maqsadga muvofiq. Hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf vazni she‘riyatimizdagi yoqimli, musiqiy o‘lchovlardan biridir. Ruknlari va chizmasi bir misrada

Maf‘uvlu mafoiyu mafoiyu fauvlu
— — V V — — V V — — V V — —


tarzidadir. Ushbu vazn o‘quvchi e‘tiboriga quyidagicha havola qilinishi mumkin.

¹ Sultonmurod O., Ahmedov S., Qo‘chqorov R. Adabiyot. 8-sinf uchun darslik. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2019. – 330-b.

*Qarang: Лутфий. Сенсан севарим. – Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. – 22 б.

² Sultonmurod O., Ahmedov S., Qo‘chqorov R. Ko‘rsatilgan manba. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2019. – 76-b.

Hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf



singari jadvaldagi vazn sadr va ibtidoda *mafoiylun* aslining *axrab* tarmog‘i *maf’uvludan*, hashvlarda *makfuf* tarmog‘i *mafoiyludan* hamda aruz va zarb (ajuz)da *mahzuf* tarmog‘i *fauvlunlarning* takroridan tashkil topadi. Baytda 8 ta rukn mavjud, shunga ko‘ra u musamman bayt. Bu ruknlar *mafoiylun* aslining *axrab*, *makfuf*, *mahzuf* tarmog‘idan tashkil topgan. Demak, mazkur bayt hazaj bahrida yozilgan. Agar ruknlar soni bir misrada to‘rtta – baytda sakkizta bo‘lsa, bu vazn musamman deyiladi. Shunda vaznning nomi *hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf* va bayt shu vazn ohangida o‘qiladi:

Sensan se/varim, xoh(i)/inon, xoh(i)/inonma,

• **Maf’uvlu/ mafoiylu / mafoiylu / fauvlun**

Qondur ji/garim, xoh(i)/inon, xoh(i) inonma

• **Maf’uvlu/ mafoiylu / mafoiylu / fauvlun**

G‘azalni ifodali o‘qish uchun ko‘plab misralardagi so‘zlarni bitta bo‘g‘in orttirib o‘qish lozim. Shu sababli, “**xoh**” so‘zi vazn talabi bilan sun’iy “**xoh(i)**” tarzida talaffuz etiladi. Bu esa aruz tizimida imola hodisasi deyiladi. “Imola” arabcha so‘z bo‘lib, “biror narsaga suyanish”, “egilish” degan ma’nolarni bildiradi. Adabiy istiloh sifatida esa vazn talabi bilan o‘ta cho‘ziq hijolar tarkibidagi

unlilarni hamda qisqa talaffuz qilinuvchi unlilarni sun'iy tarzda cho'zib o'qishni ifodalaydi¹.

Matladagi *se-*, *-va*, *i-*, *i-* hijolari qisqa; *sen-*, *-san*, *-rim*, *-non*, *-non*, *-ma* hijolari cho'ziq; *xoh* hijolari esa o'ta cho'ziq hijolar sanaladi.

Darslikda har bir baytning mazmuni haqida ma'lumot berilgan, lekin masalaning ikkinchi tomoniga yaxshiroq e'tibor qaratish kerak. Negaki biror marta aruz vazni, cho'ziq, qisqa va o'ta cho'ziq hijolar haqida eshitmagan, taqti', rukn, misra, hijo va bayt degan tushunchalarni unchalik farqlay olmaydigan o'quvchiga bunday murakkablikka ega bo'lgan g'azal biroz qiyinlik qilmasmikan? Shuning uchun ham hamma narsani osonidan murakkabiga qarab yo'naltirish ta'lim sifatini yanada yaxshilashi mumkin, bizningcha. Yuqorida aruz vaznini o'rgatishga doir g'azal tahlilini berdik, lekin o'quvchiga qiyinlik tug'dirmaslik maqsadida fikrimizni yana bitta bayt misolida davom ettiramiz.

Hij	ron	ke	cha	si	char	xi	fa	lak	ka	ye	ta-	r+ey	moh
—	—	V	V	—	—	V	V	—	—	V	V	—	~
O	hi	sa	ha	rim	xo	h(i)	i	non	xo	h(i)	i	non	ma
—	—	V	V	—	—	V	V	—	—	V	V	—	—

Keltirilgan bayt “*Xoh inon, xoh inonma*” radifli g'azalining 2-bayti hisobanadi. Mazkur baytning birinchi misrasi *hazaji musammani axrabi makfufi maqsur* o'lchovida yozilgan. Hazaji musammani axrabi makfufi maqsur yuqorida keltirilgan vazndan so'nggi hijoning o'ta cho'ziqligi bilan farq qiladi. Ya'ni so'nggi rukndagi *fauvlun* (V— —)ning o'rniga *mafoiyil* (V— ~) qo'llaniladi. Chunki “**moh**” so'zining tarkibida cho'ziq unli ishtirok etgan. Bu esa aruz nazariyasida o'ta cho'ziq hijoni hosil qiladi. Har bir misraning yuqoridagi kabi tahlil qilinishi o'quvchilarda mavzu yuzasidan muayyan ko'nikma va malakalarini shakllantirishga yordam beradi.

Baytda birinchi misradagi “**yetar ey**” so'zlari qo'shib, “**yeta-r+ey**” tarzida o'qiladi. Aruz tizimida bu hodisa *vasl* deyiladi. Vasl

¹ Ходжахмедов А. Ўзбек арузи луғати. — Т.: Шарқ, 1998. — 44-б.

arabcha soʻz boʻlib, ulanish degan maʼnoni anglatadi. Vasl – aruz tizimi asosida yaratilgan sheʼriy asarlarni ifodali oʻqish jarayonida vazn talabi bilan ayrim yopiq hijolar oxiridagi undosh tovushni undan keyin turgan va unli tovush bilan boshlangan hijoga qoʻshib talaffuz etish hodisasi hisoblanadi¹. Aruzshunos D. Yusupova “Vasl hodisasi bir soʻz tarkibida sodir boʻlmaydi! Ushbu hodisa yuzaga kelishi uchun birinchi soʻz undosh bilan tugab, undan keyin kelayotgan soʻz unli bilan boshlanishi kerak, yaʼni ikki soʻz orasi ochiq boʻlishi kerak”, – deb taʼkidlaydi². Natijada, oʻta choʻziq hijo choʻziq hijoga, choʻziq hijo esa qisqa hijoga aylanadi.

Oʻquvchilarni gʻazalning 3-baytini hijolarga mustaqil ajratishga oʻrgatishda har bir hijoga toʻxtalinib, ularning qisqa, choʻziq, oʻta choʻziqligi izohlanishi zarur.

Gʻazalning qolgan 3–7-baytlari ham yuqoridagi *hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf* oʻlchovida bitilganligi uni tamoman turkona ruhda bitilgan deyishga asos boʻladi. Misralarda 6 qisqa va 8 choʻziq hijoning shu tarzidagi juft-juft boʻlib takrorlanishi jozibali va shoʻx ohangni vujudga keltiradi. Shu tufayli ushbu oʻlchov XIV asrdayoq shoirlarimiz ijodidan mustahkam oʻrin olgan edi. Mazkur vaznda yozilgan sheʼrlar Atoyi, Sakkokiy, Gadoiy, Hofiz Xorazmiy kabi shoirlarimiz lirikasida keng qoʻllangan. Lutfiyning 430 sheʼridan 66 tasi, xususan, 61 gʻazali shu oʻlchov asosida yaratilgan. Sheʼr quyidagicha oʻqiladi:

Sensan sevarim, **xoh(i)** inon, **xoh(i)** inonma,
Qondur jigarim, **xoh(i)** inon, **xoh(i)** inonma.

Hijron kechasi charxi falakka **yetar+ey** moh,
Ohi saharim, **xoh(i)** inon, **xoh(i)** inonma.

Haqqoqi, qilich kelsa boshimgʻa, eshikingdin
Yoʻqtur guzarim, **xoh(i)** inon, **xoh(i)** inonma.

Usruk **koʻzu-ng+ashkolina** hargah **naza-r+etsam**,
Qolmas xabarim, **xoh(i)** inon, **xoh(i)** inonma.

¹ Хожаихмедов А. Кўрсатилган манба. – Т.: Шарқ, 1998. – 34-б.

² Yusupova D. Aruz va mumtoz poetikaga kirish. – Т.: Akademnashr, 2020. – 18-б.

Ya'qub(i) bikin ko'p yig'idin qolmadi sensiz
Nuri basarim, xoh(i) inon, xoh(i) inonma.

Oy yuzung'a ko'z solg'ali o'zga kishi birla
Yo'qtur nazarim, xoh(i) inon, xoh(i) inonma.

~
Ish-q+o'tida Lutfiy yuzi oltunni yoshurdi,
Ey siym (i)barim, xoh(i) inon, xoh(i) inonma¹.

E'tibor qilinsa, g'azalni ifodali o'qish uchun:

birinchidan, radiflardagi “xoh” so'zi, shuningdek, “Ya'qub” so'zining ikkinchi, “siymbarim” so'zining birinchi (siym) bo'g'inlari tarkibidagi unilarni cho'zib;

ikkinchidan, “etar ey”, “ko'zung ashkolina”, “nazar etsam”, “ishq o'tida” so'zlarini qo'shib talaffuz etish zarur.

Lutfiyning “Meni shaydo qiladurg'on bu ko'nguldur, bu ko'ngul” deb boshlanuvchi g'azali “Sensan sevarim” devonidan o'rin olgan*. Ushbu g'azal darslikda *ramali musammani mahzuf* vaznida, – deb keltiriladi. “Lutfiyning “Bu ko'nguldur, bu ko'ngul” radifli g'azalining vazni *ramali musammani mahzuf* (yoki maqsur), ya'ni foilotun – foilotun – foilotun – foilon (yoki foilon). Taqti'si: — V — —/ — V — —/ — V — —/ — V — (yoki — V ~) tarzida berilgan”². Lekin g'azalning vazn xususiyatlari tahlil qilinganida “*ramali musammani mahzuf (maqsur)*” vazniga to'g'ri kelmasligi kuzatiladi. Quyida darslikdagi va biz tahlil qilgan taqti'larni keltiramiz.

Darslikdagi namuna (g'azalning matla'si jadvalga o'zimiz tomonimizdan solingan)³:

¹ Sultonmurod O., Ahmedov S., Qo'chqorov R. Ko'rsatilgan manba. – T.: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2019. – 79-b.

* Qarang: Лутфий. Сенсан севарим. – Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. – 146 б.

² Sultonmurod O., Ahmedov S., Qo'chqorov R. Ko'rsatilgan manba. – T.: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2019. – 79-b.

³ Qarang: Rahmonova Sh. Maktab darsligida keltirilgan aruz vaznlari tahlili (8-sinf “Adabiyot” darsligi misolida) // Til va adabiyot ta'limi. – T.: 2019. – №9. – B. 23–25.

Me	ni	shay	do	qi	la	dur	g'on	bu	ko'	ngul	dur	bu	ko'	ngul
—	V	—	—	—	V	—	—	—	V	—	—	—	V	—
Xo	r+u	ras	vo	qi	la	dur	g'on	bu	ko'	ngul	dur	bu	ko'	ngul
—	V	—	—	—	V	—	—	—	V	—	—	—	V	—

Bizning tahlil namunamiz:

Me	ni	shay	do	qi	la	dur	g'on	bu	ko'	ngul	dur	bu	ko'	ngul
V	V	—	—	V	V	—	—	V	V	—	—	V	V	—
Xo	r+u	ras	vo	qi	la	dur	g'on	bu	ko'	ngul	dur	bu	ko'	ngul
—	V	—	—	V	V	—	—	V	V	—	—	V	V	—

Chunonchi, Lutfiyning

Meni shaydo qiladurg'on bu ko'nguldur, bu ko'ngul,
Xor-u rasvo qiladurg'on bu ko'nguldur, bu ko'ngul¹

matla' baytini taqti' qilish uchun uni, avvalo, ritmik bo'lak – ruknlarga quyidagicha ajratamiz:

Meni shaydo/ qiladurg'on/ bu ko'nguldur./ bu ko'ngul,
Xor-u rasvo/ qiladurg'on/ bu ko'nguldur./ bu ko'ngul.

Har bir ruknning asliy yoki tarmoq ekanligini aniqlab, vaznini belgilaymiz. Birinchi misradagi “**Meni shaydo**”, “**qiladurg'on**”, “**bu ko'nguldur**” ruknlari ohang jihatidan *failotun* tarmog'iga, “**bu ko'ngul**” *failunga*, ikkinchi misradagi “**Xor-u rasvo**” *foilotun* asliga, “**qiladurg'on**”, “**bu ko'nguldur**” ruknlari ham *failotunga*, “**bu ko'ngul**” *failunga* teng keladi. Demak, har qaysi misra ruknlari “*failotun* yoki *foilotun* – *failotun* – *failotun* – *failun*” ko'rinishida ekan. *Failotun* – *foilotun* aslining maxbun, *failun* esa maxbuni mahzuf tarmog'idir. Bayt *foilotun* aslining maxbun va maxbuni maxbuni mahzuf tarmoq ruknlaridan tashkil topgani uchun ramal bahriga, baytning sakkiz rukndan tuzilganini nazarda tutib, shoir ushbu g'azalini *ramali musammani mahzufda* emas, balki *ramali musammani maxbuni mahzuf* vaznida yaratganligi oydinlashadi. 8 ta

¹ Sultonmurod O., Ahmedov S., Qo'chqorov R. Ko'rsatilgan manba. – T.: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2019. – 79-b.

cho‘ziq va 7 ta qisqa hijoning juft-juft bo‘lib takrorlana borishi sho‘x, yengil, o‘ynoqi, musiqabop ohang yaratadi.

G‘azal misralari vaznga moslanib, hijolarga ajratilganda ham bayt *ramali musammani maxbuni mahzuf* vazni talablariga mos ekanligi ko‘rinadi. Matla’ baytdagi **-ni, qi-, la-, bu-, ko‘-, bu, ko‘-, u-, qi-, la-, bu-, ko‘-, bu, ko‘-** hijolari qisqa; **me-, shay-, do-, dur-, g‘on-, ngul-, dur-, ngul-, ras-, vo-, dur-, g‘on-, ngul-, dur-, ngul-** hijolari cho‘ziq; **xor-** hijosi esa o‘ta cho‘ziq ekanligi ma‘lum bo‘ladi. Biz mazkur tartibni aruz tizimiga oid adabiyotlardagi hijolarga berilgan qoidalar asosida tasnif qildik¹. Aruzshunos olimlarimiz A.Hojiahmedov, G.To‘ychiyeva, D.Yusupova, V.Qodirov, D.Zohidovalarning tasnifiga ko‘ra, hijoning 3 xil ko‘rinishi mavjud. Bular: *cho‘ziq hijo, qisqa hijo, o‘ta cho‘ziq hijolardir*.

Cho‘ziq hijo tarkibida qisqa unli qatnashgan yopiq bo‘g‘in yoki cho‘ziq unli iste‘foda etgan ochiq bo‘g‘indan iborat bo‘ladi. **Cho‘ziq hijo** she‘r matnida “—” belgisi bilan ifodalanadi. Ochiq bo‘g‘inli cho‘ziq hijolarda faqat “o” unlisi aksariyat holatlarda (deyarli 90 foiz o‘rinda) cho‘ziq talaffuz etiladi. D.Yusupova qolgan unli larni quyidagi holatlarda cho‘ziq hijoni hosil qilishini ta’kidlaydi:

- ko‘pincha so‘zning oxirida;
- qo‘shimcha (affiks)lar tarkibida;
- urg‘u olganida.

Misol sifatida “ha-yot-ga” so‘zini keltiradi. Shuningdek, kirill alifbosidagi ayirish (“ъ”), lotin alifbosidagi tutuq (‘) belgisi arab alifbosida “ayn” undosh tovushini ifodalagani uchun o‘zbek tilida bu belgi bilan yakunlanuvchi bo‘g‘inlar (lotin alifbosida yoziladigan **as’hob, mus’haf** so‘zlaridagi belgi bundan mustasno) cho‘ziq hijo hisoblanishini qayd etadi².

¹ Qarang: Hojiahmedov A. Ўзбек арузи луғати. – Т.: Шарк, 1998; Тўйчиева Г. Форс арузи рисолалари. – Т., 2008; Yusupova D. Aruz va mumtoz poetikaga kirish. – Т.: Akademnashr, 2020; Қодиров В. Мумтоз адабиёт: ўқитиш ва муаммолари. – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2009; Зоҳидова Д. Аруз сабоқлари. – Т.: MUMTOZ SO‘Z. 2016.

² Yusupova D. Ko‘rsatilgan manba. – Т.: Akademnashr, 2020. – 56-b.


Qisqa hijo qisqa talaffuz qilinuvchi unli bilan ifodalangan ochiq bo‘g‘indan iborat bo‘ladi. Bunday hijoga matnda “V” yoki “U” belgisi qo‘yiladi.

O‘ta cho‘ziq hijo matnda ikki xil: tarkibida cho‘ziq talaffuz qilinadigan va qator undoshi bilan tugagan yopiq bo‘g‘inlar bilan ifodalanadi. O‘ta cho‘ziq hijo matnning boshida yoki o‘rtasida kelsa “— V” belgisi bilan ifodalanadi. Misra oxirida esa “~” belgisi qo‘llaniladi.

“*Ramali musammani maxbuni mahzuf (maqsur)* vaznining birinchi rukni ba‘zan, “*failotun*” tarzida ham kelishi mumkin, ya‘ni birinchi misra *foilotun* bilan boshlansa, keyingi misra failotun bilan boshlanadi (yoki aksincha) va bu holat ramal bahrining maxbun tarmog‘idagi barcha vaznlarga tegishlidir”¹. Demak, yuqoridagi satrlarda birinchi misraning sadri, ya‘ni ilk rukni failotun (V V — —) tarmog‘ida bo‘lsa, ikkinchi misra foilotun (— V — —) bilan boshlanyapti va bu o‘ziga xos ohangni vujudga keltiryapti.

Foilotun asliy rukni


Failotun tarmoq rukni




6-baytning birinchi misrasi *ramali musammani maxbuni maqsur* vaznida bo‘lib, uning ruknlari va chizmasi:


36566

¹ Yusupova D. Ko‘rsatilgan manba. — T.: Akademnashr, 2020. — 66-b.





ko‘rinishida, oxirgi baytning birinchi misrasi esa *ramali musammani maxbuni maqtu’* o‘lchovida bitilgan.



singaridir. Shunday ekan mazkur g‘azalni uch vazn ohangida ifodali o‘qish lozim.

Meni shaydo V V — —	qiladurg‘on V V — —	bu ko‘nguldur, V V — —	bu ko‘ngul, V V —
\curvearrowright Xo-r+u rasvo — V — —	qiladurg‘on V V — —	bu ko‘nguldur, V V — —	bu ko‘ngul, V V —
O‘qdayin qo — V — —	matimizni V V — —	qora qoshlig‘ V V — —	\curvearrowright la-r+uchun, V V —
Muttasil yo — V — —	qiladurg‘on V V — —	bu ko‘nguldur, V V — —	bu ko‘ngul, V V —
Meni yozg‘ur V V — —	ma: “Sevar” deb V V — —	ki mening had V V — —	\curvearrowright di-m+emas, V V —
Ul tamanno — V — —	qiladurg‘on V V — —	bu ko‘nguldur, V V — —	bu ko‘ngul, V V —
“Borma, — derlar, — V — —	eshiki so V V — —	ri damo-dam”, — V V — —	netayin, V V —
Ko‘p taqozo — V — —	qiladurg‘on V V — —	bu ko‘nguldur, V V — —	bu ko‘ngul, V V —

Tori mo‘yin	havasi bir	la qorong‘u	kechada,
V V — —	V V — —	V V — —	V V —
Jonni savdo	qiladurg‘on	bu ko‘nguldur,	bu ko‘ngul,
— V — —	V V — —	V V — —	V V —
Ramali musammani maxbuni mahzuf			
Dushmanu do‘st	orasinda	meni g‘ofil	ni mudom
— V — —	V V — —	V V — —	V V ~
Besar-u po	qiladurg‘on	bu ko‘nguldur,	bu ko‘ngul,
— V — —	V V — —	V V — —	V V —
1-misra: Ramali musammani maxbuni maqsur; 2-misra: Ramali musammani maxbuni mahzuf.			
O‘zgadin ko‘r	maki ko‘zung	yoshini, ey	Lutfiy,
— V — —	V V — —	V V — —	— —
Ayni daryo	qiladurg‘on	bu ko‘nguldur,	bu ko‘ngul ¹ .
— V — —	V V — —	V V — —	V V —
1-misra: Ramali musammani maxbuni maqtu‘; 2-misra: Ramali musammani maxbuni mahzuf.			


Bu borada adabiyotshunos olimlarning tahlillari mavjud bo‘lib, ular tomonidan xuddi shunday holatlar bilan bog‘liq masalalar o‘rganilgan². Lekin negadir darslikning yangi nashrida bu jihatlarga e‘tibor berilmaganligi munozaralidir. Darslikning yangi tahriri, albatta, sohaning tajribali mutaxassislari hamda ekspertlar qo‘lidan o‘tishi tayin. Har bir o‘quvchi uchun qo‘llanma vazifasini o‘tayotgan ushbu darsliklarda xatolikka emas, balki yanada qiziqarli ma‘lumotlar kiritishga harakat qilinishi kerak, nazarimizda. Manba bilan ishlayotganda faqat nazariy bilim berish bilan cheklanilmay, amaliyotda o‘quvchi undan qay darajada foydalana olayotganiga ahamiyat qaratish zarur.

Shoirning mustaqil o‘qish uchun berilgan “Ayoqingg‘a tushar har lahza gesu...” misrasi bilan boshlanuvchi g‘azali *hazaji musaddasi mahzuf* vaznida yozilgan. Lutfiyning mazkur g‘azali ham

¹Sultonmurod O., Ahmedov S., Qo‘chqorov R. Ko‘rsatilgan manba. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2019. – 82-b.

² Qarang: Хожиаҳмедов А. Мактабда аруз вазнини ўрганиш. – Т.: 1978. – 191-б.; Rahmonova Sh. Maktab darsligida keltirilgan aruz vaznlari tahlili (8-sinf “Adabiyot” darsligi misolida) // Til va adabiyot ta‘limi. – Toshkent, 2019. – № 9. – B. 23-25.

“Sensan sevarim” devonidan o‘rin olgan*. *Hazaji musaddasi mahzuf* vazni haqida she‘riyatimizda ancha keng qo‘llanilgan o‘lchovlardan biri ekanligi aytilgan bo‘lib, ruknlari va chizmasi bir misrada quyidagicha aks etadi:



Chizmada 6 ta rukn mavjud, shunga ko‘ra u musaddas bayt. Bu ruknlar mafoiylun aslining solim ko‘rinishi va mahzuf tarmog‘idan tashkil topgan. Mafoiylun asli asosida hosil bo‘ladigan bahrni esa yuqorida hazaj bahri ekanligini aytdik. Demak, mazkur bayt ham hazajda yozilgan. Faqat hazaji musaddasi mahzuf o‘lchovi deb nomlanadi. Vaznni nomlashda asliy rukn yodda saqlanadi, tarmoq rukn esa o‘lchovda aks etadi.

Hazaji musaddasi mahzuf tarkibini birinchi, ikkinchi ruknlarda *mafoiylun* asli, uchinchi ruknda esa uning *mahzuf* tarmog‘i fauylun (V — —) tashkil etadi. 3 qisqa va 8 cho‘ziq hijoning shu tarzda takrori yoqimli va musiqiy ohangni hosil qiladi. Olti ruknli ushbu o‘lchov lirik she‘riyat uchun ham, dostonchilik uchun ham nihoyatda qulaydir. Shuning uchun ham mazkur vazn she‘riyatimizda XIV asrdan XX asr boshlariga qadar muttasil va keng qo‘llanib kelgan. Ushbu o‘lchovda bitilgan lirik va liro-epik she‘riy asarlarni deyarli barcha shoirlarimiz ijodida uchratish mumkin. “Lutfiyning 326 g‘azalidan 23 tasi aynan shu vaznda yozilgan. “Shashmaqom”ning “Soqiynomai savti navo”, “Soqiynomai mo‘g‘ulchai navo”, “Soqiynomayi savti chorgoh” kuylari ushbu vazndagi she‘rlarga bastalangan”¹. Shu tartibda o‘quvchilar bilan birgalikda g‘azalning vaznini tahlil qilishda quyidagicha yo‘lni tutganimiz ma’qul:

* Qarang: Лутфий. Сенсан севарим. – Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. – 214 б.

¹ Sirojiddinov Sh. va boshq. Navoiyshunoslik. – Т.: AKADEMNASHR, 2020. – 306-b.

A	yo	qing	g'a	tu	shar	har	lah	za	ge	su
V	—	—	—	V	—	—	—	V	—	—
Ma	sal	dur	kim	cha	rog'	tu	bi	qo	ron	g'u
V	—	—	—	V	—	—	—	V	—	—

Jadvalda keltirilgan baytdan ko‘rinadiki, u hazaji musaddasi mahzufda yaratilgan. G‘azalni vaznga moslab ifodali o‘qishda, unga xos ritmik ohangni ta‘minlashda urg‘uning ham o‘ziga xos o‘rni bor. Ta‘kidlash joizki, aruziy matnda so‘z urg‘usi (leksik urg‘u) va rukn urg‘usi orasida mutanosiblik yo‘q. Ular aruzda yozilgan matnda bir xil kuchga ega emas, ya‘ni so‘z urg‘usi matndan tashqaridagina yetakchilik qiladi. Matn (bayt) tarkibida esa so‘z urg‘usi tushunchasi o‘z ahamiyatini yo‘qotadi, chunki aruzda rukn urg‘usi yetakchidir. Baytda nechta rukn bo‘lsa, shuncha urg‘u bor. “Aruzdagi urg‘u faqat cho‘ziq bo‘g‘in bilan bog‘liq va qisqa bo‘g‘in hech qachon urg‘u olmaydi. Tajriba shuni ko‘rsatadiki, aruziy matnda urg‘u qisqa bo‘g‘indan oldin kelgan cho‘ziq bo‘g‘inga tushadi, aniqrog‘i, qisqa bo‘g‘inning chap tomoniga joylashadi, chunki qisqa bo‘g‘indan avval kelayotgan bo‘g‘in boshqalariga nisbatan cho‘ziqroq talaffuz qilinadi”¹.

G‘azalda alohida diqqat qilinishi lozim bo‘lgan o‘rinlarni quyidagicha belgilash va vaznga mos ravishda o‘qish mumkin:

Ayoqingg‘a tushar har lahzaga gesu,

V — — — / V — — — / V — — —

Masaldurkim²: “Charog‘ tubi qorong‘u”.

V — — — / V — — — / V — — —

Tuturmen ko‘zki, ko‘rsam o‘razingni,

V — — — / V — — — / V — — —

Ki derlar: “o‘qqan+ariqqá oqar sú(v)”.

V — — — / V — — — / V — — —

¹Юсупова Д. Алишер Навоий “Хамса”сида мазмун ва ритмнинг бадийий уйғунлиги. – Т.: Mumtoz so‘z, 2011. –102-б.

² Maqol.

Yuzungni túttu-m+ortuq óy-u Kundín,
V — — — / V — — — / V — — —
“Kishining ko‘zidur, oré, tarozú”.
V — — — / V — — — / V — — —

Ko‘zung qonímdi-n+iymanmás, ajabtúr,
V — — — / V — — — / V — — —
Ki: “Qo‘rqar, qáydakim qon ko‘rsa, hindú”.
V — — — / V — — — / V — — —

Tilar vaslíngni Lutfiy, qíl ijobát,
V — — — / V — — — / V — — —
Ki ayturlár: “Tiloganní — tilogú”¹.
V — — — / V — — — / V — — —

Keltirilgan taqti’dan ma’lum bo’lyaptiki, mazkur she’riy o’lchovda urg’u har bir ruknning oxirgi cho‘ziq bo‘g‘iniga tushar ekan. Urg‘uning bunday joylashishi va cho‘ziq bo‘g‘inlar miqdorining qisqa bo‘g‘inlardan uch baravar ko‘pligi (har bir qisqa bo‘g‘inga uchta cho‘ziq bo‘g‘in to‘g‘ri kelyapti) salobatli va vazmin ritmning vujudga kelishini ta’minlayapti². Har bir bayt tahlilida o‘qituvchi o‘quvchi bilan birgalikda fikr yuritishi lozimdir. Tahlilda o‘qituvchining quyidagilarga ahamiyat qaratishi o‘quvchilarning g‘azal janriga bo‘lgan qiziqishi yanada ortishiga xizmat qiladi:

1) Lutfiyning yozma adabiyot vakili hisoblanishi, lekin yozma adabiyotdan oldinroq og‘zaki adabiyot yuzaga kelganligi haqida tushuncha berishi;

2) yozma adabiyot aynan shu folklor zaminida paydo bo‘lganligiga urg‘u qaratishi;

3) o‘zbek mumtoz she’riyati taraqqiyotini xalq og‘zaki ijodi ta’siridan ayri holda tasavvur qilish mumkin emasligiga to‘xtalishi;

4) g‘azalni yod oldirish orqali o‘quvchilarning so‘z boyliklarini oshirishi va h.k.

¹ Sultonmurod O., Ahmedov S., Qo‘chqorov R. Ko‘rsatilgan manba. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2019. – 52-b.

² Юсупова Д. Алишер Навоий “Хамса”сида мазмун ва ритмнинг бадийий уйғунлиги. – Т.: Mumtoz so‘z, 2011. –102-6.

O'quvchilarning g'azaldagi qaysi maqoldan qanday holatlarda foydalanishni o'rganishlari foydadan xoli bo'lmaydi. Sababi har bir baytda go'yo baytlar birinchi misrasida aytilgan fikrga bir isbotdek keltiriladi. Shuning uchun barcha baytlarning ikkinchi satri maqol bilan tugaydi. Shundan ham bilib olish mumkinki, shoir avval beshta bir-biriga qofiyadosh so'z bilan tugaydigan maqol topgan. Shuning uchun ham g'azal besh baytdan iborat qilib bitilgan bo'lsa kerak. G'azaldagi fikrni maqollar bilan isbotlab ketish o'zbek adabiyotidagi ajoyib topilmalardan biridir. Negaki avval shunga mos keladigan jumlani topish, keyin uni shu misralar bilan uyg'unlashtirish ijodkordan mahorat talab qiladi.

Lutfiy ijodida aynan shu qirralarni ushbu g'azal orqali ko'rish mumkin. Mazkur g'azalni muallif tamoman o'zbek xalq maqollari asosiga qurgan. Har bir baytda shoir bittadan maqol qo'llaydi. Maqollar go'yo baytlar birinchi misrasida aytilgan fikrga bir isbotdek keltiriladi. Shuning uchun barcha baytlarning ikkinchi satri maqol bilan yakunlanadi. Demak, shoir beshta bir-biriga qofiyadosh so'z bilan tugaydigan maqol topgan. Bu esa uning poetik mahoratini ko'rsatadi. Bundan tashqari bu g'azalda Lutfiyning dardi – yor vasliga yetish, yoridan shu niyatni amalga oshirishni, ya'ni ijobat qilishini so'raydi.

Asarda boshdan oxirigacha irsoli masal san'atidan ijodiy foydalanilgan. Buning ham o'zgacha g'azal ruhiyatiga ta'sir ko'rsatuvchi badiiy-estetik jozibasi bor. Chunki oddiy misralardan iborat g'azalni o'qib borishni o'ziga maqsad qilgandan ko'ra, turli xildagi qochirim yoki maqollar bilan boyitilgan maqol o'quvchiga o'zgacha zavq-shavq beradi, fikrimizcha. Bu yerda Lutfiyning so'zamolligi ham ancha qo'l kelgan, chunki bir qofiya tizimiga tushadigan shuncha maqolni topib, ularni ustalik bilan qo'llashi shoirning yuksak badiiy mahoratidan darakdir. Maqollar amalda g'azaldagi asosiy ma'no yo'nalishini boshqarib turibdi. Shu tariqa ushbu darslikda Lutfiy ijodidan berilgan g'azallarni iloji boricha tahlil qilishga intildik. Bu jarayonda shu narsa ma'lum bo'ldiki, adabiyot o'qitish metodikasida bu borada ishlaniladigan va o'rganiladigan noma'lum jihatlar anchagina ekan. Tanlangan g'azallar Lutfiy ijodining eng sara namunalari sanaladi. Ularda tasavvufiy qarashlar bilan izohlanadigan baytlar mavjud bo'lib, bu

boradagi oldin o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni mustahkamlashga imkon yaratadi.

Darslikda Lutfiyning g'azallari bilan bir qatorda 3 ta tuyug'i ham keltiriladi. Mazkur tuyuqlar ham shoirning "Sensan sevarim" devonidan o'rin olgan*. Ma'lumki, tuyuq, asosan, turkiy xalqlar she'riyatida mavjud janr bo'lib, u haqida dastlab Shayx Ahmad Taroziy o'zining "Funun ul-balog'a" asarida ma'lumot beradi. Muallif uni alohida lirik janr emas, balki ruboiyning bir turi sifatida e'tirof etadi: "Oni mujannas derlar. Aningtek bo'lurkim, ruboiyning qofiyasinda tajnis rioyat qilurlar... Va bu turk shoirlarining ixtirosidir. Muni turklar tuyuq derlar¹. Biroq Shayx Ahmad Taroziy tuyuqning vazni haqida nazariy fikr aytmaydi. Bu haqda dastlab Alisher Navoiyning "Mezon ul-avzon" asarida o'qiymiz: "Birisi "tuyug'"durkim, ikki baytqa muqarrardur va sa'y qilurlarkim, tajnis aytilg'ay va ul vazn ramali musaddasi maqsurdur"². Zahiriddin Bobur ham Alisher Navoiy kabi tuyuq vaznining *ramali musaddasi mahzuf (maqsur)*da bo'lishini aytadi va mazkur janrning turlarini ko'rsatadi. Nazariy manbalarda olimlarimiz turkiy tildagi dastlabki tuyuqni XIV asrda Burhoniddin Sivasiy yozganligini ta'kidlaydilar³.

Lutfiyning "Ko'nghuma har yonki boqsam, dog'i bor" misrasi bilan boshlanuvchi she'ri *a-a-b-a* tarzida tajnisli qofiyalangan tuyuq hisoblanadi. Tuyuqning vaznini belgilash uchun:

1) uni ifodali o'qiymiz, bu jarayonda qofiyadosh misralar oxiridagi "bor" radiflarining o'ta cho'ziqligini hisobga olib, "o" unlisini biroz cho'zib, uchinchi misradagi "yor edi" so'zlarini qo'shib talaffuz qilamiz.

* Qarang: Лутфий. Сенсан севарим. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. – 348-350 б.

¹ Шайх Ахмад ибн Худойдод Тарозий. Фунун ул-балоға. Нашрга тайёрловчи А.Ҳайитметов. – Т.: Ҳазина, 1996. – 212 б.


² Alisher Navoiy. Mezon ul-avzon. TAT. 10 jildlik. 10-jild. – Т.: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2013. –70-b.

³ Qarang: Тўхлиев Б. "Қутадғу билиг"нинг поэтикаси масалалари // Ўлмас обидалар. – Т.: Фан, 1989. Орзибеков Р. Лирикада кичик жанрлар. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1976; Носиров О. ва бошқ. Ўзбек классик шеърини жанрлари. – Т.: Ўқитувчи, 1979; Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик. 2-жилд. Лирика. – Т.: Фан, 1992; D.Yusupova. Aruz va mumtoz poetikaga kirish. – Т.: АКАДЕМНАШР, 2020.

2) baytni jadval asosida hijolarga ajratib chiqamiz, natijada quyidagicha manzara hosil bo'ladi:

Ko'ngluma har	yonki boqsam,	dog'i bor,
— V — —	— V — —	— V ~
Har necha dar	dimni desam,	dog'i bor.
— V — —	— V — —	— V ~
Qilcha tanga	bori ishqing	yo-r+edi,
— V — —	— V — —	— V —
Bir sori bo'l	di firoqing	dog'i bor ¹ .
— V — —	— V — —	— V ~

Tuyuqda “dog'i” tajnis so'zi *yara*, *tag'in*, *tog'* singari uch ma'noda kelgan. Tuyuqning 1-, 2-, 4-misralari *ramali musaddasi maqsurda*, 3-misrasi esa *ramali musaddasi mahzuf* vaznida yozilgan. *Ramali musaddasi maqsur* (—V — — / —V — — / —V ~) vazni ramal bahrining qo'shvaizli o'lchov guruhiga mansub bo'lib, dastlab ikki rukn *foilotun* (—V — —) va oxirgi rukn *foilon* (—V ~)dan tashkil topadi. *Ramali musaddasi mahzuf* esa yuqoridagi vazndan so'nggi hijoning cho'ziqligi bilan farqlanadi.



Lutfiyning “*Bandamen*” tuyug'i “Men sening ilkingdin, ey dil, bandamen” singari misrasi bilan boshlanadi. She'r mumtoz tuyuq an'analariga xos *ramali musaddasi mahzuf* (ruknlari va taqti'i: foilotun foilotun foilon —V — — / —V — — / —V —) vaznida yozilgan bo'lib, *a-a-b-a* tarzida tajnisli qofiyalangan.

¹ Sultonmurod O., Ahmedov S., Qo'chqorov R. Ko'rsatilgan manba. — 56-b.

Ramali musaddasi mahzuf
—V — —/—V — —/—V —
<p>Men sening ilkingdi-n+ey dil, bandamen,</p> <p>Vah, qachon yetgayme-n+ul dilbanda men.</p> <p>Bevafolarg'a meni qilding asir,</p> <p>Sen menga sultonse-n+ey dil, banda men¹.</p>

Tuyuqni ifodali o'qish va vaznni saqlash uchun birinchi misradagi “**ilkingdin, ey**”, ikkinchi misradagi “**yetgaymen ul**”, to'rtinchi misradagi “**sultonsen, ey**” so'zlarini qo'shib o'qish maqsadga muvofiq. Tuyuqda “**bandamen**” tajnis so'zi birinchidan yurak, (men) banddaman (bog'lanib qolganman), ikkinchidan dilbandga men, uchinchidan yurak, banda (qul) – men singari uch ma'noni ifodalagan.

Lutfiy qalamiga mansub “Yozamen” tajnisli tuyug'ining har to'rtala misrasi ham *ramali musaddasi mahzuf* (—V — —/—V — —/—V —) vaznida yaratilgan. She'rdagi “Yozamen” tajnisi **yozg'iraman (shikoyat qilaman), yozga men, yozaman (bitaman)** ma'nolarini ifodalagan.

foilotun — V — —	foilotun — V — —	foilun — V —
Charxi kajraf	tor elidin	yozamen,
Chiqmadim hij	ron qishindin	yoza men.
Bir meni yor	liq bila yo-	d+etmas ul,
Har necha ul	shahg'a qulluq	yozamen ² .

Darslikda Alisher Navoiyning aruz tizimida yaratilgan ruboiylari, tuyuqlari, fardlari ham keltirilgan. Xususan, keltirilgan 4 ta ruboiysining ikkitasi “Mahbub ul-qulub”dan; ikkitasi esa

¹ Sultonmurod O., Ahmedov S., Qo'chqorov R. Ko'rsatilgan manba. – T.: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2019. – 56-b.

² Sultonmurod O., Ahmedov S., Qo'chqorov R. Ko'rsatilgan manba. – T.: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2019. – 57-b.

“G‘aroyib us-sig‘ar” devonlaridan o‘rin egallagan. Ularni o‘rganish davomida o‘quvchilar 5–7-sinflarda ruboiy janri haqidagi o‘zlashtirgan bilimlarini yanada mustahkamlaydi. Ruboiyning yangi-yangi o‘lchov imkoniyatlaridan xabardor bo‘ladilar. Darslikda keltirilgan ruboiylarning faqat mazmuni tahlil etiladi. Ularning vazn xususiyatlari, o‘lchov imkoniyatlari haqida biron ma‘lumot keltirilmaydi. Avvalo, o‘quvchi ruboiy matnini ifodali o‘qishi uchun uning vaznini, o‘lchovini bilishi kerak. O‘qituvchi ruboiy vaznlari haqida o‘quvchilarga qisqacha ma‘lumot berib, keyin ularning mazmunini tahlil qilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Ruboiy mumtoz adabiyotimizda keng tarqalgan janrlardan biri bo‘lib, baytli she‘rlar sirasiga kiradi. Alisher Navoiy ijodida ruboiy janri keng o‘rin egallaydi. Agar “G‘aroyib us-sig‘ar” devoniga 133 ta ruboiy kiritilgan bo‘lsa, debocha va nasriy asarlar tarkibida 150ga yaqin ruboiy uchraydi. Shuningdek, “Nazm ul-javohir” 255 ta, “Muqaddima” 30 ta ruboiydan tarkib topgan. “Devoni Foni” (73 ta) va boshqa asarlari tarkibidagi forsiy ruboiylari soni 100ga yaqin¹.

Ruboiy haqidagi dastlabki ma‘lumotni mumtoz manbalardan, xususan, Shayx Ahmad Taroziyning “Funun ul-balog‘a”, Alisher Navoiyning “Mezon ul-avzon”, Zahiriddin Muhammad Boburning “Aruz risolasi” (“Muxtasar”) asarlaridan olish mumkin. E‘tiborlisi, bu asarlarda ruboiyga berilgan ta‘riflar bir-biridan farqlanadi. “Funun ul-balog‘a” asarida Shayx Ahmad Taroziy ruboiy haqida gapirib, uning to‘rt misra bo‘lishini, avvalgi, ikkinchi va to‘rtinchi misralari o‘zaro qofiyalanishini, uchinchi misrasi ixtiyoriy bo‘lishini ta‘kidlar ekan, uchinchi misrada “qofiya keltursalar”, uni “ruboiyi musarra”, – deb nomlanishini aytadi². Namuna sifatida olim turkiy tilda yozilgan ikki ruboiyni keltiradi. Mazkur ruboiylar an‘anaviy hazaj bahri vaznlarida bo‘lmasdan, *ramali musaddasi mahzuf* vaznidadir. Bu esa o‘sha davrlarda, ya‘ni ruboiy shakllanayotgan paytda uning vazni erkin bo‘lganligini yoki ba‘zan turkiy shoirlar ruboiyni ramalda ham yozganligini anglatadi. Turkiy she‘riyatda bu


¹ Исхоков Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т.: O‘ZBEKISTON, 2014. – 154-б.

² Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунун ул-балого. Нашрга тайёрловчи А.Ҳайитметов. – Т.: Ҳазина, 1996. – 212 б.

holat Navoiygacha ruboiyning qat'iy vaznda bo'lishi talab qilinmaganligini ko'rsatadi.

Alisher Navoiy "Mezon ul-avzon" asarida "Ruboiy vaznikim, ani "dubaytiy" va "tarona" ham derlar, hazaj bahrining "axram" va "axrab" idin istixroj qilibdurlar va ul vaznedur asru xushoyanda va nazmedur bag'oyat raboyanda", deb yozadi¹. Zahiriddin Muhammad Bobur ham "Aruz risolasi" ("Muxtasar") asarida Alisher Navoiy fikrlarini davom ettirib, ruboiy hazaj bahrining axram va axrab shajarasi vaznlarida yozilishini ta'kidlaydi. Keyingi davr nazariy kitoblarida ham ruboiyning Alisher Navoiy va Zahiriddin Bobur ta'kidlaganlaridek, hazaj bahrining axram va axrab shajarasi vaznlarida yozilishini aytish an'anaga aylangan. Ruboiy axrab va axram shajarasiga tegishli 24 ta vaznda yoziladi.

Ruboiy vaznining hosil bo'lishidagi mafoiylun asli va uning tarmoq ruknlari bilan birga quyidagi xaritada ko'rish mumkin.



¹ Alisher Navoiy. Mezon ul-avzon. TAT. 10 jildlik. 10-jild. – T.: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2013. – 652 b.

Ayon bo'ladiki, ruboiy vaznlarini hosil qilishda mafoiylun asliy rukni va uning 9 ta tarmoq rukni faol ishtirok etadi. Mazkur asliy va tarmoq ruknlar axrab va axram shajarasi vaznlariga bo'linadi:




Chunki axrab guruhiga kiradigan ruboiylar, albatta, mafoiylunning **axrab** tarmoq rukni — *maf'uvlu* (— — V)ga teng ruknlardan, axram guruhiga kiradigan ruboiylar esa mafoiylunning **axram** tarmoq rukni — *maf'uvlun* (— — —)ga teng rukndan boshlanadi. Darslikda keltirilgan ruboiylar faqat axrab shajarasi vaznlarida yozilgan. Shu sababli biz mazkur shajara vaznlarini hosil qiluvchi ruknlarga to'xtalib o'tamiz:


Maf'uvlu — — V	Mafoiylu V — — V	Mafoiylun V — — —	Fa' (—)
		Mafoiylu V — — V	Fo' (~)
		Mafoiylun — — —	Fa' (—)
		Mafoiylun V — — —	Fo' (~)
	Mafoiylun V — — —	Maf'uvlu — — V	Fa' (—)
		Maf'uvlu — — V	Fo' (~)
		Maf'uvlu — — V	Fa' (—)
		Maf'uvlu — — V	Fo' (~)
	Mafoiylun V — V —	Maf'uvlu — — V	Fa' (—)
		Maf'uvlu — — V	Fo' (~)
		Maf'uvlu — — V	Fa' (—)
		Maf'uvlu — — V	Fo' (~)

Biz o'qituvchiga oson bo'lishi uchun ruboiyning axrab shajarasi vaznlarini jadval asosida turli ustunlarga ajratib ko'rsatdik. Birinchi ustunda ikkinchi rukni *mafoilun* (V — V —) ga teng bo'lgan *axrabi maqbuz shahobchasini*; keyingi ustunda ikkinchi rukni *mafoiylun* (V — — —)ga teng bo'lgan *axrabi solim shahobchasini*; uchinchi ustunga esa ikkinchi rukni *mafoiylu* (V — — V)ga teng bo'lgan *axrabi makfuf shahobchasini* joylashtirdik. O'qituvchi ruboiy vaznlarini aniqlashda yuqoridagi ruknlarni yaxshi bilishi lozim.

Axrab shajarasi vaznlarini o'quvchilar yaxshi o'zlashtirishi uchun o'qituvchi ularga quyidagicha tarqatma berishi mumkin. Mazkur tarqatmada axrab shajarasi ruknlarining vazndagi nomi keltiriladi. Har bir ruknning vazndagi nomi jadval asosida turli ranglarda berilgani ma'qul.



O‘qituvchi uyga vazifa sifatida o‘quvchilarga “A‘rab shajarasi daraxti” rasmini chizib kelishni bersa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Buning uchun ularga o‘zi bitta namuna chizib ko‘rsatadi. Masalan:



Darslikdagi dastlabki “**Gardun gah manga jafo-u dunluq qildi**” ruboiysi Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asari debochasida keltirilgan*. Ruboiyni ifodali o‘qish uchun o‘quvchi:

- 1)uning vazn xususiyatlarini o‘rganishi;
- 2)ohang imkoniyatlarini aniqlashi;
- 3)*vasli ho* hodisasi haqida nazariy ma’lumotga ega bo‘lishi;
- 4)mazmun-mohiyatini anglashi zarur.

* Qarang: Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. TAT. 10-jildlik. 9-jild. –T.: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2013. – 452-b.

Ruboiy:

Gardun **ga(h)**/ manga jafu/-u dunluq qildi,

— V / V — V — / V — — — / —

Baxtim ki/bi, har ishta/ zabunluq qil/di,

— V / V — — V / V — — — / —

Gah **kom(i)**/ sari roh(i)/namunluq qil/di,

— V / V — — V / V — — — / —

Alqissa:/ base buqa/lamunluq qil/di¹.

— V / V — — V / V — — — / —

tarzida vaznga moslab o‘qiladi. Mazkur she’ning to‘rtala misrasi *a-a-a* tarzida qofiyalangani uchun ruboiyi musarra’ (ruboiya) hisoblanadi. Ruboiyning 1-misrasi hazaji musammani axrabi maqbuzi solimi abtar (taqtiyi quyidagichadir: *maf’uvlu mafoilun mafoiylun fa’* — V / V — V — / V — — — / —), 2-, 3-, 4-misralari bu vazndan biroz farqlanuvchi hazaji musammani makfufi solimi abtar o‘lchovi (taqtiyi: *maf’uvlu mafoiylu mafoiylun fa’* — V / V — — V / V — — — / —)da yaratilgan.


Ruboiyning 1-misrasida vazn talabi bilan *vasli ho* hodisasi yuzaga kelgan. A.Hojiahmedov ta’kidlaganidek, “aruz tizimida yaratilgan she’riy misralardagi ayrim yopiq hijolarning oxirgi undoshini vazn taqozosi bilan o‘zidan keyin turgan undosh bilan boshlanuvchi hijoga qo‘shib o‘qish hodisasi” hisoblanadi². Yuqorida keltirilgan baytda ham “**gah**” so‘zida turgan “**h**” undoshi keyingi “**manga**” hijosiga ulab talaffuz qilinadi. Bu jarayonda “h” undoshi tushib qolib, “gamanga” tarzida o‘qiladi. Shuningdek, ruboiyning 3-misrasida esa *imola* hodisasi ham qo‘llanilgan. Unga ko‘ra “kom”, “roh (namunluq)” so‘zlari o‘ta cho‘ziq hijo bo‘lib, bu so‘zlarda “m” hamda “h” undoshlaridan keyin qisqa “i” unlisi qo‘shib talaffuz qilinadi.

Darslikdagi 2-ruboiy “*Ahbob, yigitlikni g‘animat tutungiz*” deb boshlanadi. Ushbu ruboiy Hazrat Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asari 105-tanbeh “Shabob ayyomi zikrida” tarkibida kelgan*. Ushbu ruboiy ham ruboiyi musarra’ (ruboiya) hisoblanadi. “Ahbob, yigitlikni g‘animat tutungiz” deb boshlanuvchi ruboiy ham ikki


¹ Sultonmurod O., Ahmedov S., Qo‘chqorov R. Ko‘rsatilgan manba. — 57-b.

* Hojiahmedov A. Aruz nazariyasi asoslari. — T.: Akadernashr, 2018. — 33-b.

vaznli bo‘lib, tuzilishiga ko‘ra yuqoridagi ruboiydan farq qiladi. Mazkur ruboiyning 1-, 2-, 4-misralari *hazaji musammani axrabi makfufi ajabbda* yozilgan. Ushbu o‘lchov birinchi ruknda *mafoiylun* aslining axrab tarmog‘i *maf’uvlu* (— — V), ikkinchi va uchinchi ruknlarda makfuf tarmog‘i *mafoiylu* (V — — V) hamda so‘nggi ruknda ajabb tarmog‘i *faal* (V —)dan tashkil topadi. Taqtiyi quyidagi ko‘rinishdadir:



3-misra *hazaji musammani maqbuzi makfufi ajabb* vaznida bitilgan. Mazkur vazn *mafoiylun* asliy ruknining axrab tarmog‘i *maf’uvlu* (— — V), ikkinchi ruknda maqbuz tarmog‘i *mafoilun* (V — V —), uchinchi ruknlarda makfuf tarmog‘i *mafoiylu* (V — — V) hamda so‘nggi ruknda ajabb tarmog‘i *faal* (V —)dan tashkil topadi. Taqtiyi quyidagichadir:



Demak, har ikkala vazn ikkinchi ruknda sezilar-sezilmas bir-biridan farqlanadi. Ruboiyni o‘qish chog‘ida misralarning:

maf'uvlu mafoiylu mafoiylu faal,

maf'uvlu mafoilun mafoiylu faal,

maf'uvlu mafoilun mafoiylu faal,

maf'uvlu mafoiylu mafoiylu faal,

ohang qoliplariga rioya qilinishi zarur.

Ahbob(i),/ yigitlikni/ g'animat tu/tunguz,

O'zni qa/rilik mehna/tidin qo'rqu/tunguz.

Oyini/ adovat-u/ hasaddin o'/tunguz,


Har **nav'** i/la o'zni ne/cha kun ovu/tunguz.

Bu xil o'qilganda birinchi misradagi "**Ahbob**" so'zida ikkinchi hijoning o'ta cho'ziq ekanligi uning tarkibidagi "o" unlisini cho'zib talaffuz qilishni taqozo etadi. Shuningdek, 4-misradagi "**nav**" so'zi esa "**nav**" singari bir cho'ziq hijo sifatida talaffuz qilinadi.

"Jondin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz" deb boshlanuvchi ruboiy Alisher Navoiyning "G'aroyib us-sig'ar" devonida 47-raqam ostida keltirilgan¹. U yuqorida keltirilgan ruboiylardan farqli ravishda a-a-b-a qofiyalangani uchun ruboiyi xasiy yoki erkin ruboiy hisoblanadi. She'ning 1-, 2-, 4-misralari *hazaji musammani axrabi maqbuzi makfufi ajabbda*, 3-misra esa *hazaji musammani*

¹ Qarang: Alisher Navoiy. G'aroyib us-sig'ar. TAT. 10 jildlik. 1-jild. –T.: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2013. – 733-b.

axrabi maqbuzi solimi abtar vaznida yaratilgan. Shunday ekan uning misralari



ruklari ohangida o'qiladi. Buning uchun ayrim o'rinlardagi qo'shib o'qiladigan hijolarga diqqat qaratish lozim.

Jondin se	ni ko'p sevar	me- $\overset{\curvearrowright}{n}$ +ey umri	aziz
Sondin se	ni ko'p sevar	me- $\overset{\curvearrowright}{n}$ +ey umri	aziz
Har neni	ki sevma- $\overset{\curvearrowright}{k+on}$	di- $\overset{\curvearrowright}{n+ortuq}$ bo'l	mas
Ondin se	ni ko'p sevar	me- $\overset{\curvearrowright}{n}$ +ey umri	aziz ¹ .

Jadvalda aks etganidek, 1-, 2-, 3-, 4-misralardagi ifodali o'qish uchun ta'kidlangan so'zlarni bir-biriga qo'shib “**sevarme-n+ey**”, “**sevma-k+on-din**”, “**ondin-n+ortuq**” tarzida vaznga mos talaffuz qilish lozim.

“*G'urbatda g'arib...*” deb boshlanuvchi ruboiy ham xuddi shu vazn xususiyatiga ega. Unda ham yuqoridagi ruboiy kabi 3-misrada o'lchov, ohang o'zgaradi. Shuning uchun ruboiy ikki vazn ohangida o'qiladi. Alisher Navoiyning ushbu ruboiysi “*G'aroyib us-sig'ar*” devonida 55-raqam ostida keltirilgan*. Adabiyotshunos olimlarimiz

¹ Sultonmurod O., Ahmedov S., Qo'chqorov R. Ko'rsatilgan manba. – 70-b.

*Qarang: Alisher Navoiy. *G'aroyib us-sig'ar*. TAT. 10 jildlik. 1-jild –T.: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2013. – 733-b.

tomonidan ushbu ruboiy qayta-qayta tahlil qilingan, vazn xususiyatlari o‘rganilgan*.

G‘urbatda	g‘arib(i) sho-	d(i)mon bo‘lma-	s+emish
— — V	V — V —	V — — V	V —
El anga	shafiqu meh	ribon bo‘lma-	s+emish
— — V	V — V —	V — — V	V —
Oltun qa	fa-s+ichra gar	qizil gul but	sa
— — V	V — V —	V — — —	—
Bulbul‘a	tikonde-k+o	sh(i)yon bo‘lma-	s+emish ¹ .
— — V	V — V —	V — — V	V —

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinadiki, ruboiydagi “g‘arib” so‘zining ikkinchi, “shodmon”, “oshyon” so‘zlarining esa birinchi bo‘g‘inlarida imola hodisasi qo‘llanilgan. Shunga ko‘ra, mazkur so‘zlarga bilinar-bilinmas bitta “i” unlisi orttirilib talaffuz qilinadi. Vazn talabi bilan “bo‘lmas” so‘zi har uch misrada, shuningdek, uchinchi misradagi “qafas”, to‘rtinchidagi “tikondek” so‘zi keyingi bo‘g‘inga qo‘shib o‘qiladi.

Alisher Navoiyning darslikda “Bormog‘in”, “Sarvi gulrux soridin”, “Butmagan” kabi tajnisli tuyuqlari ham keltirilgan. Ushbu tuyuqlar shoirning “Badoye’ ul-vasat” devonidan o‘rin olgan*. Ular ham mumtoz an‘ana asosida *ramali musaddasi mahzuf (maqsur)* o‘lchovalarida bitilgan.

Daslabki “Bormog‘in” tajnisli tuyug‘i quyidagi vaznga mos talaffuz etiladi:

*Qarang: Ҳоҷиаҳмедов А. Мактабда аруз вазнини ўрганиш. – Т.: Ўқитувчи, 1995. – 145-б.; Сирожиддинов Ш., Одилова Г. Алишер Навоий рубойлари таҳлили. <http://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/alisher-navoiy-ruboiylari-tahlili.html>; Шарипова Л. Рубоий вазнлари // Тил ва адабиёт таълими. 2013. – №3. – Б. 21. Юсупова Д. Таълим тизимида рубоий вазнларини ўқитиш тажрибасидан //“Ўзбекистонда хорижий тиллар” илмий-методик электрон журнал. 2019. – №4. – Б. 73-81.


¹ Sultonmurod O., Ahmedov S., Qo‘chqorov R. Ko‘rsatilgan manba. –72-b.

* Qarang: Alisher Navoiy. Badoye’ ul-vasat. TAT. 10 jildlik. 3-jild.–Т.: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2013. – 709-713-b.

foilotun — V — —	foilotun — V — —	foilun — V —
Necha dedim	ul sanamg'a:	“bormog'in”,
Qilmadi ul	tark(i) oxir	bormog'in.
Munchakim xud	roy(i)liq ko'r	guzdi ul,
Aql(i) hayrat	qildi, tishlab	bormog'in ¹ .

Tuyuqning vaznini saqlash uchun **tark**, **xudroyliq**, **aql** soʻzlarini **tark(i)**, **xudroy(i)**, **aql(i)** tarzida oxirgi undoshga bilinar-bilinmas “i” orttirib imola hosil qilinadi. Sheʼrdagi “Bormog'in” tajnisi bormagin, bormog'ini, barmag'ini singari ma'nolarni ifodalaydi.

“Sarvi gulrux soridin” tajnisli tuyug'i *ramali musaddasi mahzuf* (— V — —/ — V — —/ — V —) o'Ichoviga mos quyidagicha talaffuz etiladi:



Tuyuqda murakkablik kasb etadigan xususiyatlar yo'q. She'rni vaznga moslab ifodali talaffuz qilish uchun soʻzlarni qo'shish, cho'zish shart emas. Tuyuqning ohangi vaznga mos tushgan.

“Tig'i ishqing yorasidur butmagan” misrasi bilan boshlanuvchi tuyuq ham *ramali musaddasi mahzuf* (— V — —/ — V — —/ — V —) vaznida yaratilgan. Uni vaznga moslab ifodali o'qish uchun uchinchi misragi **hajr** soʻzini cho'zib, **sahrisidur ohim** soʻzlarini qo'shib o'qish kifoya.

¹ Sultonmurod O., Ahmedov S., Qo'chqorov R. Ko'rsatilgan manba. – 76-b.

8-sinf o‘quv dasturida Alisher Navoiyning bir qator fardlarini o‘rganish nazarda tutilgan. Shoirning darslikda keltirilgan fardlari “Favoyid ul-kabar” devonidan o‘rin olgan*. Ularni ifodali o‘qish uchun fardlarning vazn xususiyatlarini o‘lchov imkoniyatlarini o‘rganish zarur. Shayx Ahmad Taroziy mazkur janrga “Fard ikki misra’ bo‘lur. Avvalgi misra’ida qofiya bo‘lmas” – deb ta’rif beradi¹. “Fardlar hamma davrlardagi o‘zbek she’riyatida bor edi. U maqollar kabi siqiq, ixchamligi, esda oson qolishi, hikmatlarga boyligi bilan shoirlarni qiziqtirib kelgan. Shuning uchun ham fard yozmagan shoirni uchratish qiyin”². Adabiyotshunos I.Adizova “Uvaysiy ijodida janrlar takomili” risolasida Alisher Navoiy she’riyatida 86 ta, Zahiriddin Bobur devonida 26 ta, Uvaysiy she’riyatida 4 ta fard mavjudligini ta’kidlaydi³.

Alisher Navoiyning 8-sinfda tahlil qilinadigan fardlari ham xilma-xil vaznda yozilgan. Shoirning

Yuqar yamonlig‘ angakim, kirar yamon el aro,
Ko‘mir aro ilik urg‘an qilur ilikni qaro

kabi fardini vaznini aniqlash uchun dastlab hijolarga ajratamiz. Buni jadval asosida ko‘rsatamiz:

Yu	qar	ya	mon	li-	g ⁺ a	nga	kim	ki	rar	ya	mon	e-	l ⁺ a	ro
V	-	V	-	V	V	-	-	V	-	V	-	V	V	-
Ko‘	mu-	r ⁺ a	ro	i	li-	k ⁺ ur	g‘an	qi	lur	i	lik	ni	qa	ro ⁴ .
V	-	V	-	V	V	-	-	V	-	V	-	V	V	-

Endi hijolar asosida ruknlarni aniqlaymiz. “**Yuqar yamon**” rukni ohang jihatidan mafoilunga, “**-lig‘ angakim**” rukni failotunga, “**kirar yamon**” rukni mafoilunga, “**el aro**” failunga, “**Ko‘mur aro**” mafoilunga, “**ilik urg‘an**” rukni failotunga, “**qilur ilik**” rukni

* Qarang: Alisher Navoiy. Favoyid ul-kabar. TAT. 10 jildlik. 4-jild. –T.: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2013. – 741–752-b.


¹ Шайх Ахмад Тарозий. Фунун ул-балога. Нашрга тайёрловчи А.Ҳайитметов. – Т.: Хази́на, 1996. – 130-б.

² Носиров О. ва бошк. Ўзбек классик шеърляти жанрляри. – Т.: Ўқитувчи, 1979. – 171-б.

³ Адизова И. Увайсий ижодидя жанрлар такомилы. – Т.: Muharrir, 2011. – 6-б.


⁴ Sultonmurod O., Ahmedov S., Qo‘chqorov R. Ko‘rsatilgan manba. – 82-b.

mafoilunga, “-ni qaro” failunga teng keladi. Demak, har qaysi misra ruknlari “mafoilun failotun mafoilun failun” shaklida ekan. Bu yerda 1–3-rukndagi *mafoilun* – mustaf’ilun aslining maxbun tarmog‘i, 2-rukndagi *failotun* – foilotun aslining maxbun tarmog‘i va 4-rukndagi *failun* esa shu aslning maxbuni mahzuf tarmog‘idir. Bayt *mustaf’ilun* va *foilotun* asllarning ketma-ket takroriga asoslangani uchun *mujtass* bahrini, unda ushbu asllarning tarmoqlari va baytning sakkiz rukndan iborat ekanligini inobatga olib, ushbu fard *mujtassi musammani maxbuni mahzuf* (V – V –/ V V – –/ V – V –/ V V –) vaznida yaratilgan degan xulosaga kelish mumkin. Demak, vazn *mustaf’ilun* (– – V –) aslining maxbun tarmog‘i *mafoilun* (V – V –), foilotun (– V – –) aslining maxbun tarmog‘i *failotun* (V V – –) va maxbuni mahzuf tarmog‘i *failun* (V V –)ning ketma-ket takroridan hosil bo‘lgan. Ushbu vazn she’riyatimizda keng qo‘llanilgan o‘lchovlardan biri hisoblanadi. Taqtiyi quyidagichadir:



Fardni yuqoridagi kabi jadval asosida hijolarga ajratish, o‘quvchilarga fard vaznini aniqlashda yengillik yaratadi. Keltirilgan baytda “**yamonlig**” so‘zidagi “**g**” undoshi, “**ilik**” so‘zidagi “**k**” undoshi vazn talabi bilan o‘zidan keyin kelayotgan anga, urg‘an so‘zlaridagi **-a**, **-ur** hijosi bilan birikib, vasl hosil qiladi va “**yamonli-g‘+anga**”, “**ili-k+urg‘an**” tarzida o‘qiladi. Ohangda o‘ynoqilik va yengillik hosil bo‘ladi. Fardda yomon kishilar davrasiga qo‘shilmaslikka undash g‘oyasi ilgari surilgan.

“Ulki, sanga eldin erur aybg‘o” deb boshlanuvchi fard tuyuq vaznida, ya’ni *ramali musaddasi mahzuf*da yozilgan (mazkur vazn haqida yuqorida nazariy ma’lumot berildi). Binobarin, bu fardni ana shu vaznga maxsus bo‘lgan:




ruklari va taqtiyiga muvofiq “eldin erur”, “sendin o’lur” so‘zlarini qo‘shib, “aybgo‘”, “aybjo” so‘zlaridagi “ayb” hijosiga bitta “i” unlisini orttirib talaffuz qilish lozim.

Ulki, sanga	eldi-n+erur	ayb(i)go‘,
— V — —	— V — —	— V —
Elga dog‘i	sendi-n+o‘lur	ayb(i)jo‘
— V — —	— V — —	— V —

Ushbu fardning mohiyatida ham muhim bir pand yotibdi. Undagi “dog‘i” so‘zi “tag‘in”, “yana”, “ham”, “aybg‘o” kalimasi “ayb aytuvchi”, “aybjo” esa “ayb topuvchi” ma’nosini anglatadi. Ya’ni “Kimki senga odamlarning aybini aytsa, u sendan ayb topib, boshqalarga ham yetkazadi” degan ma’no anglashiladi. Asarning vazni yuzaga keltirgan yengil va o‘ynoqi ohang, ikki misrani bir-biriga chambarchas bog‘lab turgan qofiya ham baytda badiiy go‘zallikni hosil qilgan.

Navoiyning “Men sinuq, ko‘nglum – sinuq, sabrim uyi xud – yerga past” deb boshlanuvchi fardi she’riyatimizda keng qo‘llangan ramali musammani maqsur vaznida yozilgan. Ruknlari va taqtisi bir misrada:



singaridir. *Ramali musammani maqsur* vazni ramal bahrining qo‘shvaznli o‘lchov guruhiga mansub bo‘lib, dastlab uch rukn *foilotun* (— V — —) va oxirgi rukn *foilon* (— V ~)dan tashkil topadi. Baytdagi qisqa, cho‘ziq, o‘ta cho‘ziq hijolar o‘zaro ketma-ket takrorlanadi.

Darslikda Nodira ijodini o‘rganish davomida uning bir qator g‘azallari tahlil etiladi¹. Ushbu g‘azallar Nodiraning “Devon”idan o‘rin olgan*. Shoiraning 8-sinf “Adabiyot” darsligidagi “Eshit” radifli g‘azali ham an’anaviy yetti baytdan iborat bo‘lib, *ramali musammani mahzuf* vaznida bitilgan.

Doda keldim, — V — —	ey salotin — V — —	sarvari, do — V — —	dim eshit, — V — —
Sen sha-h+u , men — V — —	benavo, lut — V — —	-f+ayla , faryo — V — —	dim eshit ² . — V — —

Hijolarning bir cho‘ziq + bir qisqa + bir cho‘ziq + bir cho‘ziq tarzida joylashuvi, son va sifati foilotun ruknini, uning qaytalanishi ramal bahrini, baytdagi sakkizta rukn musamman ekanini, oxirgi ruknlarda bir cho‘ziq hijoning kamligi mahzuf tarmog‘ini ko‘rsatadi va g‘azalning *ramali musammani mahzuf* vaznida yozilganligi oydinlashadi. G‘azalda turkiy so‘z (“eshit”) radifga olingan bo‘lib, qofiyadagi so‘zlarning barchasi o‘zbekcha egalik qo‘shimchasi bilan kelgan forscha-tojikcha so‘zlardan tashkil topgan. Bu g‘azalda lirik qahramon to‘g‘ridan to‘g‘ri yorga murojaatdan boshlaydi. She’r vaznga moslab quyidagicha o‘qiladi:

Doda keldim, ey salotin sarvari, dodim eshit,

Sen **sha-h+u**, men benavo, **lut-f+ayla**, faryodim eshit.

Maddi ohim shu’lasi husnuning dabiristonida,

Misra’i barjastadur, ey sarvi ozodim, eshit.

¹ Sultonmurod O., Ahmedov S., Qo‘chqorov R. Ko‘rsatilgan manba. — 84-b.

* Qarang: Нодира-Комила. Девон — Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2001. — 78 б.

² Sultonmurod O., Ahmedov S., Qo‘chqorov R. Ko‘rsatilgan manba. — 85-b.

Sarvi nozim, **sendi-n+ayru** naxli ohim bo‘ldi xam,
Qomating hajrida sindi shoxi shamshodim, eshit.

Har nechakim **sabr(i)** ta‘mirini **bunyo-d+ayladim**,
Ashk(i) selobida vayron o‘ldi obodim, eshit.

Barcha yor-u **osh(i)**nodin aylading begonalig‘,
Necha kunlar bo‘ldi, hargiz qilmading yodim, eshit.

Kelki, bir soat seni ko‘rmoq uchun **mushtoq(i)men**,
Telba bo‘ldim **sendi-n+ayru**, ey parizodim, eshit.

Nodira bodi sabodin senga irsol etgali
Qildi insho bu g‘azalni tab‘i noshodim, eshit¹.

Demak, birinchidan, g‘azaldagi “**sabr**”, “**ashk**”, “**oshno**” so‘zlari ikki qator undoshi bilan tugagan bo‘g‘in bo‘lganligi uchun o‘ta cho‘ziq hijo sanaladi, shuning uchun ikkinchi undoshdan keyin qisqa “**i**” unlisi qo‘shiladi;

ikkinchidan, “**Mushtoq**” so‘zining ikkinchi bo‘g‘ini o‘ta cho‘ziq bo‘lgani uchun tarkibidagi “**o**” unlisi cho‘ziladi;

uchinchidan, “**sha-h+u**”, “**lut-f+ayla**”, “**sendi-n+ayru**”, “**bunyo-d+ayladim**”, “**sendi-n+ayru**” so‘zlari, shuningdek, barcha baytdagi qofiyalar va radiflar qo‘shib o‘qiladi;

to‘rtinchidan, darslikda “g‘azaldagi beshinchi baytning birinchi misrasi “**begonalig**” so‘zi bilan tugagani, ya‘ni oxirgi bo‘g‘in o‘ta cho‘ziq hijodan tashkil topgani uchun ramali musammani maqsur (— V — — / — V — — / — V — — / — V ~) vaznida bitilgan” — deyiladi². Biz bu fikrga qo‘shilmaymiz. Chunki “**begonalig**” so‘zidagi “**-lig**” bu qo‘shimcha hisoblanadi hamda mazkur qo‘shimchada o‘ta cho‘ziq hijoni aks etturuvchi biron belgi yo‘q. Aruzshunoslikda o‘ta cho‘ziq hijoning ikki xil ko‘rinishi haqida ma‘lumot beriladi.

¹ Sultonmurod O., Ahmedov S., Qo‘chqorov R. Ko‘rsatilgan manba. — 92-b.

² Sultonmurod O., Ahmedov S., Qo‘chqorov R. Ko‘rsatilgan manba. — T.: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2019. — 93-b.

1. Qator undosh bilan tugagan yopiq bo‘g‘in:

- ishq, do‘st, charx, dard...

2. Tarkibida cho‘ziq unlisi bo‘lgan yopiq bo‘g‘in:

- dod, hech, yor, oh, ...

Shunday ekan, “**begonalig**” so‘zidagi “**-lig**” hijosi o‘ta cho‘ziq hijo emas, balki oddiy cho‘ziq hijodir.

Shoiraning “Oqibat” radifli g‘azali ham *ramali musammani mahzuf* (— V — — / — V — — / — V — — / — V —)da, 2-, 3-, 5-baytlarning birinchi misrasi *ramali musammani maqsur* (— V — — / — V — — / — V — — / — V ~) vaznida yozilgan. Mohir pedagog Sh.Toshmirzayeva mazkur g‘azal haqida ijodkor o‘tib ketgan navbahoriyu xazon bo‘lgan gulistonini kuylaydi, – deb ta’kidlaydi¹. Bu g‘azalni tahlil qilish va adabiyot darslari davomida o‘quvchilarning aruz ilmi bilan qanchalik tanishib borayotganliklarini bilib olsa bo‘ladi. Buning uchun ularga:

a) ruknlar chizmasini belgilash yo‘llarini o‘rgatish;

b) *ramali musammani mahzuf* vaznidagi asarlar o‘lchovini mustaqil aniqlashiga qaratilgan usullar bilan tanishtirish;

c) aruzdagi she‘riy asarlarni mustaqil o‘qish texnikasi yuzasidan maxsus saboqlar tashkil etish.

Yuqorida ketma-ketlikda bu vaznlar haqida ma’lumot berib borayotganligimiz sababli o‘quvchilarda shu jarayongacha bo‘lgan davrda aynan shunga o‘xshagan g‘azallarni o‘zlari mustaqil ravishda ruknlari va taqtisini topa olishi kerak. Buning uchun o‘qituvchi quyidagi baytni o‘quvchilar ixtiyoriga havola qilishi lozim bo‘ladi.

Vasl o‘yin obod qildim, buzdi hijron oqibat,
Seli g‘amdin bu imorat bo‘ldi vayron oqibat.

O‘quvchi ruknlar chizmasini to‘g‘ri belgilashi uchun matla’ baytning birinchi misralardagi vasl, imola hodisalariga alohida e’tibor berishi kerak. Agar o‘quvchi vasl, imola hodisalari haqidagi nazariy bilimlarni puxta o‘zlashtirmasa, vaznda noaniqlik kelib

¹ Тошмирзаева Ш. Назм ва наво // Тил ва адабиёт таълими. – Т.: 1999. – №3. – Б. 32.

chiqadi. Natijada, gʻazalning vaznida chalkashlik sodir boʻladi. Masalan, shu shaklda:

Vasl uyin o -	bod qildim	buzdi hijron	oqibat
— V V — — ?	— — — — ?	— V — —	— V —
Seli gʻamdin	bu imorat	boʻldi vayron	oqibat
— V — —	— V — —	— V — —	— V —

Jadvaldagi taqti'lardan xulosa chiqarish mumkinki, aruz tizimida yuqoridagi kabi shakl mavjud emas. Vazndagi hijolarning tengligini saqlash uchun vasl hamda imolani oʻz oʻrnida qoʻllash kifoyadir. Boʻgʻinga ajratganda, **vas-lu-yin, o-bo-d(i)** deb ajratish va shu tarzda oʻqish maqsadga muvofiqdir. Biz buni quyidagi jadvalda aks ettirdik va gʻazalning matlaʼsini ramali musammani mahzuf vazni ohangiga mosladik:

Vas-I+uyin o -	bod(i) qildim	buzdi hijron	oqibat
— V — —	— V — —	— V — —	— V —
Seli gʻamdin	bu imorat	boʻldi vayron	oqibat
— V — —	— V — —	— V — —	— V —

Mazkur gʻazalning shoira ijodidagi boshqa gʻazallardan farqli jihati shundaki, u toʻqqiz baytdan iborat. Gʻazalda “**oqibat**” soʻzi radifga olingan. Bu kalima har bir bayt mazmunini boshqarib turadi. Sheʼr vaznga moslab quyidagicha oʻqiladi:

Vas-I+uyin obod(i) qildim, buzdi hijron oqibat,
Seli gʻamdin bu imorat boʻldi vayron oqibat.

Qildi choki piyrahan dogʻi dilimni **osh(i)kor**,
Qolmadi koʻnglimda zaxmi **ishq(i)** pinhon oqibat.

Ahdu paymonlar qilib erdi: “Vafo qilgʻum”, — debon,
Ayladi tarki vafo ul ahdi yolgʻon oqibat.

Or(i)zu qildim: “Tutarmen — deb, visoli domanin”,
Pora boʻldi **hajr(i)** ilgida giribon oqibat.

Zohido, ishqu muhabbat ahlini **ma'zur(i)** tut,
Yor(i) ko'yida na bo'ldi Shayx San'on oqibat?

Baski, qon bo'ldi yurogim gavhari **ash-k+o'rnig'a**,
Qatra-qatra ko'zlarimdin tomdo marjon oqibat.

Oh(i)kim, bo'ldi yana subhi nashotim shomi g'am,
Chehra pinhon etti ul Xurshidi tobon oqibat.

Garchi bor erdi musaxxar **dev(i)lar** farmonida,
Poy(i)moli xayli mo'r o'ldi Sulaymon oqibat.

Nodira, bulbul kabi to nola insho ayladim,
Navbahor o'tti, xazon o'ldi guliston oqibat¹.

Asarda tanlangan vazn misralardagi **orzu**, **oshkor**, **ohkim**, **poymoli** so'zlarining birinchi, **obod**, **ma'zur** so'zlarining ikkinchi bo'g'inlari tarkibidagi unililarni cho'zib, **vas-l+o'yin**, **ash-k+o'rnig'a** so'zlarini qo'shib o'qish taqozo etadi. **Ishq**, **hajr**, **yor**, **dev** kabi so'zlarni talaffuz qilayotganda bo'g'in oxiridagi undosh tovushdan keyin bir qisqa "i" qo'shib o'qiladi.

Nodiraning "Etib ket" radifli g'azali hazaj bahrining *hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf* vaznida yozilgan. Vaznning ruknlari va chizmasi bir misrada quyidagi tarzda keladi:



Uning tarkibini *mafoiylun* aslining *axrab* tarmog'i *maf'uvlu* (sadr va ibtidoda), *maqbus* tarmog'i *mafoilun* (hashvlarda) hamda mahzuf tarmog'i *fauvlun* (aruz va zarbda) tashkil qiladi.

¹ Sultonmurod O., Ahmedov S., Qo'chqorov R. Ko'rsatilgan manba. – 96-b.

Kel, dahr(i)	ni imtihon	etib ket,
— — V	V — V —	V — —
Sayri cha	mani jahon	etib ket.
— — V	V — V —	V — —

4 qisqa va 6 cho‘ziq hijoning bu xildagi takrori yoqimli, yengil, o‘ynoqi, ayni chog‘da g‘oyatda musiqiy ohang yaratadi. Shuning uchun ham ushbu o‘lchov XIV asrdan boshlab XX asr boshlariga qadar shoirlarimiz ijodida keng qo‘llanilib kelingan. Uning asosida faqat lirik she‘rlar emas, balki Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostoni kabi yirik badiiy obidalar ham yaratilgan.

Kel, **dahr(i)**ni imtihon etib ket,
Sayri chamani jahon etib ket.

Bedard(i)laring jafolaridin
Faryod(i) etib, fig‘on etib ket.

Dunyo chamanini bulbulisen,
Gul shoxida **osh(i)yon** etib ket.

Ey **ashk(i)**, ko‘zimni maktabidin
Hayrat sabaqin ravon etib ket.

Olam chamaniki bevafo dur,
Bir **oh(i)** bila xazon etib ket.

Ushshoq(i) maqomi **bo‘s(i)ton**dur,
Azmi rahi **bo‘s(i)ton** etib ket.

Maqsad na edi, jahona kelding?
Kayfiyatini bayon etib ket.

Fosh etma ulusqa **ishq(i)** sirrin,
Ko‘ngulda ani nihon etib ket.

Kel, **ishq(i)** yo‘lida ko‘zlaringni
Ey Nodira, durfishon etib ket¹.

¹ Sultonmurod O., Ahmedov S., Qo‘chqorov R. Ko‘rsatilgan manba. — 99-b.

Gʻazal toʻqqiz baytdan iborat boʻlib, oʻta choʻziq boʻgʻinlar anchagina. Shuning uchun bunday holatlarga alohida diqqat qaratish talab qilinadi. “Etib ket” soʻzlari radifga olingan. Har bir bayt mazmuni ana shu ikki soʻz orqali boshqarilgan. Ohangi *hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf* vazniga mos. Shu tariqa unga kuchli hayotsevarlik tuygʻusi singdiriladi.


8-sinf “Adabiyot” darsligida ramal bahrining ramali musaddasi mahzuf, ramali musaddasi maqsur, ramali musammani mahzuf, ramali musammani maqsur, ramali musammani maxbuni mahzuf, hazaj bahrining hazaji musaddasi mahzuf, hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf, hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf ruboiy vaznlari hamda mujtass bahrining mujtassi musammani maxbuni mahzuf vaznlarida yaratilgan mumtoz janrlar uchraydi.

9-SINF “ADABIYOT” DARSLIGIDA KELTIRILGAN JANRLARDA RAMAL, HAZAJ VA RAJAZ BAHRLARINING QO‘LLANILISHI


9-sinf “Adabiyot” o‘quv dasturida tanlangan mumtoz namunalar aruz tizimining ramal, hazaj, rajaz bahrlari o‘lchovlarida yaratilgan. Ularni o‘rganish jarayonida o‘quvchilar aruz tizimiga xos yangi-yangi vazn xususiyatlari bilan tanishtiriladi.

Alisher Navoiyning 9-sinfda chuqur o‘rganiladigan yirik asari – “Farhod va Shirin” dostoni *hazaji musaddasi mahzuf* va *hazaji musaddasi maqsur* vaznlarida bitilgan. “Farhod va Shirin” dostonida mazkur o‘lchovlar bir-biri bilan o‘zaro almashinib qo‘llanilgan.

Ularning ruknlari va taqti’si quyidagicha:



hamda



Quyida darslikda keltirilgan “Farhod va Shirin” dostonidan parcha namuna keltiramiz:

Dedi: “Qaydin	se-n+ey majnu	ni gumrah?!”
V ———	V ———	V ———
Dedi: “Majnun	vatandin qay	da ogah?”
V ———	V ———	V ———

hamda

Dedi: “Qay chog‘	di-n+o‘ldung ish	-q+aro mast?”
V ———	V ———	V —~
Dedi: “Ruh er	ma-s+erdi tan	g‘a payvast”
V ———	V ———	V —~

Hazaji musaddasi mahzuf vazni qo‘llanilish jihatidan epik poeziyada yetakchi o‘rinni egallaydi. XIX asrgacha bo‘lgan epik poeziyada mazkur vazn, asosan, ishqiy mavzudagi dostonlarda istifoda etildi. Xorazmiyning “Muhabbatnoma”si va umuman, barcha nomalar, Sayfi Saroyining “Suhayl va Guldursun”, Qutbning “Xisrav va Shirin”, Haydar Xorazmiyning “Gul va Navro‘z”, Sayyid Qosimiyning “Ilohiynoma” va “Haqiqatnoma” hamda Alisher Navoiy “Farhod va Shirin” dostonlarining mazkur vaznda bitilganligi fikrimizni isbotlaydi.

O‘zbek epik poeziyasida mazkur vaznning ilk bor qo‘llanishi Xorazmiy nomi bilan bog‘liq. Uning 1353–1354 yillarda yaratilgan “Muhabbatnoma” dostoni shu vaznda yaratilgan. Alisher Navoiy o‘zining “Mezon ul-avzon” asarida turk xalqida “Muhabbatnoma” deb atalgan qo‘shiq borligini va mazkur qo‘shiqning o‘lchovi biz yuqorida tilga olgan vazn bilan mutanosib kelishini ta’kidlaydi: “Va yana turk ulusida bir suruddurkim, ani “muhabbatnoma” derlar, ul hazaji musaddasi maqsur bahridadur va xolo matruqdur, budur (bayt):

Meni og‘zing uchun shaydo qilibsen
Manga yo‘q qayg‘uni paydo qilibsen”.

Demak, xalq og‘zaki ijodidagi “muhabbatnoma” qo‘shig‘i ohangi bilan Xorazmiy “Muhabbatnoma”si vazni orasida muayyan

darajada aloqadorlik mavjud ekan. Ushbu vaznda ritmik variatsiyalar mavjud emas, shuning uchun asar oxirigacha bu vazn bir xil tarzda takrorlanadi. D.Yusupovanning “Alisher Navoiy “Xamsa”sida mazmun va ritmning badiiy uyg’unligi” monografiyasida *hazaji musaddasi mahzuf* vazni qo‘shimcha urg‘u olish xususiyatiga ega ekanligi ta’kidlanadi. Urg‘u, asosan, ochiq bo‘g‘inlarga tushganligi uchun, dostonidagi ritmik ohang urg‘u hisobiga biroz o‘zgarishi mumkin.

Dostonda o‘ta cho‘ziq hijolar ko‘plab qo‘llanilgan, aksariyat o‘rinlarda so‘zlarni qo‘shib o‘qish talab qilinadi. Shuning uchun dostonni o‘qish jarayonida bunday holatlarga e’tibor qaratish lozim. Quyida “Farhod va Shirin” dostonidagi Xusrav va Farhodning dialogidan parchani keltiramiz:

Dedi: “**Qaydinse-n+ey** majnuni gumrah?!”

Dedi: “Majnun vatandin qayda ogah?”

Dedi: “Nedur senga olamda pesha?”

Dedi: “**Ish-q+ichra** majnunluq hamisha”.

Dedi: “Bu **ishda-n+o’lmas kasb(i)** ro‘zi!”

Dedi: “**Kas-b+o’lsa** basdur **ishq(i)** so‘zi”.

Dedikim: “**Ishq(i)** o‘tidin de fasona!”

Dedi: “Kuymay kishi topmas nishona”.

Dedikim: “Kuymakingni ayla ma'lum!”

Dedi: “Andin erur joh ahli mahrum”.


Dedi: “Qay **chog’di-n+o’ldung ish-q+aro** mast?”

Dedi: “Ruh **erma-s+erdi** tang‘a **payvast**”¹....

Ta’kidlangan o‘rinlardan har qaysi misrani aytib o‘tilgan ruknlar ohangiga moslab talaffuz qilish zarurligi ma’lum bo‘ladi.

¹ Yo‘ldoshev Q., Qodirov V., Yo‘ldoshbekov J. 9-sinf “Adabiyot” darsligi. – T.: O‘zbekiston NMIU, 2019. – 71-b.

Xojaning 9-sinfda o‘rganiladigan “Bo‘l adolat masnadi uzra Sulaymoni zamon” deb boshlanuvchi g‘azali she‘riyatimizda keng qo‘llanilgan *ramali musammani maqsur* o‘lchovida yozilgan bo‘lib, uning ruknlari va taqti‘si quyidagi shaklni oladi:



O‘qituvchi g‘azalni o‘qishdan oldin:

- 1) uning vazni haqida ma‘lumot beradi;
- 2) ruknlarni tanishtiradi;
- 3) namuna uchun matla‘ baytni o‘qib ko‘rsatadi.

G‘azalning ko‘pchilik baytlarini o‘qish qiyinchilik tug‘dirmaydi, chunki she‘rda o‘ta cho‘ziq hijo kam uchraydi. O‘ta cho‘ziq hijoli so‘z g‘azalda misralarning so‘ngida keladi.

Bo‘l adolat	masnadi uz	ra Sulaymo	ni zamon,
— V —	— V —	— V —	— V ~
Toki sandin	mustafid o‘l	g‘ay bari ah	li jahon ¹ .
— V —	— V —	— V —	— V ~

Ramali musammani maqsur vazni qofiyadosh misralarning o‘ta cho‘ziq bo‘g‘inlar bilan tugallanishini nazarda tutadi, ya‘ni oxiridagi qofiya yoki radiflar ridfli (murdaf) yoki qaydli (muqayyad) bo‘lishi lozim. Qaydli qofiyalar tarkibida qisqa unli bo‘lgan bo‘g‘inning qo‘sh undosh bilan tugallanishi tufayli she‘r ohangiga ma‘lum darajada salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Bu xil g‘azal va musammatlarni o‘qishda, xususan, ularni kuylashda o‘ziga xos murakkablik yuzaga keladi. Shuning uchun ham chinakam xalqchil shoirlar bu xil qofiyalarni mumkin qadar kamroq ishlatishga harakat qilganlar. Ridfli qofiya she‘rga ta‘sirchan ohang, alohida jarangdorlik bag‘ishlaydi. Bu xil qofiyalar tarkibidagi ridfi asliy, ya‘ni cho‘ziq o,

¹ Yo‘ldoshev Q., Qodirov V., Yo‘ldoshibekov J. Ko‘rsatilgan manba. – 92-b.

u, i unlilari ohangga ijobiy ta'sir ko'rsatib, uning musiqiyligini kuchaytiradi, shuning uchun ham bunday vaznlarda yozilgan g'azal va musammatlar mumtoz kuylar bilan aytilganda g'oyatda yoqimli yangraydi.

Muhammad Rizo Ogahiy Xiva yaqinidagi Qiyot qishlog'ida tug'iladi. Xiva madrasalarida tahsil ko'rgan, arab fors, turk tillarini puxta egallagan ijodkorlarimizdan biridir. Xorazmning mashhur shoir va olimlari, adabiyot muxlislarining suhbatlarida ishtirok etgan adib Sharq klassik asarlari, ayniqsa, Navoiy ijodini qunt bilan o'rgangan. Ogahiy xalq orasida ko'proq lirik shoir sifatida mashhur. Umrining oxirgi yillarida tuzgan lirik kulliyoti – "Ta'viz ul-oshiqin" ("Oshiqlar tumori", 1872-y.) bizgacha to'la yetib kelgan.

Ogahiy devonida zamon va zamondoshlari tasviri ham katta o'rin egallagan. Buning yaqqol misoli sifatida u o'zi yashagan davrni mahorat bilan badiiy umumlashtirganda, zamon va uning ahliga munosabat bildirganda, baho berganda, xalqparvarlik nuqtayi nazaridan yondashgani ko'rinadi. "Ogahiy janr imkoniyatlariga ijodiy yondashib, ularni takomillashtirgan, ya'ni o'zigacha bo'lgan 7, 8, 10, 12 baytli g'azal yozish tartibini 23 baytgacha yetkazgan, mustazod janrining qo'sh ortirma misrali yangi shaklini kashf etgan"¹. Shoir aruzning juda ko'p bahrlaridan foydalangan. Uning g'azallari "Shashmaqom"ning hamma kuylariga tushadi, Xorazm xalq ohanglariga mos keladi. Ogahiyning "Ta'viz ul-oshiqin" asari Xivada toshbosmada nashr etilgan.

Ogahiy g'azallarini 9-sinf "Adabiyot" darsligi kesimida oladigan bo'lsak, unda go'zal tabiat lirikasiga bag'ishlangan manzaralarni ko'rish mumkin. Tabiat lirikasi Ogahiyning ko'ngil rozlari orqali yanada jozibali ko'rinadi. O'quvchiga uning qay tartibda yozilganligi haqida ma'lumot berar ekanmiz, o'lchov imkoniyatlaridagi farq va tafovutlar haqida ham o'zining munosabatini bildirishi kerakligini unutmazlik lozim. Ogahiyning darslikda keltirilgan "Navro'z" radifli ilk g'azalida qo'llanilgan *hazaji musaddasi maqsur* (V — — — / V — — — / V — ~) vazni she'riyatimizda ancha keng qo'llanilgan o'lchovlardan hisoblanadi.

¹ Жумахўжа Н. Бир суруд бор эканким... Огахийда // Ёшлик, 1997. – №1. – Б. 46.

She'ning toq misralari *hazaji musaddasi mahzuf* (V — — — / V — — — / V — —)da yaratilgan.

O'quvchilar har bir hijoga to'xtalib, uning sifatini – nima uchun qisqa yoki cho'ziq ekanligini izohlashi kerak. Birinchi va ikkinchi misradagi *poya* va *soya* so'ziga diqqatlari jalb etilib, uning birinchi bo'g'inini misraning ikkinchi ruknida, keyingi bo'g'in esa uchinchi ruknda ekanligi aytilib, aruzdagi rukn xususiyati haqida to'xtalib o'tiladi. Shu tarzda Ogahiyning g'azali bir misrada

Ba	lan	d ⁺ ay	lab	qu	yosh	ga	po	ya	nav	ro'z
V	—	—	—	V	—	—	—	V	—	~
Ko'	tar	di	yer	yu	zi	ni	so	ya	nav	ro'z
V	—	—	—	V	—	—	—	V	—	~

kabi ifodalanadi. G'azalning barcha misralarida mana shu tartib aslo o'zgarmaydi. G'azal quyidagicha o'qiladi:

↷

Balan-d+aylab quyoshga poya¹ navro'z,
Ko'tardi yer yuzidin soya navro'z.

Kelib fayz-u nishot-u² **aysh(i)** birla,
Muhayyo qildi elga voya³ navro'z.

Tarab tiflin⁴ tug'urdi **dahr(i)** zoli⁵,
Ango bo'ldi magarkim doya navro'z.

Qilibdur mahliqolarning yuzini,
Latofat Mus'hafig'a oya navro'z.

Kiyib ahli g'ino⁶ yuz **rang(i)** xil'at,
To'lo boshdin ayoq peroya⁷ navro'z.

¹ Qadr, daraja.

² Shodlik.

³ 1. Muqaddima; 2. Bahra.

⁴ Go'dak; chaqaloq.

⁵ Kampir.

⁶ Boylik.

⁷ Ziyat, bezak.

Hama o‘ynab olib qo‘lg‘a yumurta¹,
Mening ilgimda yo‘qtur xoya² navro‘z.

Diramdur³ moyai ishrat ulusg‘a,
Vale men bo‘lmisham bemoya navro‘z.

Janobi shahg‘a keldim bu jihatdin,
Ko‘zim yoshig‘a toya-toya navro‘z.

Ki shoyad o‘zgalardek Ogahiyini
Tarabnok aylagay beg‘oya navro‘z⁴.

G‘azaldagi

1) birinchi misrada qo‘llanilgan **“baland”** so‘zidagi **“d”** undoshi undan keyin turgan **“ay”** hijosiga ulanib, **“day”** singari;

2) **aysh, dahr, rang** so‘zlari esa **aysh(i), dahr(i), rang(i)** singari talaffuz etiladi.

Ogahiyning **“O‘lsun”** radifli g‘azali ham *hazaji musaddasi mahzuf* vaznining imkoniyatlaridan foydalanilgan holda yozilgan. Misralarni ruknlarga to‘g‘ri ajratish uchun:

1) ularni ifodali o‘qish;

2) o‘ta cho‘ziq hijolar hamda qo‘shib o‘qiladigan o‘rinlariga alohida diqqat qilish shart. Masalan, birinchi baytning o‘qilishi quyidagi jadvalda keltirilgan:

Ilohi har	kuning navro‘	z(i) bo‘lsun
V — — — —	V — — — —	V — — —
Hamisha to	le‘ying feru	z(i) bo‘lsun
V — — — —	V — — — —	V — — —

Ruknlarga ajratganimizdan so‘ng so‘zlarni chizmadagi belgilarga muvofiqligini aniqlaymiz. Buning natijasida birinchi va ikkinchi ruknlardagi so‘zlar mafoiylun (V — —) asliy rukniga, uchinchi rukndagi so‘z esa fauvlun (V — —) tarmoq rukniga tengligini aniqlashadi. Baytdagi **navro‘z** va **feruz** so‘zlaridagi **“o”**,

¹ Tuxum.


² Tuxum.

³ Tanga (pul).

⁴ Yo‘ldoshev Q., Qodirov V., Yo‘doshbekov J. Ko‘rsatilgan manba. — 99-b.

“u” tovushlaridagi o‘ta cho‘ziqlikni arab-fors tilidagi “و” (*u*) harfi ta‘minlab kelayotganligi haqida alohida to‘xtalib o‘tilishi kerak.

Ogahiyning “Ustina” radifli mashhur g‘azali *rajazi musammani solim* vaznida yozilgan. Yuqoridagi ikki g‘azal vaznidan bu g‘azal vazn jihatidan farqlanishini ta‘kidlab, o‘uvchilarga bu haqda qisqacha nazariy ma‘lumot beriladi. *Rajazi musammani solim* vazni she‘riyatimizda keng qo‘llanilgan bo‘lib, qator mumtoz kuylarimizga mos tushadi. Ushbu vazn *mustaf‘ilun* (— — V —) aslining aynan takroridan hosil bo‘ladi. Ruknlari va chizmasi har bir misrada



tarzidadir. Ushbu o‘lchov *mustaf‘ilun* aslining aynan takroriga asoslanadi. Cho‘ziq va qisqa hijolarning shu tarzidagi takrori vazmin, salobatli ohangni yaratishi barobarida musiqaga ham oson tushadi. Shu tufayli she‘riyatimizda *rajazi musammani solim* vaznida ko‘plab lirik asarlar yaratilgan. A.Hojiahmedov ushbu o‘lchovning “adabiyotimizda aynan qachondan boshlab qo‘llanilganini aytish ancha qiyin. Shuni ta‘kidlash lozimki, XIV asrning ikkinchi yarmi, XV asr boshida yashab ijod etgan ijodkorlarimiz asarlarida kuzatishimiz mumkin”¹ deydi.

Shoirning “*Ustina*” radifli g‘azali o‘zbek mumtoz adabiyotida ancha mashhur g‘azallaridan biri hisoblanadi. G‘azalning birinchi baytidayoq shoirning o‘ziga xos yangilik, badiiy kashfiyotga erishish iste‘dodi namoyon bo‘lganini o‘quvchiga bayt misolida izohlab ketish kerak.

¹ A. Хожиахмедов. Ўзбек арузи луғати. — Т.: Шарқ, 1998. — 34-б.

Mushkin qoshi	ning hay'ati	ul chashmi jal	lod ⁺ ustina
— V —	— V —	— V —	— V —
Qatlim uchun	“nas” keltirur	“nun” eltibon	“sod” ⁺ ustina ¹ .
— V —	— V —	— V —	— V —

Shu tarzda o'quvchi hijoning qaysi holatda qisqa, cho'ziq yoki o'ta cho'ziq kelishini bilib olishlari oson kechadi va bu ularga biroz yengillik yaratadi. Matla'da ma'shuqaning qoshi va ko'zi ta'rif etiladi. Arab alifbosida “**nun**” qoshga, “**sod**” ko'zga o'xshashligidan foydalanib, shoir yor go'zalligining o'ziga xos tasvirini yaratgan. “Nun”ni “sod”ning ustiga qo'yilsa (ya'ni avval “nun”, keyin unga qo'shib “sod” yozilsa), “**nas**”, ya'ni “**hukm**” so'zi hosil bo'lishini o'quvchilarga faqatgina og'zaki tarzda emas, balki doskadan foydalangan holatda tushuntirilsa xotirada saqlanishiga yordam beradi. Bu hukm (nas)ga ko'ra oshiq qatl etilishi kerak. Chunki “nun”ga o'xshash mushk rangli qosh hamda “sod”ga o'xshash ko'z o'zlarining yor yuzidagi ko'rinishi (hay'ati) bilan hukmni chiqarganlar². Keyingi bosqichda biz Ogahiygacha ko'z-u qoshni mazkur harflarga tashbih qilish, chashm (ko'z)ni jallod deyish an'anaviy tasvir bo'lganligi, lekin harflardan so'z yasab va uni mazmunga, tasvirga tatbiq etish – bu yangilik hisoblanadi.

Furqat she'riyatini o'qish hamda vazn xususiyatlarini o'rganish jarayonida o'quvchilarning o'zbek aruzining XIX asr ikkinchi yarmidagi taraqqiyoti to'g'risidagi bilimlari yanada chuqurlashtiriladi. Shoirning g'azal va musammatlari, masnaviy va maktublarning ritm-ohang xususiyatlarini tadqiq etish uning har qaysi she'rda asardagi g'oya va obrazga muvofiq vazn tanlanganidan dalolat beradi. Chunonchi hayot va jamiyat, inson va muhabbat, shoir taqdiri, hijron alamlari haqidagi teran falsafiy mushohadalar vazmin, salobatli vaznlar vositasida ifodalansa, mahbuba tavsifi, oshiqning ehtirosli kechinmalari yengilroq, jozibador ohangdagi baytlarda mujassamlantiriladi, vafo va sadoqat tantasi esa sho'x va


¹ Yo'ldoshev Q., Qodirov V., Yo'ldoshbekov J. Ko'rsatilgan manba. – 104-b.

² Yo'ldoshev Q., Qodirov V., Yo'ldoshbekov J. Ko'rsatilgan manba. – T.: O'zbekiston NMIU, 2019. – 89-b.

o‘ynoqi ritmga asoslangan misralarda tarannum qilinadi¹. Shuningdek, 9-sinfda Furqat qalamiga mansub turli vaznlarda yozilgan g‘azallari, musaddasi keltirilgan. Musaddas janri ushbu sinf darsligida ilk marta keladi. Quyi sinf (5–8-sinflar) darsliklarida musaddas janridagi she‘r keltirilmaydi. Bu esa o‘quvchining nazariy bilimini mustahkamlaydi.

Furqat ijodida mumtoz shoirlarimiz tomonidan ancha keng foydalanilgan hazaj bahri vaznlarining munosib o‘rin olgan. Ma‘lumki, hazaj nihoyatda xilma-xil ritm-ohang xususiyatlariga ega bo‘lgan o‘nlab vaznlarni o‘z ichiga oladi. Darslikda berilgan yengil va yoqimli ohangga ega bo‘lgan Furqatning *hazaji musammani ashtar* vazni ham shoirning ta‘biga xush kelgan ko‘rinadi. Ushbu vazn haqida A.Hojiahmedov hazaji musammani ashtar vazni ham she‘riyatimizda ancha keng qo‘llangan she‘riy o‘lchovlardan biri ekanligini ta‘kidlaydi. Shuningdek, “Rost”, “Segoh”, “Iroq” maqomlari taronalariga mos tushishini qayd etadi.

Hazaji musammani ashtar vazni *hazaj* bahriga tegishli bo‘lib, *mafoiylun* aslining birinchi va uchinchi ruknlarda ashtar tarmog‘i *mafoiylun* aslining birinchi va uchinchi ruknlarda ashtar tarmog‘i foilun (— V —)ga hamda ikkinchi va to‘rtinchi ruknlar esa solimi (V — — —)ga teng.



Bu o‘lchovdagi dastlabki she‘rlar Bobur ijodida uchraganligi va “Tut” radifli g‘azaligina shu vaznda yozilganligini o‘quvchilarga nazariy ma‘lumot o‘rnida aytib o‘tiladi. *Hazaji musammani ashtar* vazni haqida Alisher Navoiy “Mezon ul-avzon” asarida ma‘lumot

¹ Ходжаҳмедов А. Фурқат арузи / Фурқат ижодиёти. — Т.: Фан, 1990. — 83-б.

keltirilmaydi. Ushbu o‘lchov XVI asrga qadar turkiy adabiyotlarda, jumladan, o‘zbek shoirlari ijodida qo‘llanilmagan. Aynan Zahiriddin Muhammad Bobur “Aruz risolasi” orqali o‘zbek aruzi vaznlarini boyitdi. Zahiriddin Bobur “*Aruz risolasi*” asarida bu vaznni “*mustamali matbu*”, ya’ni yoqimli o‘lchovlar qatorida sanab, Jomiy va Hofizlar ijodiga murojaat qiladi hamda turkiy she’rga misol tariqasida o‘zining “Tut” radifli g‘azali baytlarini keltiradi. Bu Boburning ushbu o‘lchovda yozilgan yagona g‘azali edi. Furqat ham o‘zidan avvalgi an‘analarini davom ettirib *hazaji musammani ashtar* vaznining o‘lchov imkoniyatlaridan keng foydalangan.

Fas	li	nav	ba	ho-	r + o‘l	di	ke	ti	bon	zi	mis	ton	lar
—	V	—	V	—	—	—	—	V	—	V	—	—	—
Do’s	t(i)	lar	g‘a	ni	mat	dur	say	r+e	ting	gu	lis	ton	lar
—	V	—	V	—	—	—	—	V	—	V	—	—	—

Go‘zal tabiatning ilk bahor kunlaridagi ajoyib manzarasi naqadar jonli va hayotiy chizilgan bu misralarda! San’atkor shoir yuqoridagi vaznning ritm-ohang imkoniyatlaridan ana shunday mohirona foydalangan edi. Furqatning jami 6 g‘azali ushbu vazn vositasida yaratilgan.

She’r matnida ko‘p bo‘lmasa-da, o‘ta cho‘ziq hijolar va qo‘shib o‘qiladigan o‘rinlar mavjud. G‘azal quyidagicha o‘qiladi:

Fasli **navbaho-r+o‘ldi**, ketibon zimistonlar,

Do’st(i)lar, g‘animatdur, **say-r+eting** gulistonlar.

Subhidam tushub shabnam, bo‘ldi sabzalar xurram,
Gul uza tomib kam-kam, yog‘di abri naysonlar¹.

Nastaran² yuvib yuzni, yosumon³ tuzib o‘zni,

Nargi-s+ochibon ko‘zni intizori yoronlar.

¹ Ko‘klam buluti.

² Gul turi.

³ Jasmin – gul turi.

Bir sahar edim uyg' oq: o't tutoshdi olamg'a,
Tog'(i)lar chekib larza, titradi biyobonlar¹.

Qumrilar qilib ku-ku, **bulbu-l+aylabon** chah-chah,
Sarv-u gul uza doim **torta-r+ohu** afg'onlar.

Bulbu-l+o'qug'och yig'lab subhidam xazon faslin,
G'uncha qon yutub, yuz chok etti gul giribonlar.

Kechtilar vafo ahli qolmayin tutub savsan²,
Kiydi ko'k, qilib sunbul zulfini parishonlar,


Kuymasun bu savdoda ne uchun dimog'imkim,
Ranj-u g'ussada dono, kechsa **shod(i)** nodonlar³.

G'azaldagi

1) **shod** so'zi, **do'stlar**, **tog'lar** so'zlarining esa birinchi bo'g'ini o'ta cho'ziq hijo bo'lganligi uchun ular tarkibidagi unli cho'zib;

2) **navbaho-r+o'ldi**, **say-r+eting**, **nargi-s+ochibon**, **bulbu-l+aylabon**, **torta-r+ohu**, **bulbu-l+o'qug'och** so'zlarining qo'shib o'qilishi vazn taqozosidir.

“Surmadin ko'zlar qaro, qo'llar hinodin lolarang” deb boshlanuvchi g'azalni shoir *ramali musammani mahzuf* vazni asosida yaratgan. Binobarin, bu she'rni shu vaznga maxsus bo'lgan:



¹ Dasht, cho'l.

² Gulsafsar, qo'g'agul.


³ Yo'ldoshev Q., Qodirov V., Yo'ldoshbekov J. Ko'rsatilgan manba. – 115-b.

ruknlari va taqti'siga muvofiq o'qish lozim bo'ladi. G'azal quyidagi matla' bilan boshlanadi:

Sur	ma	din	ko'z	lar	qa	ro	qo'l	lar	xi	no	din	lo	la	rang
—	V	—	—	—	V	—	—	—	V	—	—	—	V	—
G'o	zi	din	yuz	lar	da	to	bu	o's	ma	din	qosh	lar	ta	rang ¹
—	V	—	—	—	V	—	—	—	V	—	—	—	V	—

O'qituvchi o'quvchilar bilan birgalikda g'azalni jadval holatida tahlil qilgach, qolgan misralarni ham shu tarzda tahlil qilish ishlarini davom ettiradi. Ushbu g'azalning 3-, 4-, 8-baytlarining birinchi misrasi *ramali musammani maqsur* (— V — — / — V — — / — V — — / — V ~) o'lchovida yozilganligini o'quvchilarga alohida ta'kidlash zarur. Ular keyinchalik g'azal baytlarini tahlil qilayotgan paytda bu narsaga alohida e'tibor berishlari lozim.

“Bormasmiz” radifli g'azal hazaji musammani solim vaznida yozilgan. Hazaji musammani solim (V — — — |V — — — |V — — — |V — — —) vazni she'riyatimizda musiqiy ohangni vujudga keltiruvchi o'lchov turlaridan biridir. Bu vazn asosini mafoiylun aslining solim tarmog'i tashkil qiladi. Ushbu vazn Alisher Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy”sida ancha keng qo'llanib, hazaj bahri vaznlari ichida birinchi o'rinni egallaydi. Uning ruknlari va taqtisi bir misrada:



kabidir.

↷
Bi-z+istig'no² eli, qichqirmog'on ma'vog'a bormasmiz,
 Agar chandiki³ xirman aylasa, dunyog'a bormasmiz.

¹ Yo'ldoshev Q., Qodirov V., Yo'ldoshbekov J. Ko'rsatilgan manba. — 119-b.

² Noz. Bu yerda tortinish, o'zni tortish ma'nolarida qo'llangan.

³ Shunchalar.

Agar labtashna qolsak filmasal¹ sahroyi olamda,

Malomat **zohi-r+etsa mav-j+uran** daryog'a bormasmiz.

Umid etgonimiz aksar saodat bo'tayi Haqdin²,
Agarchi mis erurmiz, qimmati tillog'a bormasmiz.

Hamisha lof urarmiz **xal-q+aro** Farg'ona mulkida,
Bag'oyat tab'imiz ozoda deb, har jog'a³ bormasmiz.

Havo loyig'a botqan moumanlik do'sti xudbinkim,
O'shandoq kam zarofat⁴ maskani adog'a⁵ bormasmiz.

Bi-z+ellar – faq-r+elimiz, parcha nong'a **sabr(i)** aylarmiz,

G'araz dunyo uchun **Iskanda-r+u** Dorog'a bormasmiz.

Emasdur oncha asbobi jahong'a fikrimiz Furqat,
Vale ketguncha juz⁶ andishai fardog'a bormasmiz⁷.

She'rdagi birgina o'ta cho'ziq bo'g'in bo'lib, u ham bo'lsa 6-baytdagi "**sabr**" so'zidir. Vazn talabi uni "**sabr(i)**" tarzida alohida-alohida bo'g'in qilib talaffuz etadi. G'azalda **bi-z+istig'no, zohi-r+etsa, mav-j+uran, xal-q+aro, bi-z+ellar, faq-r+elimiz, Iskanda-r+u** kabi qo'shib o'qiladigan o'rinlar mavjud.

9-sinfda Furqatning "*Sayding qo'yaber, sayyod, sayyora ekan mendek*" deb boshlanuvchi musaddasi keltiriladi. Musaddas janri darslikda ilk marta kelayotgani uchun o'qituvchi o'quvchilarga qisqacha nazariy ma'lumot berishi maqsadga muvofiq. Musaddas arabcha "oltilik" degan ma'noni ifodalaydi. Musaddaslar dastavval

¹ Masalan.

² Haqning sovg'asi.

³ Joy.

⁴ Bu yerda nopok ma'nosida.


⁵ Yovlar.

⁶ Bo'lak, qism.

⁷ Yo'ldoshev Q., Qodirov V., Yo'ldoshibekov J. Ko'rsatilgan manba. – 120-b.

turkiy (o‘zbek) adabiyotda Alisher Navoiy¹ ijodida qo‘llanilgan. Bu haqda “Adabiy turlar va janrlar” kitobida, “musaddasni qo‘llash Navoiydan boshlanadi, unda erkin ishq masalasi aks etdi”, – deb ta’kidlanadi². Alisher Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotidagi 5 ta musaddasdan bittasi tab’i xud musaddas bo‘lsa, qolgan barchasi tasdis shaklida bo‘lib, ulardan 2 tasi Lutfiyga, bittasi Husayniyga va bittasi shoirning o‘z g‘azaliga bog‘langan tasdisdir³.

Furqatning “*Sayding qo‘yaber, sayyod, sayyora ekan mendek*” musaddasi adabiyotimizdagi yoqimli o‘lchovlardan yana biri *hazaji musammani axrab* (— — V \V — — — \ — — V \V — — —) vaznida yaratilgan. Mazkur vazn birinchi va uchinchi ruknda *mafoiylun* aslining *axrab* tarmog‘idan, ikkinchi va to‘rtinchi ruknlarda *solimning* ketma-ket takrorlanib kelishidan hosil bo‘ladi va quyidagi manzara yuzaga keladi:



Ushbu o‘lchovda “Shashmaqom”ning “Buzruk”, “Dugoh”, “Segoh”, “Iroq” maqomlari taronalari yozilgan she’rlar bastalangan. Alisher Navoiy “Mezon ul- avzon”da hazaj bahrining yoqimli vaznlari qatorida *hazaji musammani axrab* o‘lchovini ham sanab o‘tib, unga:

To ko‘z bilan ko‘nglumni ul g‘amza maqom etmish,
Qonimni halol aylab, uyqumni harom etmish

¹ Qarang: Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик. 2-жилд. Лирика. – Т.: Фан; D.Yusupova. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetikaga kirish. – Т.: Ta’lim-Media, 2019.

² Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик. 2-жилд. Лирика. – Т.: Фан, 1992. – 222-б.

³ Yusupova D. Aruz va mumtoz poetikaga kirish. – Т.: Akademnashr, 2020. – 18-б.

baytini misol qilib keltiradi”.

“Sayding qo‘yaber, sayyod, sayyora ekan mendek” musaddasining birinchi bandini quyidagicha vaznga moslab o‘qish mumkin:

Sayding ¹ qo‘	yaber, sayyod ² ,	sayyora	ekan mendek,
— — V	V — — —	— — V	V — — —
Ol domi	ni ³ bo‘ynidin,	bechora	ekan mendek,
— — V	V — — —	— — V	V — — —
O‘z yori	ni topmasdan	ovora	ekan mendek,
— — V	V — — —	— — V	V — — —
Iqboli	nigun ⁴ , baxti	ham qora	ekan mendek,
— — V	V — — —	— — V	V — — —
Hijron o‘	qidin jismi	ko‘p yora	ekan mendek,
— — V	V — — —	— — V	V — — —
Kuygan ji	gari-bag‘ri	sadpora	ekan mendek ⁵ .
— — V	V — — —	— — V	V — — —

Musaddas oson o‘qiladi, unda cho‘zib yoki alohida bo‘g‘in qilib talaffuz etiladigan so‘zlar deyarli uchramaydi. Faqat musaddasning 3-, 4-, 5-bandlaridagi qofiya va radiflar vazn talabi bilan qo‘shib o‘qiladi.

Furqatning keyingi “Kashmirda” g‘azali ham ramali musammani mahzuf (— V — — / — V — — / — V — — / — V — —) vazni asosida bitilgan. Bu g‘azalda ham ifodali o‘qish chog‘ida e‘tibor qilinadigan ko‘pgina misralar mavjud:

foilotun — V — —	foilotun — V — —	foilotun — V — —	foilon — V —
Bir qamar siy Ko‘zlari mas’ Zarra-zarra Subh(i) kelgach,	moni ko‘rdim hur-u ³ yuz jo zar sochar bo kecha yotib	baldai Kash du erur tas shig‘a har kun chashmai ik	mir(i)da, xir(i)da ⁴ . of(i)tob, sir(i)da ⁵ .

¹ Ov.

² Ovchi.

³ Tuzoq.

⁴ Egilgan, bukilgan.

⁵ Yo‘ldoshev Q., Qodirov V., Yo‘ldoshibekov J. Ko‘rsatilgan manba. — 121-b.

Bir ko'rib cho Chohi Bobil Lam'ayi ¹ quy Tez(i) lik jav Qoshi uzra "Surayi Nun"	hi zaqan Ho ichra qolmish g'och(i) ko'zi harlari gar xolining as o'qudum pay	rut ila Mo lar bo'lak tad din aning bar bo'lsa har sham roridin bir vasta har taf	rut ⁶ ikov, bir(i)da . qi nigoh, shir(i)da . nuqtadur, sir(i)da .
Fori-g'+ermas Zulfiga dil	hech(i) kim ul bastalig' har	dilraboning bir juvon-u	ishqidin, pir(i)da ⁷ .
Aydi-m:+Ey , jon Aytdi: "Bu sav "Nuqta lab us " Sahv(i) ² qilmish Aydi: "Ey be Man dedim: "G'ur	ofati, zul doni qo'y, um tida bejo kotibi qud chora, qilding batda Furqat	fingga bo'lmish ring o'tar zan dur", - dedim, ay rat magar tah na uchun tar bor ekan taq	man asir!" jir(i)da! " di kulib: rir(i)da ". ki vatan?" dir(i)da! ⁸

Bu g'azalda qofiya uchun qo'llanilgan **Kashmir, tasxir, iksir, tadbir, shamshir, tafsir, zanjir, tahrir, taqdir** so'zlari vazn talabi bilan uch, faqat **pir** ikki hijoga teng hisoblanadi. Shunda bu so'zlarni talaffuz qilganda cho'zib, bilinar-bilinmas "i" orttirib aytiladi: **Kashmir(i), tasxir(i), Iksir(i), tadbir(i), shamshir(i), tafsir(i), zanjir(i), tahrir(i), taqdir(i), pir(i)** tarzida. Shuningdek, **subh, quyg'och, tezlik, hech, sahv** so'zlarida ham bitta "i" unlisi talaffuzda orttiriladi. **Fori-g'+ermas, Aydi-m:+Ey** so'zlari esa talaffuzda vazn talabi bilan qo'shib o'qiladi.

9-sinf "Adabiyot" darsligi orqali o'quvchilar hazajning ikki vazni hazaji musammani ashtar hamda hazaji musammani axrab vazni bilan yaqindan tanishadilar. Musaddasning ham janr xususiyatlarini o'rganishadi.

³ Joduli.

⁴ Zabt etish, qo'lga olish.

⁵ Jannatdagi bir buloq.

¹ Porlagan nur.

² Xato.

⁶ Horut va Morut - rivoyatga ko'ra ko'kdan ingan farishtalar bo'lib, gunohlari uchun Bobil qudug'iga tashlanganlar.

⁷ Yosh-u qari.


⁸ Yo'ldoshev Q., Qodirov V., Yo'ldoshibekov J. Ko'rsatilgan manba. - 123-124-b.

10-SINF “ADABIYOT” DARSLIGIDA KELTIRILGAN JANRLARDA VAZN VA MAVZU

10-sinfda o‘zbek aruzi taraqqiyot yo‘llari va xususiyatlarini o‘rganish ishlari davom ettiriladi. O‘quvchilarga Atoyi, Alisher Navoiy ijodining o‘zbek aruzi kamolidagi ahamiyati; Zahiriddin Bobur, Turdi Farog‘iy she‘riyatini o‘qish va tahlil etish jarayonida xilma-xil yangi she‘riy o‘lchovlar xususiyatlari tanishtiriladi.

Ahmad Yassaviyning bu sinfda o‘rganiladigan “Devoni hikmat” asaridan tanlangan parcha barmoq vaznida yozilgani uchun uni o‘qish oson.

Atoyi g‘azallari xilma-xil musiqiy vaznlar asosida yaratilgan. “*Ul sanamkim suv yaqosinda paritek o‘lturur*” deb boshlanuvchi g‘azali ramali musammani mahzuf vaznida bitilgan bo‘lib, ruknlari va taqti’si har misrada



singaridir. G‘azalning matla’ baytini quyidagi jadval asosida vaznga mosligini ko‘ramiz:

Ul sanamkim,	suv yaqosin	da paritek	o‘lturur,
— V — —	— V — —	— V — —	— V —
G‘oyati no	zuklugindin	suv bila yut-	sa bo‘lur.
— V — —	— V — —	— V — —	— V —

Ramali musammani mahzuf vaznining ritmik imkoniyati yorvasfi, uning go‘zalligi ta‘rifiga mos keladi. Matla’ baytdagi cho‘ziq va qisqa hijolarning bu xil takrori juda yoqimli ohang yaratadi. Keltirilgan baytda noziknihol qiz tasvir etilayotganiga shubha yo‘q. She‘rda ma‘shuqa shu qadar nozik, shunchalar go‘zal qiz sifatida

tasvirlanadiki, go‘yo uni bir qoshiq suv bilan yutib yuborish mumkinday¹. Shoir Atoyi xalq iboralarini g‘oyat yaxshi biladi va undan g‘azallarida o‘rinli foydalana oladi. Keltirilgan g‘azalning matla’sida ham bu hol yorqin namoyon bo‘ladi. G‘azalning ayrim o‘rinlarida vazn talabi bilan cho‘zib, qo‘shib o‘qilishi lozim bo‘lgan o‘ta cho‘ziq hijolar uchraydi. She‘r quyidagi tartibda ifodali o‘qiladi.

Ul sanamkim, suv yaqosinda paritek o‘lturur,
G‘oyati nozuklugindin suv bila yutsa bo‘lur.

To magarkim, salsabil obina javloni qila,
Keldi jannat ravzasindin obi kavsar sori hur.

Ul ilikkim **suvdi-n+oriqtur**, yu(v)mas oni suda,
Balki suvni **pok(i)** bo‘lsun deb iliki birla yur.

Emdi bildim **rost(i)** ermish, balki ko‘rdum ko‘z bila,
Ulki derlar, suv qizi gah-**goh(i)** ko‘zga ko‘runur.

Qoshlaring yosin Atoyi ko‘rgali **hus-n+ichra** toq,
Subhidam **mehrob(i)**larda surayi “yosin” o‘qur².

G‘azaldagi

1) **pok, rost, goh** so‘zlari, **mehrob** so‘zining ikkinchi bo‘g‘ini o‘ta cho‘ziq, shunga ko‘ra ular **pok(i), rost(i), goh(i), mehrob(i)** singari talaffuz qilinadi.

2) **suvdin oriqtur, husn ichra** so‘zlari esa vazn talabi bilan qo‘shib o‘qiladi.

Atoyining navbatdagi “Jamoling vasfini qildim chamanda” deb boshlanuvchi g‘azali *hazaji musaddasi mahzuf* o‘lchovida yozilgan.

mafoiylun V — — —	mafoiylun V — — —	fauvlun V — —
Jamoling vas	fini qildim	chamanda,
Qizordi gul	uyottin an	jumanda.

¹ To‘xliyev B. va boshq. Adabiyot. 10-sinf uchun darslik. 1-qism. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. – 62-b.

² To‘xliyev B. va boshq. Ko‘rsatilgan manba. 2017. – 59-b.

3 qisqa va 8 cho‘ziq hijoning shu tarzidagi takrori yoqimli va musiqiy ohangni hosil qiladi. Odatda, aruz ilmi qoidalariga ko‘ra g‘azal matla’si va juft misralar asosiy vaznda yozilgani holda, toq misralar qo‘shimcha (shu vaznga yaqin) o‘lchovda bitilishi mumkin. Ushbu g‘azalning ham 5-bayt birinchi misrasi *hazaji musaddasi maqsur*da yaratilgan. Hazaji musaddasi maqsur vazni hazaji musaddasi mahzufdan oxirgi hijoning o‘ta cho‘ziqligi bilan farq qiladi. Quyida 5-baytni jadval asosida keltiramiz:

Solib borma	meni, ey Yu	sufi husn,
V — — — —	V — — — —	V — ~
Hazaji musaddasi maqsur		
Bu kun Ya‘qu	b(i)tek baytul-	hazanda.
V — — — —	V — — — —	V — —
Hazaji musaddasi mahzuf		

G‘azal yengil va oson talaffuz etiladi. Chunki 5-baytdagi **Ya‘qub** so‘zi tarkibidagi “u” cho‘ziq unlisi bilan, **husn** so‘zi esa qator undoshi bilan ifodalangani uchun o‘ta cho‘ziq hijoni keltirib chiqargan. Talaffuzda hijolarning qisqa, cho‘ziq va o‘ta cho‘ziqligi vaznga muvofiq o‘qilishida ko‘rinadi. 6-baytda esa **sochingdin uzmasmen** so‘zlarini vaznga mos qo‘shib o‘qiladi.

Jamoling vasfini qildim chamanda,
Qizordi gul uyottin anjumanda.

Tamanno qilg‘ali la‘lingni ko‘nglum,
Kishi bilmas anikim, qoldi qanda.

Chu jonimdin aziz jonona sensen,
Kerakmas jon manga sensiz badanda.


Mango ul dunyoda jannat ne hojat,
Eshiking tuprog‘i basdur kafanda.

Solib borma meni, ey Yusufi **husn**,
Bukun **Ya‘qub(i)tek** baytul-hazanda.

Uzun **sochingdi-n+uzmasmen** ko‘ngulni,
Ayog‘ing qanda bo‘lsa, boshim anda.

Tilar el mansabi oliy, valekin
 Atoyi sarvi ozodimgg'a banda.

Shoirning "Manga, ey do'st" radifli g'azali *hazaji musammani axrabi makfufi maqsur* o'lchovida bitilgan. Bir misrada ruknlari va taqti'si quyidagicha:



She'r boshdan oxirigacha do'stga murojaat tarzida davom etadi. Shuni ta'kidlash kerakki, *hazaji musammani axrabi makfufi maqsur*da o'zbek adabiyotida she'rlar ancha kam bitilgan. Atoyining ham faqat 2 ta g'azali ushbu vaznda yozilgan. Mazkur vazn o'quvchilar uchun yangilik hisoblanadi. Chunki oldingi sinflarda *hazaji musammani axrabi makfufi maqsur* o'lchovida yaratilgan mumtoz adabiyot namunalari uchramagan. Shuning uchun ushbu vazn haqida o'qituvchi tomonidan qisqa nazariy ma'lumot berilishi zarur. Mazkur bahr *mafoiylun* asliy rukni takrorlangani uchun *hazaj* deb atalishi, *maf'uvlu*, *mafoiylu*, *fauvlun* ruknlari esa *mafoiylun*ning o'zgarishlarga uchragan tarmoqlari bo'lib, *axrab*, *makfuf*, *mahzuf* nomlari bilan atalishi ta'kidlanadi. Demak, *hazaji musammani axrabi makfufi maqsur* vazni *mafoiylun* aslining 1-ruknda *axrab* tarmog'i *maf'uvlu* (— — V), 2- va 3-ruknlarda *makfuf* tarmog'i *mafoiylu* (V — — V) hamda 4-ruknda *mahzuf* tarmog'i *mafoiyl* (V — ~)dan tashkil topadi. So'ng g'azalni ushbu o'lchov ohangida o'qish kerakligi eslatiladi.

Sensiz bu	jahon ayshi	alamdur ma	nga, ey do'st,
— — V	V — — V	V — — V	V — ~
Shodlig'i	ham mehna	tu g'amdur ma	nga, ey do'st,
— — V	— — V	V — — V	V — ~

Lutf-u ka — — V	ramingni se- V — — V	$\overset{\curvearrowright}{n}$ +agar mendi- V — — V	$\overset{\curvearrowright}{n}$ +ayosang, V — —
Javr-u si — — V	taming lutf-u V — — V	karamdur ma V — — V	nga, ey do‘st, V — ~
Diydo- $\overset{\curvearrowright}{r}$ i — — V	la qoni‘ e V — — V	ma-s+ $\overset{\curvearrowright}{erdim}$ e V — — V	sa, hajring V — —
Bisyor(i) — — V	jafo ayla- V — — V	di,kamdur ma V — — V	nga, ey do‘st, V — ~
Ko‘nglum yu — — V	zini $\overset{\curvearrowright}{jav-r}$ i V — — V	la chun sendi- V — — V	$\overset{\curvearrowright}{n}$ +uyurmen, V — ~
Oxir ne — — V	cha bu javru V — — V	sitamdur ma V — — V	nga, ey do‘st, V — ~
Odamg‘a — — V	seni o‘xsha V — — V	ta bilmonki, V — — V	parisen, V — —
Nortek ya — — V	noqing bog‘i V — — V	Eramdur ma V — — V	nga, ey do‘st, V — ~
Qo‘y qissa — — V	yi Jamshid(i) V — — V	ni Jomi i V — — V	likindin, V — —
Gar bo‘lsa — — V	dame mulka V — — V	ti jamdur ma V — — V	nga, ey do‘st, V — ~
Og‘zingg‘a — — V	fido jon, ki V — — V	tabassum qi V — — V	lib aytur: V — —
“Har lahza, — — V	Atoyi, ne V — — V	adamdur ma V — — V	nga, ey do‘st” ¹ . V — ~

Jadvalda ma‘lum bo‘lganidek, g‘azalning toq misralari yuqoridagi vaznga yaqin turuvchi hazaji musammani axrabi makfufi mahzufda bitilgan. Mazkur vazn hazaji musammani axrabi makfufi maqsurdan oxirgi hijoning cho‘ziqligi bilan farq qiladi.

¹ To‘xliyev B. va boshq. Adabiyot. 10-sinf uchun darslik. 1-qism. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. – 60-61-b.

Hazaji musammani
axrabi makfufi maqsur
vazni mafoiylun
astining 1-ruknda
axrab tarmog'i
maf'uvlu (— V), 2- va
3-ruknlarda makfuf
tarmog'i **mafoiylu** (V—
— V) hamda 4-ruknda
maqsur tarmog'i
mafoiyl (V — ~)dan
tashkil topadi.

Har
ikkala
vazn
hazaj
bahriga
tegishli


Hazaji musammani
axrabi makfufi mahzuf
vazni mafoiylun
astining 1-ruknda
axrab tarmog'i
maf'uvlu (— V), 2-
va 3-ruknlarda makfuf
tarmog'i **mafoiylu** (V—
— V) hamda 4-
ruknda mahzuf
tarmog'i **fauvlun** (V
— ~)dan tashkil topadi.

E'tibor berilsa, g'azalning 1-bayt 2-misrasi har ikki vazn qoidalariga tushmagan va tahlil jarayonida quyidagi manzara paydo bo'ladi:

— — V	V — — V	V — — V	V — ~
— — V	V — — V	V — — V	V — ~

Bir qaraganda, *hazaji musammani axrabi makfufi maqsur* vaznidagi baytga o'xshaydi. Lekin ikkinchi misradagi ikkinchi rukn nega makfuf (V — — V) emas? Rukn nega axrab (maf'uvlu)? U makfuf bo'lishi kerak emasmi? Ha, bu rukn makfuf bo'lishi kerak edi. Shu sababli biz Sayfiddin Sayfulloh tomonidan 2008-yilda "Fan" nashriyotida nashr qilingan Atoyining "Devon"iga murojaat qildik¹.

"Devon"da g'azal matla'sidagi "shodlig'i" so'zi aslida "shodilig'i" tarzida yozilganligining guvohi bo'ldik. Quyida asl matni keltiramiz:



¹ Qarang: Атойти. Девон. — Т.: Фан, 2008. — 8-б.

Gʻazalni vaznga moslab ifodali oʻqishda har bir soʻzning, ayniqsa, tovushlarning (unli, undosh) ahamiyati va oʻrni katta. Shuningdek, sheʼrda choʻzib, qoʻshib oʻqiladigan oʻrinlar talaygina.

Oʻquv dasturida Alisher Navoiyning “Koʻzing ne balo qaro boʻlubtur...”, “Meni men istagan...”, “Ey sabo...” deb boshlanuvchi gʻazal, qitʼa va ruboiylarini oʻrganish rejalashtirilgan¹. Bu mumtoz janrlarni oʻqish va tahlil qilish jarayonida oʻquvchilar mutafakkir shoirning oʻz gʻazal, qitʼa va ruboiylari vazni ustida ishlash mahoratining yangi qirralari bilan tanishadilar. Oʻqituvchining gʻazalni oʻqishdan oldin uning vazni haqida maʼlumot berishi, ruknlarni tanishtirishi, keyin oʻzi namuna uchun oʻqib koʻrsatishi qaytar aloqani taʼminlashga xizmat qiladi.

Alisher Navoiyning “Koʻzing ne balo qaro boʻlubtur...” gʻazali hazaj bahrining *hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf* (ruknlari va taqtiʼsi: mafʼuvlu/ mafoilun/ fauvlun — V/ V — V —/ V — —) vazni asosida yozilganligi uning ana shu oʻlchovga va ohang qolipiga muvofiq oʻqilishini talab etadi.

Mafʼuvlu — — V	Mafoilun V — V —	Fauvlun V — —
Koʻzing ne Kim, jongʻa Majmuʼi Dardingki, ↪ Ish-q-ichra Har jonki, Begona Begona To qildi Yuz sari	balo qaro qaro balo davoni dar- manga davo oning fido sango fido boʻlubtur o- gʻa osh(i)no yuzing havo- anga havo ↪ -pa-r+ulki boʻl baqo fano Navoyi o-	boʻlubtur, boʻlubtur. d(i) qildi, boʻlubtur. -si yuz jon , boʻlubtur. sh(i)nodin , boʻlubtur. -si jonim, boʻlubtur.
Boqiy to Rahragʻa To tuzdi ↪ Ish-q+ahli	aro navo	-di fido, boʻlubtur. -yati ishq , boʻlubtur.

¹ Toʻxliyev B. va boshq. Koʻrsatilgan manba. —T.: “Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2017.

Demak, gʻazalni ifodali oʻqish uchun misralarni yuqoridagicha ruknlarga ajratib, vaznga mos oʻqiladi. 4 qisqa va 6 choʻziq hijoning bu xildagi takrori yoqimli, ayni chogʻda musiqiy ohang yaratadi. Gʻazal matnidagi **dard**, **oshno**, **ishq** soʻzlari oʻta choʻziq hijodan tashkil topgan boʻlib, ularning undoshlari alohida qisqa boʻgʻin (**dard(i)**, **osh(i)no**, **ishq(i)**) singari oʻqiladi. 5-, 11-, 14- misralarda soʻzlarning boʻgʻinlarini qoʻshib oʻqish ham talab qilinadi. Shuningdek gʻazalning 3-bayti 1-misrasi, 7-bayti 1-misrasi *hazaji musaddasi axrabi maqbuzi maqsur* vaznida bitilgan.

Shoirning “Meni men istagan...” deb boshlanuvchi gʻazali sheʼriyatimizda keng tarqalgan *hazaji musammani solim* vaznida yozilgan. Sheʼrni ifodali oʻqishda yuqoridagidek oʻta choʻziq hijolar hamda qoʻshib oʻqiladigan oʻrinlarga alohida diqqat qilish lozim. Gʻazal quyidagicha oʻqiladi:

mafoiylun V — — —	mafoiylun V — — —	mafoiylun V — — —	mafoiylun V — — —
Meni men is-	tagan oʻz suh-	batigʻa ar-	juman-d+etmas,
Meni istar	kishining suh-	batinkoʻnglum	pisan-d+etmas.
Ne bahra top-	qamen andin-	ki, mendin is-	tagay bahra,
Chu ulkim, bah-	rayi andin	tilarmen bah-	raman-d+etmas.
Netay hur-u	pari bazmin-	ki qatlim yo	hayotimgʻa,
Ayon ul zah-	r(i)chashm+aylab,	nihon bu noʻ	sh(i)xand+etmas.
Kerakmas oy	ila kun shak-	likim husn-u	malohatda,
Ichim ul cho-	k(i)-cho-k+etmas,	tanim bu ban-	d(i)-band+etmas.
Kerak oʻz cho-	buki qotil-	vashi Majnun-	shiorimkim,
Buzugʻkoʻnglum-	di-n+oʻzga yer-	da javloni	saman-d+etmas.
Koʻngul oʻz char-	x(i) zolidin	firibin ye-	makim oxir,
Ajal sarish-	tasidin oʻz-	ga boʻyunungʻa	kaman-d+etmas.
U-l+oy oʻtlugʻ	yuzin ochsa,	Navoiy teg-	masin deb koʻz,
Muhabbat tuh	midin oʻzga	u-l+oʻt uzra	sipand+etmas¹.

¹ Toʻxliyev B. va boshq. Koʻrsatilgan manba. — T.: “Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. — 84-b.

Ifodali o'qish texnikasi barcha ruknlarga mos kelgan so'zlarni *mafoiylun* o'lchovida talaffuz qilishni taqozo qiladi. Ayni vaqtda qo'llanilgan **chok-chok** so'zlari bo'g'ini o'ta cho'ziq bo'lib, ular tarkibidagi unililar cho'zib talaffuz etilishi, **zahr, band, charx** so'zlari qo'sh undosh bilan tugallangan bo'g'inlarning oxirgi undoshi alohida, qisqa hijo tarzida talaffuz qilinishi zarur. Shuningdek, g'azal vazni qofiyadosh so'zlarning oxirgi bo'g'inlari o'ta cho'ziq hijo bo'lganligi sababli ular tarkibidagi unilarni cho'zib, bir qator o'rinlardagi so'zlar esa **arjumand etmas, pisand etmas, bahramand etmas, chashm aylab, no'shxand etmas, chok-chok etmas, band-band etmas, ko'nglumdin o'zga, samand etmas, kamand etmas, ul oy, ul o't, sipand etmas** singari qo'shib o'qiladi. Agar bu so'zlar vazn talabi bilan qo'shib o'qilmasa, quyidagi holat yuzaga keladi. Buni birinchi bayt misolida quyidagicha tahlil qilish mumkin:

Me	ni	men	is	ta	gan	o'z	suh	ba	ti	g'a	ar	ju	mand(i)	et	mas
V	—	—	—	V	—	—	—	V	—	—	—	V	—	V	—
Me	ni	is	tar	ki	shi	ning	suh	ba	tin	ko'ng	lim	pi	sand(i)	et	mas
V	—	—	—	V	—	—	—	V	—	—	—	V	—	V	—

Ushbu bayt hijolari cho'ziq va qisqaga ajratilganda **arjumand** va **pisand** so'zlari o'ta cho'ziq hijo deb qabul qilinganligi uchun yuqorida o'rganilgan qoida asosida **arjumand*i*** hamda **pisand*i*** deb o'qilishi va shunga mos tarzda o'ta cho'ziq qilib belgilanishi kerak. Lekin bu tarzda belgilansa, to'rtinchi ruknda ikkita qisqa bo'g'in bo'lib qoladi va ruknlar orasidagi mutanosiblikka putur yetadi. Shu sababli **arjumand** va **pisand** so'zlarini o'zidan keyin kelayotgan **etmas** so'ziga qo'shib o'qiladi. Demak, vaznni saqlash uchun **zahr, band, charx** so'zlarini cho'zib, **arjumand etmas, pisand etmas, bahramand etmas, chashm aylab, no'shnand etmas, chok-chok etmas, band-band etmas, ko'nglumdin o'zga, samand etmas, kamand etmas, ul oy, ul o't, sipand etmas** so'zlarini esa qo'shib o'qish shart.

G'azalda tanlangan sokin ohang shoir ifodalayotgan falsafiy-didaktik qarashlarni ta'sirchan shaklda o'quvchi ongiga yetkazishga

yordam berganini she'r tahlili davomida ta'kidlab o'tish maqsadga muvofiqdir.

Shoirning "Ey sabo..." deb boshlanuvchi g'azali *ramali musammani maqsur* (ruknlari va taqti'si: Foilotun/ foilotun/ foilotun/ foilon — V — —/ — V — —/ — V — —/ — V ~) vaznida yozilgan. Mazkur vazn haqida oldingi sinflarda nazariy ma'lumot berilganligi sababli, qisqa takrorlash bilan cheklanishi mumkin. G'azalning vaznini aniqlashni esa o'quvchining o'ziga qoldiriladi. G'azalning toq misralari esa shu vaznga yaqin turuvchi *ramali musammani mahzuf* (ruknlari va taqti'si: Foilotun/ foilotun/ foilotun/ foilon — V — —/ — V — —/ — V — —/ — V —) o'lchovida bitilgan. Masalan, bu holatni 2-bayt misolida quyidagicha ko'rsatish o'quvchi tasavvurini yanada aniqlashtiradi:

Buki aning	ahd-u paymo-	nida men o'l-	sam dag'i,
— V — —	— V — —	— V — —	— V —
Yaxshi fursat	topsa-ng+ul bad	ahd-u paymo-	ning'a ayt ¹ .
— V — —	— V — —	— V — —	— V ~

Keltirilgan baytning birinchi misrasi *ramali musammani mahzuf*da, ikkinchisi esa *ramali musammani maqsur* vaznidadir. Bu holat g'azalning qolgan baytlarida ham kuzatiladi. Darslikda Alisher Navoiyning 3 ta g'azali keltirilgan. Ular aruz tizimining ramal, hazaj bahri vaznlarida yozilgan. G'azallar uchun tanlangan mavzular bir-birini takrorlamaydi.

Darslikdan shoir qit'alari ham o'rin olgan. Ular ham xilma-xil vaznda yaratilgan. Mumtoz adabiyotda shunday janrlar borki, ular maxsus qat'iy belgilangan vaznlarda yoziladi. Masalan, mustazod, ruboiy, tuyuq janrlari kabi. Biroq mumtoz adabiyotda qit'a uchun maxsus vazn belgilanmagan. Bu jihatdan qit'a erkindir². Avvalgi sinflarda qit'a janrining namunalari berilmaganligi sababli o'qituvchi bu haqda ma'lumot berishi kerak. Qit'a arabcha so'z bo'lib, "parcha", "bo'lak", "qism" degan ma'nolarni anglatadi. Qit'a

¹ To'xliyev B. va boshq. Ko'rsatilgan manba. —T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. — 89-b.

² Раҳмонова Ш. XX аср иккинчи ярми ўзбек шеърлятида арузнинг поэтик шакл ва вазн такомилдаги ўрни. Ф.ф.д. (PhD) автореф. — Т.: 2020. — 18-б.

haqida ilk nazariy qarash Shayx Ahmad Taroziyning “Funun ul-balog‘a” asarida keltirilgan. Asarda “Qit‘a uldurkim, avvalgi misra‘inda qofiya bo‘lmas. Va aqalli ikki bayt bo‘lur. Va muning ham aksari muqarrar ermas. Har necha kim qofiya tobsalar ayturlar, – deb ta‘rif beriladi¹. Aruzshunoslikda turkiy adabiyotda qit‘aning ilk namunalari Nosiruddin Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” asarida uchrashi haqida ma‘lumotlar bor. Ma‘lumki, qit‘a Sharq adabiyotida keng tarqalgan bo‘lib, bu janrda, odatda, ixcham ijtimoiy-falsafiy fikrlar bayon etiladi.

Alisher Navoiy ham teran ma‘nolar jamlanmasi bilan qit‘a janrini bir pog‘ona ulug‘vor qilgan edi. Shoirning “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotida 210 ta (“G‘aroyib us-sig‘ar”, “Navodir ush-shabob” va “Favoyid ul-kibar”da 50 tadan, “Badoye’ ul-vasat”da 60 ta), “Devoni Foniy”da 64 ta, “Arbain”da 40 ta va boshqa nasriy asarlari tarkibida yana o‘nlab qit‘alar mavjud. Kulliyotdagi qit‘alarda ularning g‘oyasini ifodalovchi sarlavhalar qo‘yilgan. “Navoiy qit‘alari ichida ungacha bo‘lgan qit‘achilikda bir xususiyat-tajnisli so‘zlarni qit‘a baytlarida qofiya sifatida ishlatish deyarli uchramaydi. Alisher Navoiy qit‘alari yuksak ma‘nodorligi, falsafiyliги bilangina emas, badiiy tomondan mukammalligi bilan ham ajralib turadi”².

Daslab Alisher Navoiyning “*Haq taolo xoni in‘omi-yu karami omi borida o‘zgin nima tilagonning tamayi xomi-yu zoti nofarjomi*” deb nomlangan qit‘asi keladi. Qit‘aning mohiyatida ayrim bandalarning noshukurligi hamda behuda ta‘magirligi haqidagi qarashlar mavjud. Darslikda qit‘alarning mazmun jihatidan tahliliga ancha batafsil to‘xtalib o‘tilgan, lekin ularning vazn xususiyatlari haqida ma‘lumotlar kiritilmagan. Yuqorida qit‘alarning vazni erkinligi aytib o‘tilgan edi. Qit‘ani ifodali o‘qishi uchun o‘quvchi uning vaznini bilishi kerak. Shunday ekan, berilgan qit‘alarning vazn o‘lchovlarini ko‘rib chiqsak. Qit‘aning to‘liq matnini keltiramiz.

¹ Шайх Ахмад Тарозий. Фунун-ул балога. Нашрга тайёрловчи А.Хайитметов.— Т.: Хазина, 1996. — 124-б.

² Орзибеков Р. Лирикада кичик жанрлар. — Т.: Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1976. — 26-б.

Tengri xonin ochuq aqida qilib,

Xalqdin ro'ziy istagan gumroh.

Uyladurkim tengiz qirog'inda,

Ro'za ochmoqqa kimsa qozg'oy choh

Darslikda berilgan dastlabki “Tengri xonin ochuq aqida qilib” deb boshlanuvchi qit’a ikki asliy rukn (foilotun va mustaf’ilun) larning birikuvidan hosil bo’lgan *xafif* bahri vaznlarida yozilgan. Oldingi sinflarda *xafif* bahrida yozilgan mumtoz adabiyot namunalari uchramagan edi. Shuning uchun *xafif* bahri haqida batafsil ma’lumot berish zarurligini ta’kidlash joiz. *Xafif* so’zi arabcha “yengil” degan ma’noni bildiradi. O’zbek she’riyatida dastlab Alisher Navoiy *xafif* bahrining 5 ta o’lchovi haqida “Mezon ul-avzon”da ma’lumotlar uchraydi. Keyinchalik Zahiriddin Bobur o’zining “Aruz risolasi”da mazkur bahrning 22 vazni borligiga to’xtalib, “to’qqiztasi musta’mal, o’n uchtasi muxtara’, uch vazn musta’mali matbu” ekanligini ta’kidlaydi¹.

Xafif bahri vaznlari o’zbek she’riyatida kam uchraydi. Buning sabablardan biri mazkur bahr ko’proq epik poeziyada, ya’ni dostonlarda keng qo’llanilgan. Adabiyot tarixida ko’plab falsafiy-ta’limiy ruhdagi dostonlar, Alisher Navoiy “Xamsa”sining to’rtinchi dostoni “Sab’ai sayyor” yoki umuman “Bahromnoma”larning barchasi ushbu bahr vaznlarida yozilganligi uning lirikadan ko’ra ko’proq epik she’riyatda qo’llanilishiga olib keldi. Shuning uchun ham shoirlar tomonidan ushbu bahr vaznlarida u qadar ko’p she’r yozilmagan.

¹ Захириддин Бобур. Мухтасар. Нашрга тайёрловчи С.Хасан. – Т.: Фан, 1971. – 196-б.

Turkiy she'riyatda xafif bahringing, asosan, musaddas ruknli vaznlari uchraydi¹. Mazkur bahrga xos muhim xususiyatlardan biri ko'pvaznlik bo'lib, birinchi rukn foilotun (— V —) yoki failotun (V V —) va uchinchi rukn failun (V V —), failon (V V ~), fa'lun (— —), fa'lon (— ~) tarzida bir she'riy asarda o'zaro almashinib qo'llanaveradi. Bunday holat esa bir she'rning bir necha vaznda yozilish imkoniga ega bo'lishini ta'minlaydi. Keltirilgan qit'a ham xafif bahriga tegishli 3 ta vaznda yaratilgan. O'qituvchi, avvalo, qit'a vazni haqida ma'lumot berib, unda istifoda etilgan vaznlarning ruknlari, ohang imkoniyatlari bilan tanishtirgach, matnni namuna uchun o'qib beradi. Bu jarayonda esa qit'adagi oxirgi ruknlarning xilma-xil vaznlarda ekanligiga, shuningdek, qator misralarda o'ta cho'ziq hijolar, qo'shib o'qiladigan bo'g'inlar mavjudligiga o'quvchilar diqqatini jalb qiladi. Dastlab, har bir misra rukn va hijolarga bo'linib, natijada qit'aning vaznlarini aniqlash imkoniyati yaratiladi:

Tengri xonin	ochuq aqi	da qilib
— V — —	V — V —	V V —
<i>xafifi musaddasi maxbuni mahzuf</i>		
Xalq(i)din ro'	zi-y+istagan	gumroh.
— V — —	V — V —	— ~
<i>xafifi musaddasi maxbuni maqtu'i musabbag'</i>		
Uyladurkim	tengiz qiro-	g'inda,
— V — —	V — V —	— —
<i>xafifi musaddasi maxbuni maqtu'</i>		
Ro'za ochmoq	qa kimsa qoz-	g'oy choh ² .
— V — —	V — V —	— ~
<i>xafifi musaddasi maxbuni maqtu'i musabbag'</i>		

Tahlillardan:

1-misra – xafifi musaddasi maxbuni mahzuf;

¹ Bu haqida to'liqroq ma'lumot olish uchun qarang: Xojiyaxmedov A. Ўзбек арузи дугаги. – Т.: Шарк, 1998. – 214-b. Yusupova D. Aruz va mumtoz poetikaga kirish. – Т.: Akademnashr, 2020.

² To'xliyev B. va boshq. Ko'rsatilgan manba. – Т.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. – 94-b.

2–4-misralar – xafifi musaddasi maxbuni maqtuyi musabbag‘;

3-misra – xafifi musaddasi maxbuni maqtu‘ yaratilgani ma‘lum bo‘ladi.

Qit‘aning o‘lchov imkoniyatlarini saqlab o‘qish uchun **xalqdin** so‘zi **xal-qi-din** singari, **gumroh** so‘zining ikkinchi bo‘g‘inidagi unli cho‘zib, **ro‘ziy** so‘zini esa o‘zidan keyin turgan **istagan** so‘ziga qo‘shib talaffuz etish kifoya.

Xafifi musaddasi maxbuni mahzuf vaznida sadr va ibtidoda foilotun aslining solim (— V — —) ko‘rinishi, hashv ruknlarida mustaf‘ilun aslining maxbun tarmog‘i mafoilun (V — V —) hamda aruz va zarb ruknlarida foilotun aslining maxbuni mahzuf tarmog‘i failun (V V —) ishtirok etgan. Bir misrada ruknlari va taqti‘i quyidagicha ifodalanadi:

Foilotun yoki failotun mafoilun failun

— V — — yoki V V — — / V — V — / V V —


Xafifi musaddasi maxbuni mahzuf o‘lchovida ayrim o‘rinlarda sadr va ibtidoda foilotun aslining solim (— V — —) ko‘rinishi o‘rniga uning maxbun tarmog‘i failotun (V V — —) qo‘llanilishi mumkin. Ushbu qoida xafif bahrining boshqa vaznlariga ham tegishli.

2–4-misralar xafifi musaddasi maxbuni maqtu‘yi musabbag‘ (ruknlari va taqti‘i: failotun mafoilun fa‘lon V V — — / V — V — / — ~) vaznini o‘zida aks ettiradi. Buning sababi esa misralar so‘ngidagi **gumroh**, **choh** so‘zlari tarkibida nisbatan cho‘ziqroq talaffuz qilinuvchi unlilar qatnashganligidir. Mazkur vazn quyidagicha hosil qilinadi:

1) birinchi ruknda *foilotun* yoki failotun;


2) ikkinchi ruknda *mafoilun* (maxbun);

3) uchinchi ruknda *fa‘lon* (maqtu‘yi musabbag‘) tarmoq ruknlari ishtirok etadi. Ularni umumlashtirsak, quyidagi manzara hosil bo‘ladi:



Ruknlarning nomlanishini hisobga olib vaznni *xafifi musaddasi maxbuni maqtu'yi musabbag'* deb ataymiz.

Qit'aning 3-misrasi esa *xafifi musaddasi maxbuni maqtu'* o'lchovida bitilgan. Yuqorida ko'rib o'tilgan mazkur vazndan oxirgi ruknning so'nggi hijosi cho'ziqqa aylanishida tafovut seziladi. Shunda taqti' quyidagicha ko'rinish ega bo'ladi:



Anglashiladiki, vaznlar tarkibi jihatidan bir-biriga yaqin. Faqat oxirgi rukn (maxbuni mahzuf, maqtuyi musabbag', maqtu) bir-biridan farq qiladi. Xafifi musaddasi maxbuni mahzufda oxirgi rukn foilotun aslining maxbuni mahzuf tarmog'i failun(V V —)ga, xafifi musaddasi maxbuni maqtu'yi musabbag'da esa maqtuyi musabbag' tarmog'i fa'lon(— ~)ga, xafifi musaddasi maxbuni maqtu'da esa maqtu' tarmog'i fa'lun(— —)ga tengdir. Shu xususiyati bilan har uch o'lchov bitta she'r tarkibida birgalikda istifoda qilinishi mumkin.

Alisher Navoiyning “Saxo-vu buxl bobida nukta surmak va arolarida ikki vosita kelturmak” qit'asi *hazaji musaddasi mahzuf* (V — — — / V — — — / V — —) vaznida bitilgan. Uni shu o'lchovga xos bo'lgan mafoiylun, mafoiylun, fauvlun ruknlariga muvofiq o'qiladi. Qit'ani o'qish qiyinchilik tug'dirmaydi, chunki unda o'ta cho'ziq hamda qo'shib o'qiladigan bo'g'inlar uchramaydi. O'qituvchi ushbu qit'ani ifodali o'qishda uncha qiynalmaydi.

Debon bergan kishi erdur, va lekin
Demay berganga erlik bil musallam.
Ne deb, ne bersa bilgil ani xotun,
Bebon bermasni xotundan dag'i kam¹.

Qit'a mavzusi sarlavhada o'z aksini topgan. Unda gap “saxo” va “buxl” haqida boradi. “Saxo” — saxovat, saxiylik, qo'li ochiqlikni,

¹ To'xliyev B. va boshq. Ko'rsatilgan manba. — T.: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. — 95-96-b.

“buxl” esa baxillik, xasislik, qurumsoqlikni anglatadi. Shu yerda “musallam” so‘ziga ham izoh berish zarurati bor. U qarshilik qilmay, inkor etmay ma’qullangan degan ma’noni bildiradi¹. Demak, muddao qo‘li ochiqlik va qurumsoqlik haqida mulohaza yuritishdan iborat.

Alisher Navoiy qit‘alarida g‘azalchilikdagi an‘analarning yangi bir janr imkoniyati doirasidagi davomini ko‘rish mumkin. Adib qit‘alarining mavzu doirasi nihoyatda rang-barang. Uning “*Ul bobdakim jahon ahli bevaforur va alardin vafo ko‘z tutmoq xatodur*” sarlavhali qit‘asida falsafiy, ijtimoiy, ma’naviy, axloq va odob mazmun-mohiyati ustuvorlik qiladi. Qit‘aning vazn imkoniyatlarini tahlil etilganda, 1-, 2-, 4-misralari aruzning *hazaji musammani solim* vaznida bo‘lib, ruknlari va taqti’si:

mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylun

V — — — / V — — — / V — — — / V — — —

ko‘rinishida ekanligi ayon bo‘ladi. 3-misrasi esa bu o‘lchovga yaqin turuvchi, 4-rukning oxirgi hijosini o‘ta cho‘ziqqa aylantirish natijasida hosil bo‘lgan *hazaji musammani musabbag‘* vaznida yozilganligi oydinlashadi. Uning ruknlari va taqti’si bir misrada quyidagicha ko‘rinishga ega:

mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylun

V — — — / V — — — / V — — — / V — — ~

Qit‘aning vazni, uning ruknlari tarkibi, ohang xususiyatlari o‘quvchilarga eslatilib, so‘ng mushkul o‘rinlarga diqqat qilingan holda o‘qituvchi tomonidan namuna uchun o‘qib beriladi.

mafoiylun	mafoiylun	mafoiylun	mafoiylun
Agar oqil	esang, uzgil	jahon ahli	di-n+ulfatkim,
Alardin yuz	jafo kelmas,	agar yuz yil	vafo qilsang.
Hazaji musammani solim			
Biriga yuz	Xito mulki	xirojin ay-	lasang isor,

¹ Навоий асарлари лугати. — Т.: Фафур Гулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. — 420-б.

Hazaji musammani musabbag‘

Xatosiz qas-

di joning qil-

g‘usidur gar


xato qilsang.

Hazaji musammani solim

Qofiya uchun tanlangan mumtoz qofiyaning mujarrad turi tasodifiy bo‘lmasdan, g‘azalning hazaj bahrida yaratilishini ta‘minlagan. Darhaqiqat, qofiya uchun “**vafo qilsang, xato qilsang...**” birikmalari boshqa vaznga tushmaydi.

“Tavozu’ yaxshi, ammo yaxshiroqdur” deb boshlanuvchi qit‘a *hazaji musaddasi mahzuf* o‘lchovida yozilgan. Qit‘ani *hazaji musaddasi mahzuf* vazni ohangiga moslab o‘qish, ikkinchi baytdagi **afv, xo‘broq** so‘zlarini o‘ta cho‘ziq hijo sifatida cho‘zib, **bo‘lg‘ay el**, shuningdek, 4-baytdagi **debtur ani** so‘zlari qo‘shib talaffuz qilinadi. Binobarin, o‘qituvchi qit‘ani o‘qish davomida ana shunday jihatlarga o‘quvchilar e‘tiborini jalb qilishi zarur.

“Shohni ajdahoga nisbat qilib tururkim, ganj umidi ham andin boru ranj biymi (xavfi, vahimasi) ham” qit‘asi mutoqoribi musammani mahzufda bitilgan bo‘lib, bir misrada quyidagi ko‘rinishni oladi:



Mutaqoribi musammani mahzuf (V — — | V — — | V — — | V —) vazni o‘zbek she‘riyatida keng istifoda etilgan o‘lchovlardan hisoblanadi. Mazkur vaznda yozilgan she‘rning bir misrasidagi birinchi, ikkinchi, uchinchi ruknlar *fauvlun* (V — —) aslining solimiga va oxirgi, ya‘ni to‘rtinchi rukn *fauvlun*ning mahzuf tarmog‘i *faal* (V —)ga teng. Demak, qit‘ani o‘qish chog‘ida misralarning:

fauvlun fauvlun fauvlun faal

ohang qoliplariga rioya qilinishi lozim. Qit'ani o'qishda ana shu qoliplarning xususiyatlarini nazarda tutish o'rinli. She'r quyidagi ohangda o'qiladi:

Mutaqoribi musammani mahzuf
V — — V — — V — — V —
“Jahon ganjig ‘a shoh erur ajdaho”
Ki, o‘tlar sochar qahri hangomida.
Aning komi birla tirilmak erur,
Maosh aylamak ajdaho komida ¹ .

Navoiyning 10-sinfda o'rganiladigan “*Navoiy she'ri to'qquz bayt-u, o'n bir bayt, o'n uch bayt*” deb boshlanuvchi qit'asining 1-misrasi hazaji musammani musabbag' (ruknlari va taqti'si: mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylon V — — — / V — — — / V — — — / V — — —) vaznida yaratilgan bo'lsa, ayni vaqtda qit'aning qolgan 2-, 3-, 4-misralari shu vaznga yaqin turgan *hazaji musammani solim* (ruknlari va taqti'si: mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylun V — — — / V — — — / V — — — / V — — —)da bitilgan.

Navoiy she'	ri to'qquz bay-	t+u, o'n bir bay-	t(i) o'n uch bayt
mafoiylun	mafoiylun	mafoiylun	mafoiylon
Hazaji musammani musabbag'			
Ki, [~] lav-h+uzra	qalam ziynat	berur ul dur	ri maknundin ² .
Bukim, albat-	ta, yetti bay-	t(i)din o'ksuk	emas, ya'ni,
Tanazzul ay-	[~] la-y+olmas rut-	ba ichra yet-	ti gardundin ³ .
mafoiylun	mafoiylun	mafoiylun	mafoiylun
Hazaji musammani solim			


¹ To'xliyev B. va boshq. Ko'rsatilgan manba. – 102-b.

² Yashrilgan, maxfiy.


³ To'xliyev B. va boshq. Ko'rsatilgan manba. – 103-b.

Qit'ani o'qishda ta'kidlangan o'rinlarning qo'shib yoki cho'zib o'qilishi, shuningdek, **bayt**, **baytdin** kabi so'zlardagi qo'sh undoshning ikkinchisini alohida hijo qilib (**bay-t(i)**, **bay-t(i)-din** singari) talaffuz qilish tushuntiriladi. Qit'ani tahlil qilish jarayonida Navoiyning vazn ustida ishlash mahoratiga ham to'xtab o'tiladi. Ushbu qit'a tom ma'noda shoirning faxriyalaridan biridir. Chunki, she'rda uning barcha g'azallariga ixcham baho berilgan. Qit'ada shoir "durri maknun" deb o'z she'rlarini baholaydi.

Darslikda Alisher Navoiyning ikkita "Nazmul-javohir" ("Gavharlar tizmasi")dan, ikkita "G'aroyib us-sig'ar" devonlaridan o'rin egallagan 4 ta ruboiy keltiriladi. Shoirning darslikda keltirilgan dastlabki ruboiysi "Nazm ul-javohir" asarida 89-raqam ostida keltiriladi*. Mazkur asardagi she'rlarning aksariyat qismi tasavvufiy mavzuda bo'lib, "*Farzand ato qullug'in chu odat qilg'ay*" misrasi bilan boshlanuvchi ruboiysi ham ularning mantiqiy davomi hisoblanadi. Shoir yaratgan ushbu ruboiy ikki vaznli, 1-, 3-, 4-misralari *hazaji musammani axrabi maqbuzi solimi abtar* vaznida, ruknlari va taqti'si:



tarzida, 2-misrasi esa *hazaji musammani axrabi makfufi solimi abtar* o'lchovida yaratilgan. Taqti'yi quyidagichadir:



*Qarang: Alisher Navoiy. Nazm ul-javohir. TAT. 10 jildlik. 10-jild. – T.: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2013. – 56-b.

Shuning uchun mazkur ruboiy janridagi she'r ikki xil vaznda o'qiladi. Ruboiyning vazn xususiyatlarini jadvalda quyidagicha shakllantirib ko'rsatish muvofiq. Bu esa o'quvchini ruboiy matnini to'g'ri o'qishga yordam beradi.

Far	zan-	d+a	to	qul	li	g'in	chu	o	dat	qil	g'ay
—	—	V	V	—	V	—	V	—	—	—	—
Ul	o	da-	t+i	la	kas	bi	sa	o	dat	qil	g'ay
—	—	V	V	—	—	V	V	—	—	—	—
Har	kim	ki	a	to	g'a	ko'p	ri	o	yat	qil	g'ay
—	—	V	V	—	V	—	V	—	—	—	—
O'g'	li	di-	n+a	nga	bu	ish	si	ro	yat ¹	qil	g'ay
—	—	V	V	—	V	—	V	—	—	—	—

Ruboiyda ohangni ta'minlagan hodisalardan yana biri vasl hodisasi. Ma'lumki, vasl hodisasi bu vazn talabi bilan ayrim yopiq hijolar oxiridagi undosh tovushni undan keyin turgan va unli tovush bilan boshlangan hijoga qo'shib yuborish bo'lib, natijada, o'ta cho'ziq hijo cho'ziq hijoga, cho'ziq hijo qisqa hijoga aylanadi. Ruboiyning 1-, 2-, 4-misralarida ham vazn talabi bilan vasl hodisasi yuzaga kelgan. 1-misradagi 1-ruknda qo'llanilgan "*farzand*" so'zidagi "*d*" undoshi undan keyin turgan "*a*" hijosiga, 2-misrada qo'llanilgan "*odat*" so'zidagi "*r*" undoshi undan keyin turgan "*r*" hijosiga, 4-misradagi "*o'g'lidin*" so'zidagi "*n*" undoshi esa undan keyin turgan "*a*" hijosiga ulanib, "*da*", "*ti*", "*na*" tarzida o'qilishi lozim. Ruboiyda qo'llanilgan muassas qofiya (*odat*, *oyat*, *siroyat*) esa uning ta'sirchanligini oshirgan.

Darslikdagi ikkinchi ruboiy insoniy fazilatlar haqida bo'lib, "*El gochsa birovdin, el yomoni bil oni*" misralari bilan boshlanadi. Hazrat Alisher Navoiyning ushbu ruboiysi ham *hazaj* bahrining *axrab* shajarasi vaznlarida yaratilgan. Mazkur ruboiy 1-, 3-, 4-misralarining birinchi rukni *maf'uvlu* (axrab), ikkinchi rukni *mafoilun* (maqbus), uchinchi rukni *mafoiylyu* (makfuf) bo'lib, oxirgi rukni *faal* (ajabb) tarzida kelgan. Ruknlarning nomlanishidan kelib

¹ Siroyat – ichiga o'tish, ta'sir, yuqish.

chiqib ruboiyning 1-, 3-, 4-misralari *hazaji musammani axrabi maqbuzi makfufi ajabb* (ruknlari va taqtisi: *maf'uvlu mafoiylun mafoiylu faal* — — V / V — V — / V̄ — — V / V —) o'Ichovida yaratilgan. Ruboiyning 2-misra vazni quyidagicha hosil qilinadi: birinchi rukn, odatdagidek, *maf'uvlu* (axrab), ikkinchi va uchinchi ruknlar *mafoiylu* (makfuf), to'rtinchi rukn esa *faal* (ajabb)dir. Demak, ikkinchi misra vazni esa *hazaji musammani axrabi makfufi ajabb* (ruknlari va taqtisi: *maf'uvlu mafoiylu mafoiylu faal* — — V / V — — V / V — — V / V —) hisoblanadi. Ya'ni:

El qochsa	birovdi-n+el	yamoni bi-	l+oni
— — V	V — V —	V — — V	V —
Ahvoli	da idbor(i)	nishoni bi-	l+oni
— — V	V — — V	V — — V	V —
Fe'l ichra	ulus balo	yi joni bi-	l+oni
— — V	V — V —	V — — V	V —
Olam e	lining ya mon	yamoni bi-	l+oni
— — V	V — V —	V — — V	V —

singari o'qiladi. Ruboiyda qo'llanilgan *yamoni*, *nishoni*, *joni* kabi qofiyadosh so'zlari musiqiylik bag'ishlagan. She'r "Nazm ul-javohir" asarida 123-raqam ostida berilgan*.

"G'urbatda g'arib shodmon bo'lmas emish" ruboiysi 8-sinf darsligida tahlil qilinganligi uchun, bu o'rinda ushbu ruboiyni qayta tahlil qilishga zarurat sezilmadi.

Shoirning darslikdan o'rin olgan so'nggi ruboiysi "G'aroyib us-sig'ar" devonida 127-raqam ostida kelirilgan*. Ruboiy "*Ko'z birla qoshing yaxshi, qabog'ing yaxshi*" misralari bilan boshlanib, barcha misralari *hazaji musammani axrabi makfufi solimi abtar* (ruknlari va taqtiyi: *maf'uvlu mafoiylun mafoiylun fa'* — — V / V — — V / V — — — / —) vaznida bitilgan. Ruboiyning birinchi rukni,

* Qarang: Alisher Navoiy. Nazm ul-javohir. TAT. 10 jildlik. J.10. — T.: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2013. — 62-b.

* Qarang: Alisher Navoiy. G'aroyib us-sig'ar. TAT. 10 jildlik. J.1. — T.: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2013. — 745-b.

odatdagidek, *maf'uvlu* (axrab), ikkinchi rukni esa *mafoiylyu* (makfuf), uchinchi rukni *mafoiylyun* (solim), so'nggi rukni *fa'* (abtar)dan iborat.

Ko'z birla/ qoshing yaxshi,/ qabog'ing yaxshi,
— V / V — V / V — — — / —

Yuz birla/ so'zing yaxshi,/ dudog'ing yaxshi.
— V / V — V / V — — — / —

Eng birla/ menging yaxshi,/saqog'ing yaxshi,
— V / V — V / V — — — / —

Bir-bir ne deyin, boshdi/n+ayog'ing yaxshi .
— V / V — V / V — — — / —

Ruboiyda Alisher Navoiy tavzi' san'atidan ham ustalik bilan foydalanib, suyuklining "*boshdin-ayog*" go'zal qiyofasini mohirlik bilan tasvirlagan. Demak, ruboiy vaznlarini saqlash uchun har qaysi misrani ruknlarga muvofiq holda o'qish yetarli. O'quvchilarning aruz nazariyasiga oid bilimlarni puxta o'zlashtirishi esa o'qituvchilardan o'z ustida tinimsiz izlanishni talab etadi.

Turdi Farog'iy qalamiga mansub "*Tor ko'ngullik beklar...*" g'azali bizga tanish *ramali musammani mahzuf* (— V — — / — V — — / — V — — / — V —) vaznida yozilgan.

Tor ko'ngullik **bek(i)lar**, man-man demang, kenglik qiling,

To'qso-n+ikki bovli¹ o'zbak yurtidur, tenglik qiling.

Birni Qipchoq-u Xitoy-u, birni Yuz, Nayman demang,
Qirq-u Yuz, Ming son bo'lub, bir **xon(i)** oyinlik qiling.

Bir yaqodin bosh chiqorib, barcha bir to'ng'a kirib,
Bir o'ngurlik, bir tirizlik, bir yaqo, yenglik² qiling.

Kim qo'yubdur, uhdayi o'z mulkungizdin chiqmayin,
Ikki, uch, to'rt da'vosin etmakni, ko'tahlik³ qiling.

¹ Boylam, dasta.

² To'nning qismlari.

³ Kalta, qisqa.

Mard(i)lar maydon chekib, rangin¹ ko'torib **zaxm(i)lar**,

Sizga yo'q ul **javha-r+u**, yuzga upo-englik qiling².

G'azalni vaznga mos o'qish uchun bek, xon, mardlar, zaxmlar so'zlari tarkibidagi oxirgi undoshni alohida qisqa hijoga aylantirib, (**bek(i)**, **yuz(i)**, **xon(i)**, **mard(i)lar**, **zaxm(i)lar**) o'qish lozim. **To'qso-n+ikki**, **javha-r+u** esa vazn taqozosi bilan qo'shib o'qiladi.

Shoirning "Turdiman" radifli g'azali ham yuqoridagi vaznda yozilgan. Ayni paytda g'azal uchun tanlangan "Turdiman" radifi uning vaznini tanlashiga ham zamin hozirlagan. Zero, "Turdiman" so'zi ramal bahrining foilun (— V —) tarmog'iga mos keladi.

Darslikda Turdi Farog'iyning "Yod mandin kim berur: yaxshi zamonlar ko'rdiman" deb boshlanuvchi muxammasi ham berilgan. Oldingi sinflarda muxammas janridagi she'r uchramaganligi sababli o'qituvchi janr haqida qisqacha nazariy ma'lumot berishi joiz. Ma'lumki, muxammas arabcha "beshlik" degan ma'noni bildiradi. "She'riyatda har bandi besh misradan tashkil topgan lirik she'r shakli nomini ifodalaydi"³. "Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati"⁴da muxammasning 3 turi haqida ma'lumot beriladi. Ular: a) bir shoir mustaqil muxammas yozadi; b) shoir o'ziga yoqqan biror g'azalga muxammas bog'laydi va u taxmis deb ataladi; d) shoir o'z g'azaliga taxmis qiladi⁴.

V.A.Abdullayev XVIII va XIX asr birinchi yarmi o'zbek adabiyoti haqida gapirar ekan, muxammasning yana bir turi haqida ma'lumot beradi. Uning fikricha, "... ishqiy muxammaslar yozish bilan birga, ijtimoiy motivlarni, ba'zi hollarda, hajviy shtrixlarni kiritib muxammas yozish yoki "muxammasi mulamma"⁵ deb

¹ Alvon, qizil.

² To'xliyev B. va boshq. Ko'rsatilgan manba. — 155-b.

³ Qarang: Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик. 2-жилд. Лирика. — Т.: Фан, 1992; Ҳожиахмедов А. Мумтоз бадиият луғати. — Т.: Янги аср авлоди, 2008; Yusupova D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetikaga kirish. — Т.: TA'LIM-MEDIA, 2019.

⁴ Ҳомидий Х. ва бошқ. Адабиётшунослик терминлари луғати. Иккинчи нашр. Т.: Ўқитувчи, 1970. — 220–221-б.

atalgan qochirimlar, kinoyalar bilan to'lib-toshgan muxammaslar to'qish ham rasm bo'lgan¹.

R.Orzibekov, U.To'ychiyev, A.Hojiahmedov, Y.Is'hoqov, D.Yusupovaning tadqiqotlarida muxammaslar yaratilish xususiyatiga ko'ra ikkiga, ya'ni mustaqil (tab'i xud) va taxmis muxammaslarga ajratilishi qayd etiladi².

Turdi Farog'iyning "Yod mandan kim berur: yaxshi zamonlar ko'rdiman" deb boshlanuvchi muxammasi 12 banddan iborat bo'lib, mustaqil (tab'i xud) muxammas hisoblanadi. Ushbu muxammas ham aynan *ramali musammani mahzuf* (— V — —/ —V — —/ — V — —/ —V —) o'lchovida bitilgan. Yuqoridagi g'azalda radif vaznni belgilashda asosiy unsur bo'lgan bo'lsa, ushbu muxammasda mazkur vazifani qofiya bajaradi. Chunki qofiya uchun tanlangan **ko'rdiman, surdiman, qurdiman, durdiman** kabi so'zlar *foilotun* asliy ruknining *foilun* (— V —) *mahzuf* tarmog'iga mos tushadi.

Shunday qilib, 10-sinfda olib boriladigan adabiyot darslarida o'quvchilar aruz tizimining bir nechta yangi vaznlarini o'zlashtirishlariga shart-sharoit yaratiladi.

¹ Абдуллаев В.А. Ўзбек адабиёти тарихи. Иккинчи китоб. — Т.: Ўқитувчи, 1964. — 168-б.

² Batafsil ma'lumot olish uchun qarang: Orzibekov P. Ўзбек лирик поэзиясида газал ва мусаммат. — Т.: Фан, 1976. — 79-б.; Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик. 2-жилд. Лирика. — Т.: Фан, 1992. — 220-б.; Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият луғати. — Т.: Янги аср авлоди, 2008. — 74-б.; Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. — Т.: O'zbekiston, 2014. — 126-б.; Yusupova D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. — Т.: "TA'LIM-MEDIA", 2019. — 142-б.

11-SINF “ADABIYOT” DARSLIGIDA KELTSIRILGAN JANRLARDA SHE’RIY O’LCHOV MASALASI

Adabiyot dasturiga muvofiq 11-sinfda eng qadimgi davrlardan to XIX asrning ikkinchi yarmigacha, xususan, Anbar Otin ijodigacha bo‘lgan o‘zbek adabiyoti tarixini o‘rganish nazarda tutilgan¹. O‘quvchilar bu sinfda ham o‘zbek aruzining yangi vaznlari bilan tanishadilar, ularning ohang xususiyatlarini o‘rganadilar.

Darslikda “O‘zbek mumtoz adabiyoti” qismi Nosiruddin Rabg‘uziyning hayoti va ijodi bilan boshlanadi. Adibning “Qisasi Rabg‘uziy” asaridan parchalar hamda “Kun hamalga kirdi...” g‘azali berilgan². Dastlab asardan keltirilgan parchalarni o‘qish, so‘ngra g‘azal tahliliga o‘tish ma’qul. O‘qituvchi o‘quvchilarga “Kun hamalga kirdi...” g‘azali haqida ma’lumot berib, aynan g‘azal janrining ilk namunalari “Qisasi Rabg‘uziy” asarida uchrashini ta’kidlashi lozim bo‘ladi. Shundan keyin g‘azalning vazn xususiyatlarini o‘quvchilar bilan birgalikda tahlil qilinadi.


11-sinfda o‘quvchilar aruz tizimi haqida mufassal ma’lumotga ega bo‘ladilar. Chunki ular oldingi sinflarda o‘rganilgan janrlarning vazn xususiyatlari, o‘lchov imkoniyatlari bilan tanishganlar. O‘quvchilar endi quyi sinflarda o‘rganganlarini mustahkamlaydilar. Albatta, darslikda o‘quvchilar uchun mutlaqo yangi vaznlar ham uchraydi. Shunday vaznlar sirasiga *mutaqoribi musammani aslam*, *mutaqoribi musammani salami musabbag‘*, *muzoriyi musammani axrab*, *muzoriyi musammani axrabi musabbag‘* kabilar kiradi. Lekin bu vaznlar o‘quvchilar uchun qiyinchilik tug‘dirmaydi. Sababi quyi sinflardan boshlab ularga aruz tizimi haqida ma’lumot berib kelinadi.

Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” asarida qissa va hikoyatlar orasida o‘nlab she’rlar ham mavjud. “Kun hamalga kirdi...” g‘azali ham bahor vasfiga bag‘ishlangan ilk o‘zbek g‘azali hisoblanadi. Navro‘z mavzusi g‘azalning matla’sidan maqta’sigacha vaf etiladi.


¹Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi ona tili va adabiyot (5–9-sinf). – T.: 2017.

²To‘xliyev B. va boshq. Adabiyot. 11-sinf uchun darslik.1-qism. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2018. – 113-b.

She'r ham ramali musammani mahzuf, ham ramali musammani maqsur vaznida yozilgan. Ularning ruknlari va taqti'si har misrada:



hamda



tarzidadir. Mazkur vaznlar haqida quyi sinflarda ma'lumot berilganligi uchun o'qituvchi faqat qisqacha takrorlashi maqsadga muvofiq. Bunda o'quvchilar vaznlarga tegishli bo'lgan asliy va tarmoq ruknlarni ketma-ketlikda sanaydilar va bilimlarini mustahkamlaydilar. O'qituvchi g'azalning matla'sini shu ikki vazn ohangida o'qiydi. Qolgan baytlarini o'quvchilar mustaqil holda vaznga moslab ifodali o'qishlari zarur:

Kun hamalga¹ kirdi ersa keldi olam navro'zi,
Kechdi bahman² zamharir³ qish, qolmadi qori, buzi.

Kun kelu ming ko'rki ortib tirilur o'lmish jahon,
Tong badizlab⁴ naqshi birla bezanur bu yer yuzi.

¹ Hamal – Quyosh yili hisobida birinchi oy nomi. Hozirgi mart oyiga to'g'ri keladi. Qo'y burjining arabcha nomi. U "Qutadg'u bilig"da Qo'zi burji sifatida tilga olingan.

² Bahman – Quyosh yili hisobida o'n birinchi oy nomi. Hozirgi 22-yanvar–21-fevralga to'g'ri keladi.

³ Zamharir – sovuq, qahraton.

⁴ Badiz – shakl, surat, rasm. Badizlamoq – rasm solmoq, rasm chizmoq.

... O'rlasa¹ bulutlari gulchira² bog'-u bo's(i)ton,
Tol yig'ochlar³ yeng solishur o'ynayurtek qo'y-qo'zi.

... Lola sag'roqin⁴ icharda sayra-r+usrub⁵ sanduvach⁶,
Turna un tortib o'tarda sakrashur baqlan⁷, qo'zi.

Ko'kda o'ynar, qo'l solishur qug'u⁸, qoz, qil⁹, qarlug'och,
Erda yugrub juf-t+olishur os¹⁰, tiyin¹¹, kish¹², qunduzi.

Tol yig'ochlar minbarinda to'ti qush majlis tutar,
Qumri, bulbul muqri¹³ bo'lub un tuzar tun-kunduzi¹⁴.

Ko'rinadiki, g'azaldagi **jahon** so'zining ikkinchi, **bo's(i)ton** so'zining ham birinchi, ham ikkinchi, **qarlug'och** so'zining uchinchi hijolari o'ta cho'ziq bo'lib, ular tarkibidagi unlilarni cho'zib talaffuz qilish, 4-baytning 1-misrasidagi, 5-baytning 2-misrasidagi ta'kidlangan o'rinlarni qo'shib o'qish talab qilinadi. O'quvchilar diqqati shu so'zlarga qaratilishi lozim.

G'azalda turkiy til tarovatini ko'rsatuvchi so'zlarning qofiya sifatida ishlatilishi uning qimmatini yanada oshirgan. Shuningdek, tasvirda asosiy o'rinda jonlantirish, sifatlash, o'xshatishlar turadi. G'azal ham ramali musammani mahzuf, ham ramali musammani maqsur vazni ohangida ifodali o'qilganidan so'ng o'qituvchi o'quvchilarga vazni mustahkamlash uchun topshiriq berishi zarur. Buning uchun o'qituvchi ramali musammani mahzuf vaznining

¹ O'rlamoq – yurmoq, yuqoriga ko'tarilmoq.

² Gulchiramoq – gul ochmoq.

³ Yig'ach – daraxt

⁴ Sag'roq – idish, jom.

⁵ Usumak – mast bo'lmoq, sarxush bo'lmoq.

⁶ Sanduvach – bulbul.

⁷ Baqlan – to'qli, yosh qo'zi.

⁸ Qug'u – oqqush.

⁹ Qil – qilquyruq.

¹⁰ Os – oq suvsar.

¹¹ Tiyin – olmaxon.

¹² Kish – olmaxonning bir turi.

¹³ Muqri – qiroat qiluvchi, qori

¹⁴ To'xliyev B. va boshq. Ko'rsatilgan manba. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2018. – 113-b.

ruklari o‘rnini almashtirgan holda berishi o‘quvchilarni mantiqan fikrlab, javob berishga yo‘naltiradi. Masalan,

Foilotun	foilotun	foilotun	foilon
— V — —	— V — —	— V — —	— V —
Foilotun	foilotun	foilotun	foilon
— V — —	— V — —	— V — —	— V —

O‘quvchilarning mazkur topshiriqni mustaqil bajarishlari ularning vazn haqidagi bilimlarini mustahkamlaydi. Ramali musammani mahzudfa qatnashgan asliy va tarmoq ruكلarni aniqlaganlaridan keyin baytning vaznini belgilashga kirishiladi:

Kun hamalga	kirdi ersa	keldi olam	navro‘zi,
— V — —	— V — —	— V — —	— V —
Kechdi bahman	zamharir qish,	qolmadi qo	ri, buzi.
— V — —	— V — —	— V — —	— V —


Ular matla’ baytning vaznini yuqoridagi shaklda topishlari kerak bo‘ladi.

11-sinfda o‘quvchilar tarixchi va adib Xondamir taxallusi bilan tanilgan G‘iyosiddin Muhammad ibn Xoja Humomiddin ibn Xoja Jaloliddin Muhammad ibn Burhoniddin Muhammad Sheroziyning (1473/76 –1534) Alisher Navoiy hayoti va ijodiga bag‘ishlangan “Makorim ul-axloq” kitobi bilan tanishishadi. Asar Alisher Navoiy hayoti, faoliyati va ijodi hamda uning go‘zal fazilatlariga bag‘ishlangan bo‘lib, debocha, muqaddima, o‘n maqsad (bob), xotima hamda Navoiyning qanday vafot etganligi to‘g‘risidagi bobdan iborat¹.


Darslikda dasturga muvofiq “Xamsa”ning yakunlovchi dostoni “Saddi Iskandariy”dan parcha keltiriladi. Ushbu doston “Xamsa”dagi eng yirik doston bo‘lib, 89 bob va 7215 baytdan tashkil topgan, muqaddimasi 14 bobni o‘z ichiga oladi. Doston mutaqorib bahrining ham *mutaqoribi musammani mahzudf*, ham

¹ Qarang: G‘iyosiddin Xondamir. Makorim ul-axloq (fors tilidan sharqshunos Komiljon Rahimov tarjimasini). – T.: Akademiya nashri, 2017.


mutaqoribi musammani maqsur vaznlarida yozilgan bo‘lib, ularning ruknlari va taqti’si bir misrada:



hamda



kabi namoyon bo‘ladi. Bu ikki vaznning farqini o‘qituvchi Venn diagrammasi misolida ham tushuntirishi mumkin.



Quyida “Saddi Iskandariy” dostonidagi XII bobdan parcha keltiramiz va uni vaznga mos ifodali o‘qishni o‘rganamiz. Mazkur bob “Ul g‘ofil yigit hikoyatikim, voqif pir nasihati qadrin bilmadi, ish vaqtidin o‘tgandin so‘ngra pushaytnonlig‘i sud qilmadi” deb nomlanadi. Parcha quyidagi bayt bilan boshlanadi.

Eshittimki, bir turfa¹ barno² edi,

Yuzi **dilka-sh+u³** qaddi ra‘no⁴ edi.

Emas erdi bir lahza berud-u⁵ may,
Agar navbahor-u va gar fasli day⁶.

Bo-r+edi javorinda⁷ ahli dile,
Tariqatni-ng+odobida komile.

Kelib erdi qo‘shnilig‘idin batang,

Ki, **bo-r+erdi** g‘avg‘o anga bedarang.

Nasihahat qilur erdi ko‘p dilpazir⁸,

Vale **bo‘lma-s+erdi** anga joygir⁹.

Necha **pan-d+ila** topsa erdi **xitob**¹⁰,
Berur erdi nosihqa¹¹ mundoq **javob**.

Ki: “Bordur yigitlik farog‘at chog‘i,
Qariliq erur zuhd-u toat chog‘i.

¹ Turfa – qiziq, ajablanarli

² Barno – go‘zal, chiroyli.

³ Dilkash – dilni o‘ziga tortadigan, yoqimli.

⁴ Ra‘no – latif, zebo, dilkash.

⁵ Rud – rud, cholg‘u asbobi.

⁶ Day – qish.

⁷ Javori – yaqin atrof.

⁸ Dil pazir – ko‘ngilga yoqadigan, yoqimli

⁹ Joygir – o‘rin oluvchi, joylashuvchi.

¹⁰ Xitob – murojaat.

¹¹ Nosih – nasihat qiluvchi, o‘git beruvchi.

Shabob¹ andakim **uzr(i)** qo'lg'usidur,
Vara'² aylamak vaqti bo'lg'usidur".

Shabob o'tti-yu quvvati qolmadi,
Dedi: "Toa-t+aylay", qila olmadi.

Ha-m+o'lmish edi **fisq³(i)** odat anga,
Base sa'b⁴(i) erdi ibodat anga.

Chu ko'rdiki, **um-r+o'ldi** yaksar⁵ taboh⁶,
Yana yetti sarvaqtig'a⁷ piri roh.

Kelib **naz'⁸(i)** vaqti aning boshig'a,
Sukun tutti **rah-m+aylabon** qoshig'a.

Nekim qilg'onidin pushaymon ko'rub,
Zamirini⁹ benuri imon ko'rub.

Dedi: "Pand(i) berdim, vale qilmading,
Bu kun ollinga kelmagin bilmading".

Dedi: Tajribam yo'q edi, ey **rafiq**,
Su uzmakni **o'rganma-y+o'ldum** g'ariq¹⁰.

Qarilig'da gar **bilsa-m+erdi** bu hol,
Yigitlik chog'i **qilma-s+erdim** vabol¹.

¹ Shabob – yosh, yosh yigit.

² Vara' – taqvo, parhezkorlik

³ Fisq – gunoh ishlar bilan mashg'ullik; yomonlik qilish.

⁴ Sa'b – qiyin, og'ir.

⁵ Yaksar – boshdan oyoq, butkul.

⁶ Taboh – buzuq, xarob, vayron

⁷ Sarvaqt – yo'qlab kelish, ziyorat.

⁸ Naz' – jon chiqish.

⁹ Zamir – dil, ko'ngil; o'y, xotira.

¹⁰ G'ariq o'lmoq – g'arq bo'lmoq, cho'kmoq.

Dedikim: “O’tangga necha **um-r+edi**?”

Hisob aylabon: “Yuz o’-**n+iki**”, – dedi.

Dedi: “U1 **ha-m+o’lmish edi notavon**?”²
Eshitguchi **tasdiq(i)** qildi **ravon**.

Kulub dedi **sohibdi-l**: + “**Ey bulhavas**³,
Emasmu edi tajribang muncha bas?”

Angakim yetar Tengridin mavhiba⁴,
Kerak o’zgalar holidin tajriba⁵.

Keltirilgan parchadan ko’rinib turibdiki, shoir dostonni yaratishda o’ta cho’ziq bo’g’inlarga ko’p murojaat qilgan. Shuning uchun vazn talabi bilan anchagina o’rinlarda bo’g’inlar bir-biriga birikib o’qiladi. O’qituvchi vaznga moslab parchani o’qish davomida ana shunday jihatlarga o’quvchilar diqqatini qaratishi kerak.

Zahiriddin Muhammad Boburning 11-sinfda o’rganiladigan she’rlari xilma-xil vaznda yozilgan. Ularni o’qish, tahlil qilish jarayonida o’quvchilar aruz tizimining yangi xususiyatlarini mukammal o’zlashtirib oladilar. Shoirning dasturdan o’rin olgan “Xazon yaprog’i yanglig’ gul yuzung hajrida sarg’ordim” deb boshlanuvchi g’azali *hazaji musammani solim* (ruknlari va taqti’si: mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylun V — — — / V — — — / V — — — / V — — —) vaznida yozilgan.


¹ Vabol – uvol, gunoh; nojoyiz.

² Notavon – zaif, quvvatsiz; ojiz.

³ Bulhavas – havasga berilgan, yengiltak

⁴ Mavhiba – ato, baxshish, ehson.

⁵ To’xliyev B. va boshq. Adabiyot. 11-sinf uchun darslik. 1-qism. –T.: “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2018. – 138-140-b.



Adabiyotshunoslikda “Xazon yaprog‘i yanglig‘ gul yuzung hajrida sarg‘ordim” deb boshlanuvchi g‘azal tanosub san‘atining go‘zal namunasi hisoblanadi. G‘azal vaznga mos va quyidagi tartibda ifodali o‘qiladi:

Xazon yaprog‘i yanglig‘ gul yuzung hajrida sarg‘ardim,
 Ko‘rub **rahm+aylagil**, ey lola ruh, bu chehrayi zardim.

Se-n+ey gul, qo‘ymading sarkashligingni **sarv(i)dek** hargiz,
 Ayoqingg‘a tushub, bargi xazondek muncha yolbordim.

Latofat gulshanida gul kibi sen sabz-u xurram qol,
Me-n+archi¹ dahr(i) bog‘idin xazon yaprog‘idek bordim.

Xazondek qon yoshim, sorig‘ yuzumdin el tanaffurda,
 Bahar rangi, bihamdillah, ulusdin o‘zni qutqordim.

Ne tole‘dur mangakim, axtari baxtim topilmadi,
 Falak avroqini har nechakim **daftarde-k+axtardim**.

¹ Garchi, agarchi, shunday bo‘lsa-da


Ulusning ta'n-u ta'rifi manga, Bobur, barobardur,
Bu olamda o'zumni chun yamon-yaxshidi-n+o'tkardim¹.

Yuqoridagi baytni ifodali o'qish uchun ta'kidlangan so'zlarni bir-biriga qo'shib, vasl hosil qilib **rah-m+aylagil, se-n+ey gul, me-n+archi, daftarde-k+axtardim, yaxshidi-n+o'tkardim** tarzida talaffuz qilish shart. Shunday qilinsa, misralar tarkibidagi so'zlar vazn ruknlariga moslashadi. Masalan, 2-misradagi "**rahm aylagil**" so'zlarini qo'shmay o'qisak, misraning birinchi rukni **V — — V —** singari taqti'ga teng bo'ladi.

Xazon yapro	g'i yanglig' gul	yuzung hajri	da sarg'ardim,
V — — —	V — — —	V — — —	V — — —
Ko'rub rahm ay	lagil, ey lo	larux, bu cheh	rayi zardim.
V — — V —	V — — —	V — — —	V — — —

Vaholanki, g'azal *mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylun* asliy ruknlariga asoslanuvchi vaznda yaratilgan. Shuning uchun "**ko'rub rahm ay**" birikmasini mafoiylun rukniga moslab o'qish lozim. Buning uchun esa "**rahm**" so'zidagi "**m**" undoshini "**ay**" bo'g'iniga qo'shib, "**may**" ko'rinishida o'qish kerak bo'ladi.

Shoirning "Topmadim" radifli g'azali muzori' bahrining *muzoriyi musammani axrabi makfufi mahzuf* vaznida bitilgan bo'lib, ruknlari va taqti'si bir misrada quyida ko'rsatilgan shaklni oladi:



Ushbu vazn avvalgi sinflarda uchramaganligi sababli batafsil ma'lumot beriladi. *Muzoriyi musammani axrabi makfufi mahzuf* (— — V/ —V — V/V — — V/ —V —) vaznining tarkibi birinchi ruknda *mafoiylun* aslining axrab tarmog'i *maf'uvlu* (— — V)ga va

¹ To'xliyev B. va boshq. Ko'rsatilgan manba — 163-b.

uchinchi ruknda makfuf tarmog’i *mafoiylu* (—V — V)ga, ikkinchi ruknda *foilotun* aslining makfuf tarmog’i *foilotu* (V — — V)ga, to’rtinchi ruknda esa shu aslining mahzuf tarmog’i *foilun* (—V —)ga teng. Hijolarning shu xilda takrorlanishi mumtoz musiqa ohanglariga mos tushadi. G’azalning matla’ bayti ruknlarga

Jonimdi	\curvearrowright -n+o‘zga yori	vafodor(i)	topmadim,
— — V	— V — V	V — — V	— V —
Ko‘nglumdi	\curvearrowright -n+o‘zga mahra	mi asror(i)	topmadim
— — V	— V — V	V — — V	— V —

singari ajratiladi. Bunda “Jonimdi” rukni mafoiylun aslining axrab tarmog’i – *maf’uvlu* (— — V)ga, “n+o‘zga yori” rukni *foilotun* aslining makfuf tarmog’i – *foilotu* (V — — V)ga, vafodor(i) rukni *mafoiylun* aslining makfuf tarmog’i – *mafoiylu* (—V — V)ga hamda “topmadim” radifi *foilotun* aslining mahzuf tarmog’i – *foilun* (—V —)ga teng. Demak, she’r mafoiylun va foilotun asllariga tegishli tarmoqlarning ketma-ket takroriga asoslangan. Shu tufayli g’azalning vazni *muzoriyi musammani axrabi makfufi mahzuf* deb yuritiladi. “Topmadim” radifli g’azal ushbu vazn ohangida o‘qiladi. Bunda e’tiborini nimaga qaratish kerak? Buni tartib bilan ko‘rsatish kerakmi?

\curvearrowright
Jonimdi-n+o‘zga yori vafodor(i) topmadim,

\curvearrowright
Ko‘nglumdi-n+o‘zga mahrami asror(i) topmadim.

\curvearrowright
Jonimde-k+o‘zga jonni dilafgor(i) ko‘rmdim,
Ko‘nglum kibi ko‘ngulni **giriftor(i)** topmadim.

Usruk ko‘ziga toki ko‘ngul bo‘ldi muftalo,
Hargiz bu telbani yana **hushyor(i)** topmadim.

Nochor(i) furqati bila xo‘y etmisham, netay,
Chun vaslig‘a o‘zumni **sazovor(i)** topmadim.

\curvearrowright

Bori boray eshigiga bu **navba-t+ey** ko'ngul,

Nechaki **bori-b+eshigiga bor(i)** topmadim.

Bobur, o'zungni o'rgatako'r **yor(i)sizki**, men
Istab jahonni muncha qilib **yor(i)** topmadim¹.

G'azalda qo'shib, cho'zib o'qiladigan bo'g'inlar talaygina. Vazn murakkab bo'lganligi sababli she'r matnini o'quvchi dastlab o'qituvchi yordamida o'zlashtiradi. Bu g'azalda shoirning vazn ustida ishlash mahorati yaqqol ko'rinadi. Unda "Topmadim" radifining ridfi asliyli qofiya bilan yonma-yon kelishi she'r ohangining jozibador chiqishiga xizmat qilgan. Shoirning

Xating aro uzoring – sabza ichinda lola,
Ul chashmi purxumoring loladagi g'azola

baytini ifodali o'qib, keyin ruknlarga ajratsak quyidai taqti' hosil bo'ladi:

— — V/ — V — — / — — V/ — V — —

Har qaysi rukn taqti' asosida bayt misralari

maf'uvlu foilotun maf'uvlu foilotun

tarmoq va asliy ruknlarga muvofiqligini belgilaymiz. Ushbu she'r ham yuqorida keltirilgan g'azal kabi mafoiylun va foilotun asllariga tegishli tarmoq va asllarning ketma-ket takroriga asoslangan. Demak, mazkur bayt ham muzori' bahri vaznlariga tegishli bo'lib, *muzoriyi musammani axrab* deb ataladi. Ushbu vazn *mafoiylun* aslining axrab tarmog'i – *maf'uvlu* (— — V) rukni va *foilotun* (—V — —) aslining *solimi* bilan ketma-ket takrorlanishiga asoslanadi. Shu tufayli ham mumtoz musiqa kuylariga solib ijro etish qulay. Quyida g'azalning to'liq matni keltiriladi:

¹ To'xliyev B. va boshq. Ko'rsatilgan manba – 164-b.

Xating¹ aro uzoring² – sabza ichinda lola,
Ul chashmi purxumoring³ loladagi g‘azola⁴.

Barcha **parila-r+ey** jon, girdingda zor-u hayron,
Go‘yo erur namoyon oy tegrasida hola⁵.

Mehr-u vafoni, ey yor, ko‘p ko‘rdi **sendi-n+ag‘yor**⁶,
Javr-u jafoni bisyor qilding manga havola.

Hajringda, ey parirot⁷, **ko‘zumdi-n+uchti** uyqu,
Har kecha tongga degru⁸ **ishimdu-r+oh-u** nola.

Yuz safhasinda xatlar yoshdinki, har taraf bor,
Ishqingda **Bobu-r+aylar** bu **nav‘(i)** yuz risola⁹.

O‘quvchi she‘r matniga tayanib **parila-r+ey**, **sendi-n+ag‘yor**, **ko‘zumdi-n+uchdi**, **ishimdu-r+oh-u**, **Bobu-r+aylar** kabi so‘zlarni vazn talabi bilan qo‘shib, **nav‘** so‘zini esa “**nav‘(i)**” tarzida o‘ta cho‘ziq, ya‘ni bir cho‘ziq va bir qisqa hijo tarzida o‘qiydi. Shuningdek, 2-, 3-, 4-baytlarning birinchi misrasi yuqoridagi vaznga yaqin bo‘lgan *muzoriyi musammani axrabi musabbag‘* vaznida yaratilgan. Ushbu o‘lchov *muzoriyi musammani axrabdan to‘rtinchi ruknning foilotun* (solim)dan *foiliyyon* (musabbag‘)ga almashishi bilan farqlanadi.

¹ Xat – lab uzra mayin tuklar.

² Uzor – yuz, chehra.

³ Purxumor – xumori, mast; ko‘zi suzilgan.

⁴ G‘azola – lola ichidagi kiyik boshiga o‘xshash uzv.


⁵ Hola – Oy yoki Quyoshning qo‘rg‘onlashi, gardish bog‘lashi.

⁶ Ag‘yor – begonalar, g‘ayrlar; raqiblar.

⁷ Parirot – pari yuzli, go‘zal.

⁸ Degru (tegru) – ko‘makchi, muayyan zamon yoki makondagi chegarani anglatadi (qadar, -gacha ma‘nolarini beradi).

⁹ To‘xliyev B. va boshq. Ko‘rsatilgan manba. – 165-b.



Rukn va taqti‘dan ma‘lum bo‘ladiki, vaznlar orasidagi farq faqat to‘rtinchi rukn bilan bog‘liq. Quyida g‘azalning 3-baytini vaznlarga moslaymiz.

Mehr-u va — — V	foni, ey yor, — V — —	ko‘p ko‘rdi — — V	sendi-n+ag‘yor, — V — ~
muzoriyi musammani axrabi musabbag‘			
Javr-u ja — — V	foni bisyor — V — —	qilding ma — — V	nga havola. — V — —
muzoriyi musammani axrab			

Garchi bayt ikki xil vaznda bitilgan bo‘lsa ham, undagi asosiy mazmun ham, tasvir va tasviriy san‘at ham saqlanib qoladi.

“Adabiyot” darsligida Boborahim Mashrabning 2 ta g‘azali, 1 ta murabba‘ va muxammasi o‘rganish uchun tavsiya qilingan. Uning tasavvufona “Bu tani xokini-yu ruhi ravonni na qilay?!” deb boshlanuvchi g‘azali quyidagi matla‘ bayt bilan boshlanadi:

Bu tani xo — V — —	kini-yu ru — V — —	hi ravonni — V — —	na qilay?! — V —
Bo‘lmasa qo — V — —	shimda jonon, — V — —	bu jahonni — V — —	na qilay?! — V —

Ko‘rinadiki, g‘azalda *foilotun* asliy rukni va *foilun* tarmoq ruknlarining ketma-ket takrorlanib kelishini ko‘ramiz. Foilun

tarmoq rukni foilotun asliy ruknidan hosil bo'lgani uchun she'r ramal bahrida yozilgan. Baytdagi ruknlar soni 8 ta va u aruz tizimida musamman deyiladi. Har qaysi misrada 1-, 2-, 3-ruknlar foilotunning solimiga, oxirgi ruknlar esa mahzuf tarmog'i foilun (— V —)ga teng. Shuning uchun g'azalning vazni *ramali musamani mahzuf* deb ataladi. Ruknlari va taqti'si misrada:

foilotun — V — —	foilotun — V — —
<i>ramali musamani mahzuf</i>	
foilotun — V — —	foilun — V —

singaridir. She'rni ifodali o'qish uchun ayrim o'rinlarda o'quvchilar e'tiborini jalb qilish zarur. G'azal quyidagicha o'qiladi:

Bu tani xokini-yu ruhi ravonni na qilay?!

Bo'lmasa qoshimda jonon, bu jahonni na qilay?!

Yor(i)siz ham bodasiz Makkaga bormoq ne kerak?!

Ibrohimdin **qolg'o-n+ul** eski do'konni na qilay?!

Urayinmu boshima sakkiz behisht-u do'zaxin,

Bo'lmasa vasli menga, ikki jahonni na qilay?!

Zarrayi nuri quyoshdek bu jahon ichra tamom,

Osh(i)koro bo'lmasa, sirri nihonni na qilay?!

Arsh(i)ning kungurasin ustig'a qo'y dum oyog'im,

Lomakondin¹ **xaba-r+oldim**, bul makonni na qilay?!

Bir Xudodin o'zgasi barcha g'alatdur, Mashrabo,

Gul agar bo'lsa qo'lumda, ul tikanni na qilay?!²

¹ Lomakon – makonsiz.

² To'xliyev B. va boshq. Ko'rsatilgan manba.— 184-b.

G'azal matnini vaznga moslab o'qish uchun ta'kidlangan o'rinlarni qo'shib, ikkinchi baytdagi **yorsiz**, to'rtinchi baytdagi **oshkoro**, beshinchi baytdagi **ashk** so'zlarini **yor(i)siz**, **osh(i)koro**, **ashk(i)** singari, to'rtinchi baytdagi **tamom** so'zida "o" unlisini cho'zib talaffuz qilish yetarli ekanligi eslatiladi. She'r tahlili davomida tanlangan vazn g'azaldagi g'oyalarning ta'sirchan ifodalanishiga yordam bergani ta'kidlab o'tiladi.

Shoirning "O'rtar" radifli g'azali *hazaji musammani solim* ruknlari va taqti'si: mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylun V — — / V — — — / V — — — / V — — —) vaznida yaratilgan. G'azal mazkur vazn ohangida ifodali o'qiladi:

Agar oshiqlig'im aytsam, kuyub jon-u jahon o'rtar,
Bu ishq sirrin bayon etsam, taqi ul xonumon o'rtar.

Kishiga ishq o'tidin zarraye yetsa, bo'lur **giryon**¹,
Bo'lub besabr-u betoqat, yurak-bag'ri chunon o'rtar.

Meni bexonumon tinmay kuyub-yondim firoqingda,
Oting tutsam, nigoro debki, zavqidin zabon² o'rtar.

Qayu til birla, ey jono, seni vashfing bayon aylay,
Tilim lol-u ko'zum giryon, so'ngaklarni³ nihon o'rtar.

Na qattiq kun ekan, jono, visolingdin judo bo'lmoq,
Meni ohim tutunig'a zamin-u **os(i)mon** o'rtar.

Bu dard ila xarob o'ldum, kelib holimni so'rmassan,
G'aming boshqa, alam boshqa, yurakimni fig'on o'rtar.

Bu Mashrab dardini, jonoki, har kim boshig'a solma,
Agar mahsharda oh ursam, bihishti jovidon⁴ o'rtar


Faqat, 2-bayt 1-misra *hazaji musammani musabbag'* (ruknlari va taqti'si: mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylun V — — — / V — — — / V — — —)da yozilgan.

¹ Giryon – yig'lovchi, yig'lab turgan.

² Zabon – til.

³ So'ngak – suyak.

⁴ Jovidon – doimiy, abadiy.



She‘rdagi vaznlarni saqlash uchun qofiyadosh misralardagi so‘zlarni radifga, 3-baytdagi **bayon** so‘zi aylar so‘ziga qo‘shilib, **jaho-n+o‘rtar, xonumo-n+o‘rtar, chuno-n+o‘rtar, zabo-n+o‘rtar, niho-n+o‘rtar, os(i)mo-n+o‘rtar, fig‘o-n+o‘rtar, jovido-n+o‘rtar, bayo-n+aylar** kabi talaffuz qilinadi.

Mashrabning “Bulbuldayinkim faryod etarman” singari murabba’si ham darslikga kiritilgan. Janr sifatida murabba’ boshqa sinf darsliklarida uchramagani uchun o‘qituvchi mazkur bandli she’r haqida ma’lumot berishi muhim sanaladi. Murabba’ arabcha “to‘rtlik” degan ma’noni bildiradi. Adabiy istiloh sifatida “har bandi to‘rt misradan tashkil topgan she’riy shaklni ifodalaydi”¹. Shayx Ahmad Taroziy “Funun ul-balog‘a” asarining muqaddimasida “ammo musammati murabba’ aningtek bo‘lurkim, she’rni to‘rt qism qilurlar. Uch qismning oxirinda saj’ rioyat qilibtur. To‘rtinchi qismda qofiya keltur(ur)lar”², – deb yozadi. Demak, murabba’ to‘rtlik she’r bo‘lib, a-a-a-a, b-b-b-a, v-v-v-a... tarzida qofiyalanadi.

Professor B.To‘xliyevning ta’kidlashicha, mazkur “...to‘rtliklar o‘z tarixiy ildizlari bilan qadimgi turkiy xalqlar adabiyotiga, xususan, o‘zida xalq og‘zaki ijodining, shuningdek, yozma adabiyotning ham eng yaxshi namunalarini jamlagan “Devonu lug‘ot-it turk”ka borib taqaladi³. Murabba’ janrining ilk namunalari xalq og‘zaki ijodida uchraydi (“Alp Er To‘nga”). Yozma adabiyotda Ahmad Yassaviy ijodidan boshlangan. Mashrab, Ogahiy, Avaz O‘tar, Muqimiy murabba’ janrida barakali ijod qildilar⁴.

¹ Хожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият луғати. – Т.: Янги аср авлоди, 2008. – 59-б.

² Шайх Аҳмад Тарозий. Фунун-ул балога. Нашрга тайёрловчи А.Ҳайитметов. – Т.: Ҳазина. 1996. – 128-б.


³ Тўхлиев Б. “Қутадғу билиг”нинг поэтикаси масалалари // Ўлмас обидалар. – Т.: Фан, 1989. – Б. 339.

⁴ Yusupova D. Aruz va mumtoz poetikaga kirish. – Т.: Akademnashr, 2020. – 232-б.

Mashrabning “Bulbuldayinkim faryod etarman” murabba’si quyidagi band bilan boshlanadi:

— —	V — —	— —	V — —
mutaqoribi musammani aslam			
Bulbul	dayinkim	faryo	-d+etarman,
Ishq daf	tarini	bunyo	-d+etarman,
Ko’ngul	larimni	man sho	-d+etarman,
Yorg’a	yetar kun	bormu,	yoronlar?

Jadval asosida keltirilgan baytlarga e’tibor berilsa, 2 ta qisqa va 8 ta cho’ziq hijoning ketma-ket takrorlanishi o’ziga xos musiqiy ohangni hosil qilganligi seziladi. Matla’lardagi birinchi va uchinchi rukn faul-lun aslining aslam tarmog’i *fa’lun* (— —)ga, ikkinchi hamda to’rtinchi rukni esa solimi *fauvlun*(V — —)ga teng. Demak, murabba’ muta-qorib bahrining *mutaqoribi musammani aslam* o’lchovida yozilgan. Bir misrada ruknlari va taqti’si quyidagichadir:



Murabba’ning yuqorida keltirilgan bandini ushbu vaznga qoidalari asosida ifodali o’qish uchun **faryod**, **bunyod**, **shod** kabi qofiyadosh so’zlarini radifga qo’shib talaffuz qilish zarur. She’rning 2-bandining 1–3-misralari yuqoridagi vaznga yaqin *mutaqoribi musammani aslami musabbag*’da yaratilgan. Ushbu o’lchov *mutaqoribi musammani aslamdan* oxirgi hijoning o’ta cho’ziqligi bilan farqlanadi. Ya’ni faul-lun asliy ruknining o’rniga uning tarmog’i fau-llonga (musabbag’) o’zgaradi va quyidagicha ko’rinishga ega bo’ladi:

Mutaqorib bahri



mutaqoribi musammani aslam

fa' lun fau vlun fa' lun fau vlun
 -- / V -- / -- / V --

*mutaqoribi musammani aslami
 musabbag'*

fa' lun fau vlun fa' lun fau vlun
 -- / V -- / -- / V -- ~



She'ning 2-bandini vaznga moslab, jadvalda quyidagicha aks ettiriladi:

G'am	bah	ri	qil	di	mav	ji	ni	bun	yod,
Ish	qing	da	qil	dim	yuz	o	hu	far	yod,
O't	ti	ni	go	rim	chun	sar	vi	o	zod,
—	—	V	—	—	—	—	V	—	~
mutaqoribi musammani aslami musabbag'									
Yor	g'a	ye	tar	kun	bor	mu,	yo	ron	lar?
—	—	V	—	—	—	—	V	—	—
mutaqoribi musammani aslam									

Murabba'ning qolgan 2 bandi *mutaqoribi musammani aslam* vazni ohangida o'qiladi.

Mashrabning “Na g'urbatlarni chektim charxi bebunyod dastingdin” muxammasi “O'rtar” radifli g'azali kabi *hazaji musammani solim* (ruklari va taqti'si: mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylun V — — — / V — — — / V — — — / V — — —) vaznida bitilgan. Muxammas janri haqidagi ma'lumotlar bilan 10-sinfda tanishiladi. 11-sinfda savol-topshiriqlar asosida janrning imkoniyatlari haqida o'quvchilar bilimi mustahkamlanadi.

Shoirning 11-sinfda berilgan “Na g'urbatlarni chektim charxi bebunyod dastingdin” deb boshlanuvchi muxammasining umumiy hajmi 5 bandni tashkil etadi. Muxammas quyidagi band bilan boshlanadi.

Na g'urbatlarni chektim charxi **bebunyod**¹(i) dastingdin,
Mudom motamda o'ttum, bo'lmadim **dilshod**²(i) dastingdin,
Tamomi xonumonim bo'ldi chun **barbod**(i) dastingdin,
Hama **obod**(i) bo'ldi, bo'lmadim **obod**(i) dastingdin,
Ki man har qayga borsam **do-d+etarman, dod**(i) dastingdin.

Muxammasga asos bo'lgan vazn misralardagi **bebunyod, dilshod, barbod, obod** (ikki o'rinda), **dod** so'zlari o'ta cho'ziqligini hisobga olib, ular tarkibidagi unililarni cho'zib, shuningdek, **dod etarman** so'zlarini qo'shib talaffuz qilishni taqozo etadi. She'ning qolgan bandlari ham *hazaji musammani solim* imkoniyatlari bilan ifodali o'qiladi.

11-sinf "Adabiyot" darsligida g'azal, murabba', muxammas kabi janrlar keltirilgan. Ular aruz tizimining ramal, hazaj, mutaqorib, muzori' bahri vaznlarida yozilgan. Mumtoz janrlar uchun tanlangan mavzular bir-birini takrorlamaydi.

¹ Charxi bebunyod – omonat dunyo ma'nosida.

² Dilshod – ko'ngli shod, xursand.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Alisher Navoiy. Badoye’ ul-vasat. TAT. 10 jildlik. 3-jild. – T.: G’afur G’ulom nomidagi NMIU, 2013. – 763-b.
2. Alisher Navoiy. Favoyid ul-kibar. TAT. 10 jildlik. 4-jild. –T.: G’afur G’ulom nomidagi NMIU, 2013. – 839-b.
3. Alisher Navoiy. G’aroyib us-sig’ar. TAT. 10 jildlik. 1-jild. – T.: G’afur G’ulom nomidagi NMIU, 2013. – 803 b.
4. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. TAT. 10-jildlik. 9-jild. – T.: G’afur G’ulom nomidagi NMIU, 2013. – 768 b.
5. Alisher Navoiy. Mezon ul-avzon. TAT. 10 jildlik. 10-jild. – T.: G’afur G’ulom nomidagi NMIU, 2013. – 684 b.
6. Alisher Navoiy. Nazm ul-javohir. TAT. 10 jildlik. 10-jild. – T.: G’afur G’ulom nomidagi NMIU, 2013. – 684 b.
7. G’iyosiddin Xondamir. Makorim ul-axloq (fors tilidan sharqshunos Komiljon Rahimov tarjimasini). – T.: Akademnashr, 2017.
8. Hojiahmedov A. Aruz nazariyasi asoslari. – T.: Akademnashr, 2018. – 80 b.
9. Rahmonova Sh. Maktab darsligida keltirilgan aruz vaznlari tahlili (8-sinf “Adabiyot” darsligi misolida) // Til va adabiyot ta’limi. – Toshkent, 2019. – № 9. – B. 23-25.
10. Sirojiddinov Sh. va boshq. Navoiyshunoslik. – T.: Akademnashr, 2020. – 306-b.
11. To’xliyev B. va boshq. Adabiyot. 10-sinf uchun darslik. 1-qism. –T.: O’zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017. –184 b.
12. To’xliyev B. va boshq. Adabiyot. 11-sinf uchun darslik. 1-qism. – T.: “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2018. – 200 b.
13. Umumiy o’rta va o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartini tasdiqlash to’g’risida. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori // O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami. – T.: 2017 йил 14 (774)-son, 230-modda. – 33-б.
14. Umurov H. Adabiyotshunoslik asoslari. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. – 264 b.

15. Yoʻldoshev Q., Qodirov V., Yoʻldoshbekov J. 9-sinf “Adabiyot” darsligi. T.: “Oʻzbekiston” NMIU, 2019. – B. 189.

16. Yusupova D. Aruz alifbosi. – T.: Akademnashr, 2015. – 136 b.

17. Yusupova D. Aruz va mumtoz poetikaga kirish. – T.: Akademnashr, 2020. – 301 b.

18. Yusupova D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. – T.: Taʼlim-Media, 2019. – 184 b.

19. Абдуллаев В.А. Ўзбек адабиёти тарихи. Иккинчи китоб. – T.: Ўқитувчи, 1964. – 168 b.

20. Абдуллаева М. Тарихий-бадий асарларда кичик жанрлар поэтикasi. – T.: Nodirabegim, 2021. – 172 б.

21. Абдурауф Фитрат. Адабиёт қоидалари: Адабиёт муаллимлари ҳам адабиёт ҳаваслилари учун / Нашрга тайёрловчи, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи Ҳ. Болтабоев. – T.: Ўқитувчи, 1985. – 112 б.

22. Абдурауф Фитрат. Аруз ҳақида. Нашрга тайёрловчи, сўз боши ва изоҳлар муаллифи – Ҳ. Болтабоев. – T.: Ўқитувчи, 1997. – 80 б.

23. Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик. 2-жилд. Лирика. – T.: Фан, 1992. – 202 б.

24. Адизова И. Увайсий ижодида жанрлар такомилли. – T.: Muharrir, 2011. – 36 б.

25. Арасту. Поэтика (Нафис санъатлар ҳақида). Ахлоқи кабир (Катта ахлоқ китоби). – T.: Янги аср авлоди, 2004. – 194 б.

26. Атойи. Девон. – T.: Фан, 2008. – Б. 5188 б.

27. Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадойиъу-с-санойиъ. (А. Рустамов таржимаси). – T.: Фафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. – 398 б.

28. Аъзамов Абдулла. Аруз: Алишер Навоий ва Заҳириддин Муҳаммад Бобур сабоқлари. – T.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2006. – 224 б.

29. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – T.: Ўзбекистон, 2001. – 560 б.

30. Бобур Заҳириддин. Мухтасар. Нашрга тайёрловчи С. Ҳасан. – T.: Фан, 1971. – 412 б.

31. Бобур. Девон. – T.: Фан, 1975. – 67 б.

32. Болтабоев Х. Шарқ мумтоз поэтикаси. Манба ва талқинлар. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 430 б.

33. Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. – Т.: Ўзбекистон, 1993. – 191 б.

34. Воҳидов Э. Изтироб / Аруз ҳақида. – Т.: Ўзбекистон, 1992. – 333 б.

35. Жабборов Н. Замон. Мезон. Шеърят. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2015. – 304 б.

36. Жумахўжа Н. Бир суруд бор эканким... Огаҳийда // Ёшлик, 1997. – №1. – Б. 46-47.

37. Жумахўжа Н. Навоий ғазалиёти талқинлари. – Т.: O‘zbekiston, 2018. – 384 б.

38. Жўрабоев О. Аруз масаласи ва шеър матни / Матнинг матности сирлари. – Т.: TAMADDUN, 2017. – Б. 114-121.

39. Зоҳидова Д. Аруз сабоқлари. – Т.: MUMTOZ SO‘Z. 2016. – 114 б.

40. Исҳоқов Ё. Ғазал. – Т.: Фан, 1978. – 160 б.

41. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т.: O‘ZBEKISTON, 2014. – 219 б.

42. Қодиров В. Аруз вазнини ўқитиш тажрибасидан // Тил ва адабиёт таълими. 2013. – №1. – Б. 30–31.

43. Қодиров В. Мактабда Бобур ижодини ўрганишда узвийлик. – Т.: O‘zbekiston, 2009. – 24 б.

44. Қодиров В. Мумтоз адабиёт: ўқитиш ва муаммолари. – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2009. – 244 б.

45. Қодиров В. Умумтаълим мактабларида ўзбек мумтоз адабиёти намуналарини ўқитишнинг методик-илмий асослари. Пед. фан. док. (DSc) дисс. автореф. – Наманган, 2019. – 73 б.

46. Куронов Д. Адабиётшуносликка кириш. – Т.: Фан, 2007. – 227 б.

47. Лутфий. Сенсан севарим. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. – 146 б.

48. Мирзиёев Ш.М. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш–халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир // Халқ сўзи. 2017 йил 4 август.

49.Навоий асарлари лугати. – Т.: Гафур Гулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – 420 б.

50.Наджибуллохи А. Аруз и соотношение метра и содержания в персидско-таджикской поэзии. Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Душанбе, 2016. – С. 9.

51.Нодира – Комила. Девон. – Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси, 2001. – 349 б.

52.Носиров О. ва бошқ. Ўзбек классик шеърляти жанрляри. – Т.: Ўқитувчи, 1979. – 171 б.

53.Орзибеков Р. Лирикада кичик жанрлар. – Т.: Гафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1976. – 114 б.

54.Очилов Э. Ўзбек адабиётида рубоийнинг ўрганилиши // Ўзбек тили ва адабиёти. 2005. – № 6. – Б. 19-32.

55.Раҳмонова Ш. XX аср иккинчи ярми ўзбек шеърлятида арузнинг поэтик шакл ва вазн такомиллидаги ўрни. Ф.ф.д. (PhD) автореф. – Т.: 2020. – Б. 52.

56.Рустамов А. Аруз ҳақида суҳбатлар. – Т.: Фан, 1972. – 56 б.

57.Сирожиддинов Ш., Одилова Г. Алишер Навоий рубоийляри таҳлили. <http://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/alisher-navoiy-ruboiylari-tahlili.html>.

58.Тошмирзаева Ш. Назм ва наво // Тил ва адабиёт таълими. – Т.: 1999, – №3. – Б. 29-35.

59.Тўйчиева Г. Форс арузи рисоляляри. – Т., 2008. – 239 б.

60.Тўхлиев Б. “Қутадғу билиг”нинг поэтикаси масалляляри // Ўлмас обидалар. – Т.: Фан, 1989. – 339 б.

61.Тўхлиев Б. Ғазал ва уни таҳлил қилиш методикаси / ALISHER NAVOIY VA XXI ASR (xalqaro ilmiy-nazariyanjuman materiallari). – Т.: MASHNUR-PRESS, 2019. – Б. 339-242.

62. Тўхлиев Б. Навоий ғазалляри. Ваъоз. – Т.: 2014. – 260 б.

63.Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирляри” тўғрисидаги қарори // Халқ сўзи. 2017 йил, 21 апрель.

64.Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси” тўғрисидаги Фармони // Халқ сўзи. 2017 йил, 8 феврал.

65. Фурқат. Танланган асарлар. – Т.: Гафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975. – 296 б.
66. Ҳаққулов И. Ўзбек адабиётида рубоий. – Т.: Фан, 1981. – 100 б.
67. Ҳасанов С. Бобурнинг “Аруз рисоласи” асари. – Т.: Фан, 1981. – 96 б.
68. Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият луғати. – Т.: Янги аср авлоди, 2008. – 173 б.
69. Ҳожиаҳмедов А. Мактабда аруз вазнини ўрганиш. – Т.: 1978. – 191 б.
70. Ҳожиаҳмедов А. Навоий арузи нафосати. – Т.: Фан, 2006. – 288 б.
71. Ҳожиаҳмедов А. Ўзбек арузи луғати. – Т.: Шарқ, 1998. – 224 б.
72. Ҳожиаҳмедов А. Фурқат арузи / Фурқат ижодиёти. – Т.: Фан, 1990. – 83-б.
73. Ҳожиаҳмедов А. Шеърини санъатлар ва мумтоз қофия. – Т.: Шарқ НМК, 1998. – 158 б.
74. Ҳомидий Х. ва бошқ. Адабиётшунослик терминлари луғати. Иккинчи нашр. Т.: Ўқитувчи, 1970. – Б. 360.
75. Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунун ул-балоға. Нашрга тайёрловчи А.Ҳайитметов. – Т.: Хазиана, 1996. – 212 б.
76. Шарипова Л. Асл рукнлар // Тил ва адабиёт таълими. 2013. – №3. – Б. 31–32.
77. Шарипова Л. Рубоий вазнлари // Тил ва адабиёт таълими. 2013. – №3. – Б. 21.
78. Юсупова Д. Алишер Навоий “Хамса”сида мазмун ва ритмнинг бадиий уйғунлиги. Тошкент: “MUMTOZ SO‘Z”, 2011. – Б. 144.
79. Юсупова Д. Таълим тизимида рубоий вазнларини ўқитиш тажрибасидан // “Ўзбекистонда хорижий тиллар” илмий-методик электрон журнал. 2019, №4. – Б. 73-81.
80. Юсуф Хос Ҳожиб. Кутадғу билиг / Нашрга тайёрловчи ва сўз боши муаллифи Қ.Каримов. – Т.: Фан, 1971. – 964 б.

MAKTAB DARSLIKLARIDA KELTIRILGAN VAZNLAR NOMI

№	Vazn nomi	Shoir ijodida
8-sinf “Adabiyot” darsligi		
1.	Hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf	Lutfiy
2.	Ramali musammani maxbuni mahzuf	Lutfiy
3.	Hazaji musaddasi mahzuf	Lutfiy
4.	Ramali musaddasi maqsur	Lutfiy, Navoiy
5.	Ramali musaddasi mahzuf	Lutfiy, Navoiy
6.	Ruboiy vaznlari	Navoiy
7.	Ramali musammani maqsur	Navoiy
8.	Mujtassi musammani maxbuni mahzuf	Navoiy
9.	Ramali musammani mahzuf	Nodira
10.	Hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf	Nodira
9-sinf “Adabiyot” darsligi		
11.	Hazaji musaddasi mahzuf	Navoiy, Ogahiy
12.	Hazaji musaddasi maqsur	Navoiy, Ogahiy
13.	Ramali musammani maqsur	Xoja
14.	Rajazi musammani solim	Ogahiy
15.	Hazaji musammani ashtar	Furqat
16.	Ramali musammani mahzuf	Furqat
17.	Hazaji musammani solim	Furqat
18.	Hazaji musammani axrab	Furqat
10-sinf “Adabiyot” darsligi		
19.	Ramali musammani mahzuf	Atoyi, Turdi Farog‘iy
20.	Hazaji musaddasi mahzuf	Atoyi, Navoiy
21.	Hazaji musammani axrabi makfufi maqsur	Atoyi
22.	Hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf	Navoiy
23.	Hazaji musammani solim	Navoiy

24.	Ramali musammani maqsur	Navoiy
25.	Xafifi musaddasi maxbuni mahzuf	Navoiy
26.	Xafifi musaddasi maxbuni maqtuyi musabbag‘	Navoiy
27.	Xafifi musaddasi maxbuni maqtu’	Navoiy
28.	Mutaqoribi musammani mahzuf	Navoiy
29.	Hazaji musammani musabbag‘	Navoiy
30.	Ruboiy vaznlari	Navoiy
11-sinf “Adabiyot” darsligi		
31.	Ramali musammani maqsur	Rabg ‘uziy
32.	Ramali musammani mahzuf	Rabg ‘uziy, Mashrab
33.	Mutaqoribi musammani mahzuf	Navoiy
34.	Mutaqoribi musammani maqsur	Navoiy
35.	Hazaji musammani solim	Bobur, Mashrab
36.	Muzoriyi musammani axrabi makfufi mahzuf	Bobur
37.	Muzoriyi musammani axrab	Bobur
38.	Mutaqoribi musammani aslam	Mashrab

**8-SINF “ADABIYOT” DARSILIGIDA KELITIRILGAN G‘AZALLARNING VAZN
XUSUSIYATLARI¹**

№	Vazn nomi	Bayt	Olingan manba
1.	Hazaji musammami axrabi makfufi mahzuf	Sensan sevarim, xoh(i) inon, xoh(i) inonma, Qondur jigarim, xoh(i) inon, xoh(i) inonma. (Lutfiy)	Sultonmurod O., Ahmedov S., Qo‘chqorov R. Adabiyot. 8-sinf uchun darslik. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2019.
2.	Ramali musammami maxbuni mahzuf	Meni shaydo qiladurg‘on bu ko‘nguldur, bu ko‘ngul, Xor-u rasvo qiladurg‘on bu ko‘nguldur, bu ko‘ngul. (Lutfiy)	Sultonmurod O., Ahmedov S., Qo‘chqorov R. Adabiyot. 8-sinf uchun darslik. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2019.
3.	Hazaji musaddasi mahzuf	Ayoqingg‘a tushar har lahza gisu, Masaldukim?: “Charog‘ tubi qorong‘u”. (Lutfiy)	Sultonmurod O., Ahmedov S., Qo‘chqorov R. Adabiyot. 8-sinf uchun darslik. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2019.
4.	Ramali musammami mahzuf	Doda keldim, ey salotin sarvari, dodim eshit, Sen shah-u , men benavo, lutf ayla , faryodim eshit. (Lutfiy)	Sultonmurod O., Ahmedov S., Qo‘chqorov R. Adabiyot. 8-sinf uchun darslik. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2019.

¹ Sultonmurod O., Ahmedov S., Qo‘chqorov R. Adabiyot. 8-sinf uchun darslik. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2019. – 76-b.

² Maqol.

5.	Ramali musammani mahzuf	Vasl o'yin obod qildim, buzdi hijron oqibat, Seli g'amdin bu imorat bo'ldi vayron oqibat. (Nodira)	Sultonmurod O., Ahmedov S., Qo'chqorov R. Adabiyot. 8-sinf uchun darslik. – T.: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2019.
6.	Hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf	Kel, dahr(i) ni imtihon etib ket, Sayri chamani jahon etib ket. (Nodira)	Sultonmurod O., Ahmedov S., Qo'chqorov R. Adabiyot. 8-sinf uchun darslik. – T.: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2019.

**9-SINF “ADABIYOT” DARSLIGIDA KELTIRILGAN G‘AZALLARNING VAZN
XUSUSIYATLARI¹**

№	Vazn nomi	Bayt	Olingan manba
1.	Ramali musammani maqsur	Bo‘l adolat masnadi uzra Sulaymoni zamon, Toki sandin mustafid o‘lg‘ay bari ahli jahon. (Xoja)	Yo‘ldoshev Q., Qodirov V., Yo‘ldoshbekov J. Adabiyot. 9-sinf uchun darslik. – T.: O‘zbekiston NMIU, 2019.
2.	Hazaji musaddasi maqsur	Baland aylab quyoshga poya navro‘z, Ko‘tardi yer yuzidin soya navro‘z. (Ogahiy)	Yo‘ldoshev Q., Qodirov V., Yo‘ldoshbekov J. Adabiyot. 9-sinf uchun darslik. – T.: O‘zbekiston NMIU, 2019.
3.	Hazaji musaddasi mahzuf	Ilohi, har kuning navro‘z bo‘lsin, Hamisha tole‘ing feruz bo‘lsun. (Ogahiy)	Yo‘ldoshev Q., Qodirov V., Yo‘ldoshbekov J. Adabiyot. 9-sinf uchun darslik. – T.: O‘zbekiston NMIU, 2019.
4.	Rajazi musammani solim	Mushkin qoshining hay‘ati ul chashmi jallod ustina, Qatlim uchun “nas” keltirur “nun” eltibon “sod” ustina. (Ogahiy)	Yo‘ldoshev Q., Qodirov V., Yo‘ldoshbekov J. Adabiyot. 9-sinf uchun darslik. – T.: O‘zbekiston NMIU, 2019.
5.	Hazaji musammani ashtar	Fasli navbahor o‘ldi, ketibon zimistonlar, Do‘st(i)lar, g‘animatdur, sayr eting gulistonlar. (Furqat)	Yo‘ldoshev Q., Qodirov V., Yo‘ldoshbekov J. Adabiyot. 9-sinf uchun darslik. – T.: O‘zbekiston NMIU, 2019.

¹ Yo‘ldoshev Q., Qodirov V., Yo‘ldoshbekov J. Adabiyot. 9-sinf uchun darslik. – T.: O‘zbekiston NMIU, 2019. – 71-b.

6.	Ramali musammani mahzuf	Surmadin ko‘zlar qaro, qo‘llar hinodin lolarang, G‘ozadin yuzlarda tobu, o‘smadin qoshlar tarang. (Furqat)	Yo‘ldoshev Q., Qodirov V., Yo‘ldoshbekov J. Adabiyot. 9-sinf uchun darslik. – T.: O‘zbekiston NMIU, 2019.
7.	Ramali musammani mahzuf	Bir qamar siymoni ko‘rdim baldayi Kashmirda, Ko‘zlari masxur-u yuz jodu erur tasxirda. (Furqat)	Yo‘ldoshev Q., Qodirov V., Yo‘ldoshbekov J. Adabiyot. 9-sinf uchun darslik. – T.: O‘zbekiston NMIU, 2019.
8.	Hazaji musammani solim	Biz istig‘no edi, qichqirmag‘on ma‘vog‘a bormasmiz, Agar chandeki xirman aylasa, dunyog‘a bormasmiz. (Furqat)	Yo‘ldoshev Q., Qodirov V., Yo‘ldoshbekov J. Adabiyot. 9-sinf uchun darslik. – T.: O‘zbekiston NMIU, 2019.

**10-SINF “ADABIYOT” DARSLIGIDA KELITIRILGAN G‘AZALLARNING VAZN
XUSUSIYATLARI¹**

№	Vazn nomi	Bayt	Olingan manba
1.	Ramali musammani mahzuf	Ul sanamkim, suv yaqosinda paritek o‘lturur, G‘oyati nozuklugindin suv bila yutsa bo‘lur. (Atoyi)	To‘xliyev B. va boshq. Adabiyot. 10-sinf uchun darslik. 1-qism. –T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2017.
2.	Hazaji musaddasi maqsur	Jamoling vasfini qildim chamanda, Qizordi gul uyottin anjumanda. (Atoyi)	To‘xliyev B. va boshq. Adabiyot. 10-sinf uchun darslik. 1-qism. –T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2017.
3.	Hazaji musammani axrabi makfufi maqsur	Sensiz bu jahon ayshi alamdur manga, ey do‘st, Shodlig‘i ham mehnat-u g‘amdur manga, ey do‘st. (Atoyi)	To‘xliyev B. va boshq. Adabiyot. 10-sinf uchun darslik. 1-qism. –T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2017.
4.	Hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf	Ko‘zung ne balo qaro bo‘lubtur, Kim, jong‘a qaro balo bo‘lubtur. (Alisher Navoiy)	To‘xliyev B. va boshq. Adabiyot. 10-sinf uchun darslik. 1-qism. –T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2017.
5.	Hazaji	Meni men istagan o‘z suhbatiga arjumand	To‘xliyev B. va boshq. Adabiyot. 10-sinf

¹ To‘xliyev B. va boshq. Adabiyot. 10-sinf uchun darslik. 1-qism. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. – 62-b.

~ 120 ~

	musammani solim	etmas, Meni istar kishining suhbatin ko‘nglum pisand etmas. (Alisher Navoiy)	uchun darslik. 1-qism. –T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2017.
6.	Ramali musammani maqsur	Ey sabo, holim borib sarvi xironomimg‘a ayt, Yig‘larimning shiddatin gulbargi xandonimg‘a ayt. (Alisher Navoiy)	To‘xliyev B. va boshq. Adabiyot. 10-sinf uchun darslik. 1-qism. –T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2017.
7.	Ramali musammani mahzuf	Tor ko‘ngullik beklar, man-man demang, kenglik qiling, To‘qson ikki bovli o‘zbek yurtidur, tenglik qiling. (Turdi Farog‘iy)	To‘xliyev B. va boshq. Adabiyot. 10-sinf uchun darslik. 1-qism. –T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2017.

**11-SINF "ADABIYOT" DARSLIGIDA KELITIRILGAN G'AZALLARNING VAZN
XUSUSIYATLARI¹**

№	Vazn nomi	Bayt	Olingan manba
1.	Ramali musammani mahzuf	Kun hamalga kirdi ersa keldi olam navro'zi, Kechdi bahman zamharir qish, qolmadi qori, buzi. (Rabg'uziy)	To'xliyev B. va boshq. Adabiyot. 11-sinf uchun darslik. 1-qism. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018.
2.	Hazaji musammani solim	Xazon yaprog'i yanglig' gul yuzung hajrida sarg'ordim, Ko'rub rahm aylagil, ey lolarux, bu chehrayi zardim. (Bobur)	To'xliyev B. va boshq. Adabiyot. 11-sinf uchun darslik. 1-qism. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018.
3.	Muzoriyi musammani axrabi makfufi mahzuf	Jonimdin o'zga yori vafodor(i) topmadim, Ko'nglumdin o'zga mahrami asror(i) topmadim. (Bobur)	To'xliyev B. va boshq. Adabiyot. 11-sinf uchun darslik. 1-qism. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018.
4.	Muzoriyi musammani axrab	Xating aro uzoring – sabza ichinda lola, Ul chashmi purxumoring loladagi g'azola (Bobur)	To'xliyev B. va boshq. Adabiyot. 11-sinf uchun darslik. 1-qism. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018.


¹ To'xliyev B. va boshq. Adabiyot. 11-sinf uchun darslik. 1-qism. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018. – 113-b.

5.	Ramali musammani mahzuf	Bu tani xokini-yu ruhi ravonni na qilay?! Bo'lmasa qoshimda jonon, bu jahonni na qilay?! (Mashrab)	To'xliyev B. va boshq. Adabiyot. 11-sinf uchun darslik. 1-qism. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018.
6.	Hazaji musammani solim	Agar oshiq'lig'im aytsam, kuyub jon-u jahon o'rtar, Bu ishq sirrin bayon qilsam, taqi ul xonumon o'rtar. (Mashrab)	To'xliyev B. va boshq. Adabiyot. 11-sinf uchun darslik. 1-qism. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018.

DARSLIKDA KELITIRILGAN RUBOIY VAZNLARI:

Maf'uvlu --- V	Mafoiylu V --- V	Mafoiylun V --- --	Fa' (—)
			Fo' (~)
		Mafoiylu V --- V	Faal (V —)
			Fauvl (V ~)
	Mafoiylun V --- --	Mafoiylun --- --	Fa' (—)
			Fo' (~)
		Mafoiylun --- V	Faal (V —)
			Fauvl (V ~)
	Mafoiylun V --- V	Mafoiylun V --- --	Fa' (—)
			Fo' (~)
		Mafoiylun V --- V	Faal (V —)
			Fauvl (V ~)

RUBOYI VAZNINING HOSIL BO'LISHIDAGI MAFOIYLUN
ASLI VA UNING TARMOQ RUKNLARI



NAVOIY "XAMSA" SINING VAZN XUSUSIYATLARI

№	Navoiy "Xamsa" sining vazn xususiyatlari	Bayt	Doston nomlari
1.	Sari'i musaddasi matviyi makshuf Múftailun múftailun fóilun - V V - - V V - - V -	Garchi gunahning had-u poyoni yo'q, Aylamasang afv ham imkoni yo'q...	"Hayrat ul-abror"
2.	Hazaji musaddasi mahzuf Mafoiylún mafoiylún fauvlún V - - - V - - - V - - -	Dedi: "Qaydinsen ey majnuni gumrah?!" Dedi: "Majnun vatandin qayda ogah?"	"Farhod va Shirin"
3.	Hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf Maf'ulu mafóilun fauvlún - - V V - V - V - -	Ey, aql sening yo'lungda g'ofil Kim, telba sening yo'lungda oqil.	"Layli va Majnun"
4.	Xafifi musaddasi maxbun Fóilotun mafóilun failún - V - - V - V - V V -	Manga ne had demak sangaki, ne qil, Neki bo'lg'ay sanga rizo ani qil.	"Sab'ayi sayyor"
5.	Mutaqoribi musammani mahzuf Fauvlún fauvlún fauvlún faál V - - V - - V - - V -	Eshittimki, bir turfa barno edi, Yuzi dilkashu qaddi ra'no edi.	"Saddi Iskandariy"

~ 126 ~

MAKTAB DARSLIKLARIDA KELTIRILGAN BANDLI SHE'RLARNING VAZN XUSUSIYATLARI

№	Vazn nomi	Bayt	Bandli she'r turi	Olingan manba
1.	Mutaqoribi musammani aslam	Bulbuldayinkim faryod etarman, Ishq daftarini bunyod etarman, Ko'ngullarimni man shod etarman, Yorga yetar kun bormu yoronlar?	Murabba' (Mashrab)	To'xliyev B. va boshq. Adabiyot. 11-sinf uchun darslik. 1-qism. - T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018.
2.	Mutaqoribi musammani aslami musabbag'	G'am bahri qildi mavjini bunyod, Ishqingda qildim yuz ohu faryod, O'tti nigorim chun sarvi ozod, Yorga yetar kun bormu yoronlar?	Murabba' (Mashrab)	To'xliyev B. va boshq. Adabiyot. 11-sinf uchun darslik. 1-qism. - T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018.
3.	Hazaji musammani solim	Na g'urbatlarni chektim charxi bebunyod dastingdin, Mudom motamda o'ttum, bo'lmadim dilshod dastingdin, Tamomi xonumonim bo'ldi chun barbod dastingdin, Hama obod bo'ldi, bo'lmadim obod dastingdin, Ki man har qayga borsam dod etarman, dod dastingdin.	Muxammas (Mashrab)	To'xliyev B. va boshq. Adabiyot. 11-sinf uchun darslik. 1-qism. - T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018.
4.	Ramali musammani	Yod mandin kim berur: yaxshi zamonlar ko'rdiman, Rind sarxayli-yu xush ayshi damo-dam surdiman,	Muxammas (Turdi)	To'xliyev B. va boshq. Adabiyot. 11-sinf uchun

~ 127 ~

	mahzuf	Halqayi ushshoqda bazm-u majolis qurdiman, Mushti xokam davr-u davronlar(ni lekin) ko'rdiman, Xush dimog' etgan mayi sofi – hariflar, durdiman.	Farog'iy)	darslik. 1-qism. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018.
5.	Hazaji musammani axrab	Sayding qo'yaber, sayyod, sayyora ekan mendek, Ol domini bo'ynidan, bechora ekan mendek. O'z yorini topmasdan, ovora ekan mendek, Iqboli nigun, baxti ham qora ekan mendek, Hijron o'qidin jismi ko'p yora ekan mendek, Kuygan jigari, bag'ri sadpora ekan mendek.	Musaddas (Furqat)	Yo'ldoshev Q., Qodirov V., Yo'ldoshbekov J. Adabiyot. 9-sinf uchun darslik. – T.: O'zbekiston NMIU, 2019.

~ 128 ~

10-ilova

8-SINF “ADABIYOT” DARSLIGIDA KELTIRILGAN FARDLARNING VAZN XUSUSIYATLARI¹

№	Vazn nomi	Bayt	Olingan manba
1.	Mujtassi musammani maxbuni mahzuf	Yuqar yamonlig' angakim, kirar yamon el aro, Ko'mir aro ilik urg'an qilur ilikni qaro. Alisher Navoiy	Sultonmurod O., Ahmedov S., Qo'chqorov R. Adabiyot. 8-sinf uchun darslik. – T.: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2019.
2.	Ramali musaddasi mahzuf	Ulki, sanga eldin erur ayb(i)go', Elga dog'i sendin o'lur ayb(i)jo'. Alisher Navoiy	Sultonmurod O., Ahmedov S., Qo'chqorov R. Adabiyot. 8-sinf uchun darslik. – T.: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2019.
3.	Ramali musammani maqsur	Men sinuq, ko'nglum – sinuq, sabrim uyi xud – yerga past, Bilmagay holim shikastin, ko'rmagan muncha shikast. Alisher Navoiy	Sultonmurod O., Ahmedov S., Qo'chqorov R. Adabiyot. 8-sinf uchun darslik. – T.: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2019.

¹ Sultonmurod O., Ahmedov S., Qo'chqorov R. Adabiyot. 8-sinf uchun darslik. – T.: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2019. – 76-b.

**10-SINF “ADABIYOT” DARSLIGIDA KELITIRILGAN QIT’ALARNING VAZN
XUSUSIYATLARI¹**

№	Vazn nomi	Bayt	Olingan manba
1.	Xafifi musaddasi maxbuni mahzuf Xafifi musaddasi maxbuni maqtu’yi musabbag’ Xafifi musaddasi maxbuni maqtu’ Xafifi musaddasi maxbuni maqtu’yi musabbag’	Tengri xonin ochuq aqida qilib, Xalqdin ro’ziy istagan gumroh. Uyladurkim tengiz qirog’inda, Ro’za ochmoqqa kimsa qozg’oy choh.	Alisher Navoiy
2.	Hazaji musaddasi mahzuf	Debon bergan kishi erdur, va lekin Demay berganga erlik bil musallam. Ne deb, ne bersa bilgil ani xotun, Bebon bermasni xotundan dag’i kam.	Alisher Navoiy
3.	Hazaji musammani solim Hazaji musammani musabbag’	Agar oqil esang, uzgil jahon ahlidin ulfatkim, Alardin juz jafokelmas, agar yuz yil vafo qilsang. Biriga yuz Xito mulki xirojin aylasang isor, Xatosiz qasdi joning qilg’usidur, gar xato qilsang.	Alisher Navoiy
4.	Hazaji musammani musabbag’	Navoiy she’ri to’qquz bayt-u, o’n bir bayt, o’n uch bayt	Alisher

¹ To’xliyev B. va boshq. Adabiyot. 10-sinf uchun darslik. 1-qism. – T.: “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. – 62-b.


	Hazaji musammani solim	Ki, lavh uzra qalam ziynat berur ul durri maknundin. Bukim, albatta, yetti baytdin o’ksuk emas, ya’ni Tanazzul aylay olmas rutba ichra yetti gardundin.	Navoiy
5.	Mutaqoribi musammani mahzuf	“Jahon ganjig’a shoh erur ajdaho” Ki, o’tlar sochar qahri hangomida. Aning komi birla tirilmak erur, Maosh aylamak ajdaho komida.	Alisher Navoiy


MAKTAB DARSLIKLARIDA KELITIRILGAN TUYUQLARNING VAZN XUSUSIYATLARI¹

№	Vazn nomi	Bayt	Olingan manba
1.	Ramali musaddasi maqsur Ramali musaddasi mahzuf	Ko'ngluma har yonki boqsam, dog'i bor. Har necha dardimni desam, dog'i bor. Qilcha tanga bori ishqing yor edi. Bir sori bo'ldi firoqing, dog'i bor. (Lutfiy)	Sultonmurod O., Ahmedov S., Qo'chqorov R. Adabiyot. 8- sinf uchun darslik. – T.: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2019.
2.	Ramali musaddasi mahzuf Ramali musaddasi maqsur	Men sening ilkingdin ey dil, bandamen, Vah, qachon yetgaymen ul dilbanda men. Bevafolarg'a meni qilding asir, Sen menga sultonsen ey dil, banda - men. (Lutfiy)	Sultonmurod O., Ahmedov S., Qo'chqorov R. Adabiyot. 8- sinf uchun darslik. – T.: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2019.
3.	Ramali musaddasi mahzuf	Charxi kajraftor elidin yozamen, Chiqmadim hijron qishidin yoza men, Bir meni yorliq bila yod etmas ul, Har necha ul shahg'a qulluq yozamen. (Lutfiy)	Sultonmurod O., Ahmedov S., Qo'chqorov R. Adabiyot. 8- sinf uchun darslik. – T.: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2019.
4.	Ramali musaddasi mahzuf	Necha dedim ul sanamg'a: Bormog'in! Qilmadi ul tark oxir bormog'in, Munchakim xudroyliq ko'rguzdi ul, Aql hayrat qildi tishlab barmog'in.	Sultonmurod O., Ahmedov S., Qo'chqorov R. Adabiyot. 8- sinf uchun darslik. – T.: G'afur G'ulom nomidagi NMIU,

¹ To'xliyev B. va boshq. Adabiyot. 10-sinf uchun darslik. 1-qism. –T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. – 62-b.

5.	Ramali musaddasi mahzuf	O'tkali ul sarvi gulrux soridin, Yo'q xabar ul sarvi gulruxsoridin. Hajridin bog' ichra berur yodima, Qoshidin sarvu gul ruxsoridin. (Alisher Navoiy)	2019. Sultonmurod O., Ahmedov S., Qo'chqorov R. Adabiyot. 8- sinf uchun darslik. – T.: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2019.
6.	Ramali musaddasi maqsur Ramali musaddasi mahzuf	Tiyg'i ishqing yorasidur butmagon, Dardini har kimga oytib butmagon, Hajr sahrosidur ohim o'tidin, Anda gul yoxud giyohe butmagon. (Alisher Navoiy)	Sultonmurod O., Ahmedov S., Qo'chqorov R. Adabiyot. 8- sinf uchun darslik. – T.: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2019.





MUNDARIJA

1. KIRISH.....	3
2. 8-sinf “Adabiyot” darsligida keltirilgan janrlarning vazn xususiyatlarini o‘rganish muammolari.....	5
3. 9-sinf “Adabiyot” darsligida keltirilgan janrlarda ramal, hazaj va rajaz bahrlarining qo‘llanilishi.....	48
4. 10-sinf “Adabiyot” darsligida keltirilgan janrlarda vazn va mavzu.....	65
5. 11-sinf “Adabiyot” darsligida keltirilgan janrlarda she’riy o‘lchov masalasi.....	89
6. Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	109
7. Ilova.....	114

Shahnoza Rahmonova

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA ARUZ TIZIMINI O'QITISH MUAMMOLARI

Uslubiy qo'llanma

“Mahalla va Oila” nashriyoti

Nashriyot ro'yxat raqami № 1043191. 24.09.2021-y.

Bosishga ruxsat etildi: 10.12.2021.

“Times New Roman” garniturası. Qog'oz bichimi: 60x84 ¹/₁₆

Nashriyot bosma tabog'i 8,25. Adadi 200 nusxa.

100129, Toshkent shahri, Shayxontohur tumani,

Navoiy ko'chasi, 30-uy.

OOO “AKTIV PRINT” bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent, Chilonzor 25, Lutfiy 1A.

Shahnoza Rahmonova

**UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA
ARUZ TIZIMINI O'QITISH
MUAMMOLARI**

ISBN 978-9943-7775-4-5



9 789943 777545